



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI  
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI**

**SUD-EKSPERTLIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**SUD EKSPERTIZASI: UMUMIY MASALALARI  
VA YECHILADIGAN SAVOLLAR**

*(o'quv va amaliy qo'llanma)*



Sud ekspertizasi: umumiy masalalari va yechiladigan savollar (o'quv va amaliy qo'llanma) nomli ushbu qo'llanmada keng jamoatchilik vakillarining sud ekspertizasi va uning imkoniyatlari to'g'risida dastlabki tushuncha va ko'nikmalarga ega bo'lishiga qaratilgan ma'lumotlar jadvallar shaklida aks etgan.

**Mas'ul muharrir:** A. Xalilov – X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi direktori

**Mualliflar jamoasi:** N. Qolqanov, N. Xalilova, M. Maxkamov, N. Saitova, D. Ataniyazov, S. Kudratov, T. Muxitdinov, A. G'ofurjonov, F. Samadova

**Taqrizchilar:** N. V. Korablyova, Materiallar, ashyolar, buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi Bosh eksperti, kimyo fanlari nomzodi.  
Y. K. Rustemov, Yong'in-texnikaviy ekspertizasi laboratoriyasi mudiri, 3-darajali adliya maslahatchisi.

Qo'llanmada O'zbekiston Respublikasida sud ekspertizasi institutini amalga oshirishning tashkiliy, huquqiy va uslubiy jihatlarini aks ettiruvchi jadvallar mavjud. Materiallar respublikada amaldagi sud ekspertizasi to'g'risidagi qonunchilik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunosti hujjatlariga asoslangan holda tayyorlangan.

Qo'llanma huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, sudyalar, advokatlar, ekspertlar, malaka oshiruvchilar va huquqshunoslik yo'nalishdagi talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot institutining Idoralararo ilmiy-uslubiy Kengashining 2023-yil 18-aprel kunidagi 2-sonli hamda X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining 2023-yil 5-may kunidagi 3-sonli Ilmiy kengash yigilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

<b>Muqaddima .....</b>	<b>4</b>
<b>I Bo‘lim: Umumiy qism. Sud-ekspertlik faoliyatini tashkil etish asoslari.....</b>	<b>6</b>
1. 1-mavzu: Sud-ekspertlik faoliyati .....	6
2. 2-mavzu: Sud ekspertizasi tushunchasi, predmeti va vazifalari.....	8
3. 3-mavzu: Sud ekspertizasi obyektlari va namunalari.....	13
4. 4-mavzu: Ekspert tadqiqoti uchun namunalar .....	15
5. 5-mavzu: Sud ekspertizalarining tasnifi.....	20
6. 6-mavzu: Sud ekspertizasini tayinlash va bajarishning tashkiliy masalalari.....	25
7. 7-mavzu: O‘zbekiston respublikasi ekspertiza muassasalari.....	29
8. 8-mavzu: Ekspertiza tayinlash va o‘tkazishning shartligi.....	32
9. 9-mavzu: Sud eksperti quyidagilarga haqli emas.....	34
10. 10-mavzu: Sud ekspertining huquqiy maqomi.....	36
11. 11-mavzu: Sud ekspertizasi va ishtirokchilarning protsessual huquqlari.....	39
12. 12-mavzu: Sud ekspertizasining uslubiy (metodik) asoslari.....	41
13. 13-mavzu: Analitik (obyektlarni alohida o‘rganish bosqichi).....	43
14. 14-mavzu: Ekspert xulosasi: tuzilishi va mazmuni.....	45
<b>II Bo‘lim: Maxsus qism: Sud ekspertizalari va ular hal qiladigan masalalar...</b>	<b>46</b>
1. 1-mavzu: Sud-ballistika ekspertizasi.....	46
2. 2-mavzu: Sud kompyuter-texnikaviy ekspertizasi.....	52
3. 3-mavzu: Sud-fonografiya ekspertizasi.....	54
4. 4-mavzu: Materiallar ashyolar buyumlar kriminalistik ekspertizasi.....	56
5. 5-mavzu: Sud-biologiya ekspertizasi.....	70
6. 6-mavzu: Sud-iqtisodiy ekspertizasi.....	81
7. 7-mavzu: Sud-tovarshunoslik ekspertizasi.....	99
8. 8-mavzu: Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi.....	103
9. 9-mavzu: Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi .....	108
10. 10-mavzu: Sud-filologiya (muallifshunoslik) ekspertizasi.....	112
11. 11-mavzu: Sud-siyosatshunoslik-lingvistik ekspertizasi.....	113
12. 12-mavzu: Sud-avtotexnika ekspertizasi.....	116
13. 13-mavzu: Yong‘in-texnik ekspertizasi.....	122
14. 14-mavzu: Sud-qurilish-texnik ekspertizasi.....	125
<b>Xulosa.....</b>	<b>129</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>130</b>

## MUQADDIMA

Bugungi kunda sud-ekspertlik faoliyati mamlakatimiz sud va huquqni muhofaza qilish tizimining ajralmas qismi, tergovni muvaffaqiyatli yuritib, odil sudlovni ta'minlashda turli maxsus bilimlarni qo'llashning eng samarali shakli hisoblanadi. Sud ekspertizasi sudda ishni ko'rib chiqishda maxsus bilimning ilmiy natijalarini qo'llashda sud va dastlabki tergov organlarining bilim imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Amaliyotdan ma'lum bo'lmoqdaki, biron-bir jinoyatni fosh etish u yoki bu turdag'i ekspertizani tayinlash va o'tkazish orqali amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan qaror va farmonlar sud ekspertizasi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini munosib himoya qilish uchun amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarning mantiqiy davomi, "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan ezgu g'oyani hayotga izchil tatbiq etish borasidagi faoliyatni jadallashtirishga asos bo'lmoqda. Jumladan, Hukumatning 2021-yil 22-noyabrdagi 706-sonli qarori bilan 51 xil sud ekspertizasi turlarini o'z ichiga olgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o'tkazilishi mumkin bo'lgan sud ekspertizasi turlari bo'yicha tadqiqotlar ro'yxati tasdiqlandi. Shunga muvofiq, davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnomaga asosida jismoniy hamda yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq mutaxassis fikri berilmoqda.

Shuningdek, 2022-yilning 3-avgust kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi 786-sonli Qonuni bilan "Advokatura to'g'risida"gi, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonunlarga, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual, Iqtisodiy-protsessual va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu bilan iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritishda advokatga sudga qadar tayyorgarlik va sud jarayonida ekspert xulosasini sud muhokamasida taqdim etish uchun davlat va nodavlat sud-ekspertiza muassasalarida shartnomaga asosida advokat so'rovi yuborish orqali ekspertiza o'tkazish tashabbusi huquqi berildi. Xususan, iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritishda sudga qadar tayyorgarlik va sud jarayonida ishonch bildiruvchi shaxsning roziligi bilan ekspert xulosasini sud muhokamasida taqdim etish huquqi asosida davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarida shartnomaga asosida advokat so'roviga ko'ra ekspertiza o'tkazilishini so'rash, shuningdek, ekspertiza xulosasining ish materiallariga qo'shib qo'yilishini va sud tomonidan

ushbu xulosa ishdagi mavjud dalillar bilan birgalikda baholanishini talab qilish huquqi shular jumlasidandir.

Advokat so‘roviga ko‘ra tayinlanadigan sud-ekspertizaning afzalligi shundaki, bunda advokat shaxsan hal etilishi lozim deb topgan savollarni ekspertlar oldiga qo‘yish va ushbu savollar asosida xulosa olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa, sudda tortishuv instituti tamoyilining to‘laqonli amalga oshirilishi orqali odil sudlovni yanada ta’minlashga xizmat qiladi.

Sud ekspertizasining paydo bo‘lishi va shakllanishi ilmiy-texnik taraqqiyotning sud jarayoniga ta’siri namoyon bo‘lishining bir amaliy ifodasi sifatida ilmiy bilimlarni tabaqlashtirish va birlashtirish tendensiyasining natijasi tarzida vujudga keldi. Sud ekspertizasi hozirgi vaqtida o‘ziga xos nazariya va metodologiyaga ega mustaqil ilmiy yo‘nalishdir. Ilmiy-texnika taraqqiyotining zamonaviy yutuqlaridan keng foydalangan holda sud ekspertizasi maxsus bilimlar instituti sifatida muttasil rivojlanib bormoqda. Unda yangi xususiy nazariyalar shakllanadi, ekspertizaning yangi avlodlari (turlari) yaratiladi. Bu esa fuqarolarga o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilishda sud-ekspertiza xizmatlaridan samarali foydalanishlari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

# I BO'LIM. UMUMIY QISM: SUD-EKSPERTLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

## 1-MAVZU: SUD-EKSPERTLIK FAOLIYATI

Sud-ekspertlik faoliyati deganda sud ekspertizasini tashkil etish va olib borish bo'yicha sud ekspertizasi organlari va sud ekspertlarining faoliyati tushuniladi.

Sud ekspertizasi sud-ekspertlik faoliyatning bir qismi hisoblanib fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakatni bildiradi.

Fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat, ma'muriy sud ishlari va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish holatlari bo'yicha ekspertizalarni bajarish

Sud eksertizasi bo'yicha ilmiy ishlarni olib borish

qonuniylik

inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi

**Sud-ekspertlik faoliyati o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi**

Sud eksertlarini kasbiy tayyorgarligi va ularning malakasini oshirish

Sud eksertizasining ilmiy-uslubiy va axborot ta'minoti

sud ekspertining mustaqilligi

**Sud-ekspertlik faoliyatining asosiy prinsiplari**

sud-ekspert tekshirishlarining xolisligi, har tomonlamaligi va to'liqligi

Davlat sud-ekspertiza muassasalari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasalari fuqarolik ishlari va iqtisodiy ishlari bo‘yicha sud ekspertizalarini o‘tkazganlik uchun to‘lov undirishga haqlidir. Bunda sudda da’vo taqdim etgan hamda da’voni quvvatlayotgan davlat organlari davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan o‘tkazilgan sud ekspertizalari uchun to‘lovdan ozod etiladi. To‘lov miqdori va mazkur mablag‘larni sarflash tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

Boshqa tashkilot xodimlari va boshqa jismoniy shaxslar tomonidan sud ekspertizalari o‘tkazilganligi uchun to‘lov sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

### **Sud-ekspertlik faoliyatida Xalqaro hamkorlik**

Davlat sud-ekspertiza muassasalari O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq sud-ekspertlik faoliyati sohasida chet davlatlarning tegishli organlari va muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi.

Sud ekspertizasini tayinlagan ogran(shaxs) o‘z tashabbusi yoki sud ekspertizasi organi rahbarining iltimosnomasi bilan qonunda belgilangan tartibda sud ekspertizasi sohasida xorijiy davlat mutaxassisini sud eksperti sifatida jalb qilishga haqlidir.

Xorijiy davlatlarning sud ekspertlari ishtirokida sud ekspertizasini o‘tkazish sud ekspertizasi ijrochisining mamlakat protsessual qonunchiligidagi belgilangan tartibda, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni talablari asosida amalga oshiriladi.

## 2-MAVZU: SUD EKSPERTIZASI TUSHUNCHASI, PREDMETI VA VAZIFALARI

**Sud ekspertizasi** – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma’muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san’at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o’tkazish va xulosa berishdan iborat bo‘lgan protsessual harakat.

tergovchining (sudning) sud ekspertizasini tayinlash to‘g‘risidagi qaror (ajrim) ko‘rinishidagi topshirig‘ining mavjudligi

sud eksperti tomonidan huquqning boshqa subyektlaridan farqli o‘laroq, maxsus ilmiy bilimlardan majburiy foydalanish, bu faktlarni ilmiy talqin qilish asosida xulosa berishni nazarda tutadi.

tadqiqotni maxsus subyekt-sud eksperti tomonidan o’tkazilishi.

### Sud-ekspertizasining o‘ziga xos xususiyatlari

sud ekspertining huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi huquqiy maqomini protsessual tartibga solinishi.

ekspertizalarni tayinlash va olib borishda fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

Xulosa asoslantirilmaganda yoki uning to‘g‘riligiga shubha tug‘ilganda yoxud unga asos qilib olingan dalillar ishonchli emas deb topilganda yoki sud ekspertizasini o’tkazishning protsessual qoidalari jiddiy buzilganda qayta sud ekspertizasi tayinlash imkonи mavjudligi.

qonunda ekspert mustaqilligining huquqiy kafolatlari va uning xulosalarining to‘g‘riligining huquqiy kafolatlari mavjudligi.

sud eksperti tomonidan berilgan xulosadan norozilik, ish tayinlagan idora tomonidan asosalntirilishi lozim.

## Sud ekspertizasi predmeti

Umumiy  
(ilmiy jihatdan aniqlanadi)

Aniq (xususiy)  
(savollar orqali aniqlanadi)

bular maxsus bilimlar asosida  
aniqlanishi lozim bo‘lgan haqiqiy  
ma’lumotlar, jinoiy, fuqarolik  
yoki ma’muriy ishlarning  
holatlari.

bular ekspertiza bo‘yicha hal etish  
uchun qo‘yilgan savollar bo‘yicha  
maxsus bilimlar asosida  
aniqlanishi lozim bo‘lgan haqiqiy  
ma’lumotlar, jinoiy, fuqarolik yoki  
ma’muriy ishlarning aniq holatlari.

sud ekspertizasining vazifasi – tergovchining (sudning) ekspert tadqiqotining  
u yoki bu turi bo‘yicha aniq savollarda ifodalangan vazifasi

sud ekspertizasining vazifasining ilmiy talqini – bu:

Metodologik asosi

Ekspertlik tadqiqotini metodikasi va  
nazariyasini rivojlantirish uchun  
baza

sud ekspertizasi predmetining  
mohiyatini tushunish uchun

sud ekspertizasini tayinlashda aniq  
savollarni shakllantirish uchun

ekspertiza vazifasi tushunchasi ekspert oldiga qo‘yilgan savol tushunchasiga  
yaqin bo‘lib: turli xil ta’riflardan birini olib qarasak, u muayyan ekspertizani  
bajarish uchun ekspert oldiga qo‘yilgan savollar ko‘rinishida ifodalanishi  
mumkin.

Sud ekspertizasining vazifasini ma'lum sharoitlarda berilgan va fanda ishlab chiqilgan usullar bilan erishilgan maqsad sifatida tushunish uning metodologik mohiyatini aks ettiradi va uning tarkibiy elementlarini aniqlashtirishga imkon beradi, xususan:

uning yechimini ta'minlaydigan shartlar (dastlabki ma'lumotlar)

ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan ekspertizalarni bilish usullari, vositalari va usullari

### **Ekspert vazifalari quyidagilarga bo'linadi:**

ekspertiza turi (turi) ning vazifalari

- sud ekspertizasi turi (turi) ning namunaviy vazifasini ilmiy jihatdan aniqlash

muayyan ekspertizaning vazifalari

- ekspertning oldiga hal etish uchun qo'yilgan savollarda keltirilgan vazifa

### **Ekspert vazifalarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:**

diagnostik

identifikatsion

klassifikatsion

situatsion

Ushbu vazifalarning har biri ekspertning atrof muhitdagi hodisalar va obyektlar o'rtasidagi mavjud aloqalarni qabul qila olish xususiyatiga qarab, aniqlangan faktlarni umumlashtirishning o'ziga xos darajasiga ega.

## **Ekspert vazifalarini daraja mezoniga ko‘ra tasniflash:**

Ekspert bilimlari tarkibida diagnostika vazifalar boshqa har qanday tadqiqotlarni oldindan belgilab beradigan asosiy vazifalardir, chunki moddiy obyektlarning tabiatini yoki ularning ekspert tahlili jarayonida ularning holatini bilmasdan, farqlamasdan, aniqlamasdan (aynan shu vazifalarni ekspert diagnostikasi hal qiladi), umuman har qanday tadqiqotni o‘tkazish imkoniyati haqida gapirish qiyin.

Klassifikatsion muammosining maqsadi o‘rganilayotgan obyektni ma’lum bir to‘plamga, guruhga ajratish tartibi, ya’ni tasniflash, uning asosiy printsipi ko‘rib chiqilayotgan obyektlarni berilgan namunalar, standartlar, fan tomonidan ishlab chiqilgan sinflar vakillari bilan ilmiy taqqoslashdir.

Klassifikatsiya muammosining mohiyati nafaqat o‘rganilayotgan obyektda uning tabiatini yoki holatini tan olish, balki aniqlangan xususiyatlarni boshqa obyektlarning sinflari, avlodlari, turlari, pastki turlari belgilari bilan izchil qiyosiy o‘rganish va taqqoslash, ular orasidagi farqlar va tasodiflarni aniqlash va asoslashdan iborat.

O‘z navbatida, kriminalistik identifikasiysi – bu tashqi dunyodagi o‘ziga xos ma’lum bir xususiyatlarga ko‘ra obyektning o‘ziga xosligini yoki yo‘qligini aniqlashga imkon beradigan bilish jarayoni, ya’ni, o‘rganilayotgan voqeя bilan bog’liq bo‘lgan bitta obyektni o‘rganish (individualizatsiya qilish).

Situatsion darajadagi vazifalarni baholashda ularning voqeя sodir bo‘lgan joyning moddiy holatini yoki uning qismlarini yoki uning elementlarining qismlarini genetik, funktsional yoki boshqa aloqa shakllarini aniqlash asosida tahlil qilish orqali voqeani umuman aniqlash-qayta tiklashga yo‘naltirilganligidan kelib chiqish kerak.

## **SITUATSION DARAJADAGI XUSUSIY VAZIFALAR ANIQLASHGA (O'R NATISHGA) QARATILGAN**

hodisani amalga oshirish usuli

hodisa amalga oshirish imkoniyatlari

hodisa sodir bo‘lgan joyi

hodisa sodir bo‘lgan vaqtি

obyektlarning o‘zaro ta’sir mexanizmi

obyektni o‘zgartirish sabablari va shartlari

hodisa va oqibatlar o‘rtasidagi sababiy bog'liqlik

amalga oshirilgan hodisa oqibatida yuzaga keladigan holatlari

### **3-MAVZU. SUD EKSPERTIZA OBYEKTTLARI VA NAMUNALARİ.**

Ekspert tadqiqoti obyektlari deganda protsessual qonun hujjatlarida belgilangan axborot manbalari – ekspert muammolarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan ish materiallari tushuniladi.

Ekspertiza obyektlari bo‘lishi mumkin:

- ashyoviy dalillar;
- hujjatlar;
- hayvonlar;
- murdalar;
- insonning tanasi va ruhiy holati;
- ekspertiza predmetiga oid ish materiallari.

Sud ekspertizasi umumiylasida ekspert tadqiqoti obyekti uch elementdan iborat murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi:

- 1) fakt to‘g‘risidagi ma’lumot manbasi;
- 2) ma’lum bir fakt, voqeа to‘g‘risidagi ma’lumotlarning moddiy tashuvchisi;
- 3) axborotni manbadan tashuvchiga uzatish mexanizmi, boshqacha aytganda, aks ettiruvchi va aks ettiruvchi komponentlar va ularning o‘zaro ta’siri mexanizmi.

Sud ekspertizasining samaradorligi ekspertga taqdim etilgan ish materiallarining mazmuni va sifatiga bog‘liq.

Ekspertga ko‘pincha ishning barcha materiallari to‘liq hajmda beriladi, bu esa uni o‘z vakolatiga kirmaydigan ma’lumotlarni o‘rganishga va baholashga majbur qiladi, bu xulosani berish muddatiga va ekspert xulosalariga ta’sir qilishi mumkin.

Shuning uchun ekspertiza obyekti bo‘lgan ish materiallari tadqiqot tayinlashdan oldin ehtiyyotkorlik bilan tanlanishi kerak.

Qonunga ko‘ra, ekspertizani tayinlagan organ ekspertiza obyektlarining ishonchhliligi va yo‘l qo‘yilishini kafolatlaydi.

Ekspertizani o‘tkazish davomida uning obyektlari ekspertizani tayinlagan organning ruxsati bilan faqat tadqiqot o‘tkazish va xulosa berish uchun zarur bo‘lgan darajada shikastlanishi yoki ishlatalishi mumkin. Ko‘rsatilgan ruxsatnoma sud ekspertizasi tayinlash to‘g‘risidagi qarorda yoki sud ekspertining iltimosnomasini qanoatlantirish to‘g‘risidagi asoslantirilgan qarorda yoxud uni qanoatlantirishni qisman rad etish xujjatida ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Sud ekspertizasi obyektlari, agar ularning o‘lchamlari va xususiyatlari bunga imkon bersa, qadoqlangan va muhrlangan holda ekspertga topshiriladi. Boshqa hollarda sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) sud ekspertini o‘rganish obyektlari joylashgan joyga yetkazilishini, ularga to‘siqlarsiz kirishini va tadqiqot o‘tkazish uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashi shart.

### **Ekspertiza obyektlari xususiyatlarining tasnifi:**

#### **Bilim jarayonidagi qiymati bo‘yicha:**

Diagnostik;  
Klassifikatsion;  
Identifikatsion.

#### **Muhimligi bo‘yicha:**

Ahamiyatli;  
Ahamiyatli emas;

#### **Kelib chiqishi bo‘yicha:**

Shaxsiy;  
Erishilgan.

#### **Tabiatи bo‘yicha:**

Qonuniy;  
Tasodifiy.

#### **Mavjudlik muddati bo‘yicha:**

Barqaror;  
Beqaror.

#### **Obyektga yoki uning qismlariga nisbatan:**

Umumiy;  
Xususiy.  
**Boshqa belgilar bilan aloqada bo‘lish orqali:**

Qaram;  
Mustaqil.

**Xususiyati bo‘yicha:**  
Sifatiy;  
Miqdoriy.

#### **4-MAVZU: EKSPERT TADQIQOTI UCHUN NAMUNALAR.**

Tekshirishni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan tirik odam, murda, hayvon, o'simlik, buyum, material yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi obyektlar tekshirish uchun namunalardir.

Sud ekspertizasini o'tkazishda tekshirish obyektlari (tirik odamdan tashqari) tekshirishni o'tkazish uchun qay darajada zarur bo'lsa, shu darajada shikastlanishi yoki ishlatilishi mumkin.

Namunalar sifatida, xususan, quyidagilar olinishi mumkin:

- Qon, maniy, sochlар, tирноq kesmalari;
- Tananing tashqi qismini mikroskopik qirindisi;
- Ter-yog‘ izlari, tish qoliplari, suyak fragmentlari;
- So‘lak, ter-yog‘ va boshqa ajratmalar;
- Mahsulotlar, inson ko‘nikmalarini aks ettiruvchi boshqa materiallar;
- Qo‘lda yozilgan matn;
- Ovozning fonogrammasi;
- Tayyor mahsulotlarning materiallar, moddalar va xom ashyo namunalari;
- Gilzalar, o‘qlar, qurol va mexanizm izlari namunalari va boshqalar.

Vujudga kelish xususiyatiga ko‘ra namunalar quyidagilarga bo‘linadi:

- tergov qilinayotgan hodisadan oldin va u bilan bog‘liq holda (erkin);
- ishni tergov qilish jarayonida yuzaga kelgan, lekin ular bilan bog‘liq bo‘limgan voqealar (shartli ravishda erkin);
- ishni tergov qilish munosabati bilan yuzaga keladigan (eksperimental).

Barcha hollarda, namunalar olingandan so‘ng, asoslantirilgan qaror chiqariladi, unda:

- namunalarini olish kerak bo‘lgan shaxs (tashkilot);
- namunalarni oluvchi shaxs;
- qanday namunalar qancha miqdorda olinishi lozimligi;
- shaxsdan namunalarni olish uchun u qachon va kimning yonida hozir bo‘lishi lozimligi;
- namunalar olingandan so‘ng qachon va kimga taqdim qilinishi lozimligi ko‘rsatilishi kerak.

Hodisa joyida yoki ashyoviy dalillarda izlar boshqa shaxs tomonidan qoldirilgan bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida yetarli dalillar mayjud bo‘lsa, namunalar ushbu shaxsdan shakllangan izlar bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlar to‘g‘risida guvoh (jabrlanuvchi) sifatida so‘roq qilinganidan keyin olinishi mumkin.

Murdadan namunalar olish, shuningdek namunalar sifatida olib qo‘yish xomashyo, mahsulotlar, boshqa materiallar ishlab chiqarish mos ravishda eksgumatsiya, olib qo‘yish yoki tintuv orqali amalga oshiriladi.

Olingen namunalar qadoqlanadi, muhrlanadi va namunalarni olgan shaxsnинг imzosi bilan tasdiqlanadi. Keyin dastlabki tergovni amalga oshiruvchi shaxs yoki prokuror ularni namunalarni olish bayonnomasi bilan birga tegishli ekspertga yuboradi va ular namunalarni qabul qilgan shaxsnинг imzosi bilan tasdiqlanadi.

Agar olingen namunalar sud qarori bilan amalga oshiriladigan bo‘lsa, ushbu qarorni bajargan tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror namunalarni olinganligi to‘g‘risidagi bayonnomaga bilan birga sudga yuboradi.

Sud tomonlar ishtirokida:

- namunalarni ko‘zdan kechiradi;
- ularning haqiqiyligi va xavfsizligiga ishonch hosil qiladi;
- tegishli ekspertga namunalarni ushbu qaror va bayonnomaga bilan birga taqdim etadi.

**Namunalar shifokor yoki boshqa mutaxassis tomonidan qabul qilinganda maxsus tartib nazarda tutilgan. Ushbu holatda:**

Jinoyat protsessini yurituvchi organ tegishli shaxsni shifokor yoki boshqa mutaxassisiga yuboradi, shuningdek undan namunalar olish to‘g‘risidagi qarorni qabul qiladi, bunda shifokor yoki boshqa mutaxassisiga e’tiroz bildirish masalasi qaror chiqargan organ tomonidan hal qilinadi.

Shifokor yoki boshqa mutaxassis zarur harakatlarni amalga oshiradi va ekspertiza uchun namunalar oladi. Bunday holda, og‘riq keltirmaydigan, inson hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lmagan ilmiy-texnik vositalardan foydalanish mumkin.

Namunalar qadoqlanadi, muhrlanadi, namunalarni qabul qilgan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanadi va tegishli organga yuboriladi.

Hayvonlardan tadqiq qilish uchun namunalar olish zarurati tug‘ilganda jinoyat protsessini yurituvchi organ veterinar yoki boshqa mutaxassisiga tegishli qaror yuboradi.

Namunalarni olishda namunalarni olish usullari va ilmiy-texnikaviy vositalari inson hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfsiz bo‘lishi kerakligiga e’tibor berish kerak.

Og‘riqni keltirib chiqaradigan murakkab tibbiy muolajalar yoki usullarni qo‘llashga faqat namunalar olinadigan shaxsning yozma roziligi bilan, agar u voyaga etmagan yoki ruhiy kasallikdan aziyat chekayotgan bo‘lsa u holda uning qonuniy vakillarining roziligi bilan ruxsat etiladi.

Gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan namunalar majburiy tarzda olinishi mumkin.

Namunalar jabrlanuvchi va guvohdan faqat ularning roziligi bilan olinishi mumkin, agar:

- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi ularni jinoyat sodir etishda ayblovchi dalillarni tekshirish uchun ushbu harakatni talab qilsa;

- zarur hollarda venerik va boshqa yuqumli kasalliklar diagnostikasi uchun namunalar olish, agar bunday tashxis ish uchun ahamiyatli bo'lsa;

- jabrlanuvchidan, ushbu ishlar bo'yicha guvohdan, shuningdek ariza beruvchidan va ariza beruvchi jinoiy huquqbazarlik sodir etgan shaxs sifatida bevosita ko'rsatgan shaxsdan namunalarni majburiy ravishda olishga faqat prokurorning ruxsati yoki sud qarori bilan yo'l qo'yiladi.

Sudgacha tergovni amalga oshiruvchi shaxs namunalarni qabul qilib, namunalarni olish bo'yicha ko'rيلган barcha harakatlar, ular o'tkazilgan ketma-ketlik, tadqiqot va qo'llaniladigan boshqa usul va tartiblarni, shuningdek namunalarning o'zi bo'yicha bayonnomaga tuzadi.

Agar namunalar jinoyat protsessini olib boruvchi organ nomidan shifokor yoki boshqa mutaxassis tomonidan olingan bo'lsa, u bu haqda rasmiy hujjat tuzadi, u ko'rsatilgan harakatning barcha ishtirokchilari tomonidan imzolanadi va ishni yurituvchi organga topshiriladi. Qadoqlangan va muhrlangan holda olingan namunalar bayonnomaga ilova qilinadi.

Shuni hisobga olish kerakki, ekspertga taqdim etilgan obyektlarning huquqiy rejimiga rioya qilish pirovard natijada ekspertning o'zi tomonidan ularni dastlabki o'rganish jarayonida ham, ekspert xulosasini tergovchi yoki sud tomonidan baholashda ham amalga oshiriladi. Agar ekspert o'ziga taqdim etilgan o'rganish obyektlari yoki materiallar xulosa berish uchun yaroqsiz yoki yetarli emas va ularni to'ldirish mumkin emas degan xulosaga kelgan taqdirda, u xulosa berishning mumkin emasligi to'g'risida ma'lumotnoma tuzadi va uni ekspertiza tayinlagan shaxsga yuboradi.

Shunga o‘xshash holat qonun talablarini e’tiborsiz qoldirish natijasida yuzaga kelgan ekspertiza obyektlarining protsessual tartibi buzilganda ekspertiza o‘tkazish jarayonida ularni mustaqil ravishda to‘plashiga yo‘l qo‘ymaslik ham uchraydi.

Tergovchi (sud) tomonidan ekspert xulosasini baholash jarayonida bunday faktlarning aniqlanishi ushbu hujjatni dalil sifatida tan olishni rad etishga olib kelishi kerak.

## 5-MAVZU. SUD EKSPERTIZALARINING TASNIFI

Ma'muriy, fuqarolik va jinoyat protsesslarining vazifalarini hal qilish jarayonida jalb qilingan va foydalanilgan ekspert bilimlarning dolzarbligi.

ekspert bilimlarining rivojlanish darajasini

**Sud ekspertizalarining sud protsessi sohasidagi tasnifi amaliy jihatdan quyidagilarni aniqlash imkonini beradi**

bilimlarining yaxshilashning mumkin bo'lgan usullarini

amaliy ahamiyatini

zarur bo'lgan ekspert mutaxassisliklari ro'yxati va shunga ko'ra, ekspert muassasalarining zarur tarkibiy tizimlashtirishni

Sud ekspertizasi tizimi uchun kadrlar tayyorlashning asosiy yo'nalishlari

**Sud-ekspertiza faoliyati amaliyotida A.R.Shlyaxov tomonidan ishlab chiqilgan sud ekspertizalarining tasnifi e'tirof etilgan va haqiqatda o'z ifodasini topgan.**

**Muallif sud-ekspertizani avlodlar, turlar va kichik turlarga bo'lingan to'qqizta sinfga ajratdi.**

Kriminalistik

Sud transport-muhandislik

Sud iqtisodiy

Sud biologik

Sud ekologik

Muhandislik-texnologik  
(materialshunoslik)

**Muallif sud ekspertizasining quyidagi sinflarini ajratadi:**

Sud muhandislik-texnik

Sud-tibbiyot va psixofiziologik

Sud qishloq xo'jalik

Sud-tibbiyot  
va psixofiziologik

Kriminalistik

Muhandislik-  
texnik

Transport-muhandislik

**Y.G.Koruxovning  
sud ekspertizalari  
tasnifi**

Ekologik

Iqtisodiy

Qishloq xo‘jalik

Muhandislik-  
texnologik

Biologik

San’atshunoslik

O.V.Jgenti ekspertiza sinflari sonini to‘qqizdan olti sinfga qisqartirdi. Uning fikricha, bunday soddalashtirish kibernetikadagi mashhur printsipga mos keladi, unga ko‘ra strukturaning ishlash samaradorligi uning murakkabligining pasayishi bilan ortadi.

Kriminalistik

**Muallif tavsiya etgan  
sud ekspertizasi  
sinflari quyidagilarni  
o‘z ichiga oladi:**

muhandislik-  
texnik

biologik-tibbiy

qishloq xo‘jalik

iqtisodiy

sud-transport

Sud ekspertizalarini tasniflashning mahsuldor va amaliy mezoni ekspert tadqiqoti jarayonida qo‘llaniladigan, ekspert muammolarini hal qilishda ishtirok etuvchi muayyan fan metodologiyasida ifodalangan bilimlarni asoslash xususiyati hisoblanadi.

Idrok etish faoliyat vositalariga aylantirilgan metodologiya, shu jumladan, mavzu, obyektlar, usullar (usullar) o‘z mazmuniga ko‘ra fan va amaliyotning muayyan muammolarini hal qilishga qaratilgan bo‘lib, shu nuqtai nazaridan u yoki bu sohani shubhasiz ajratib ko‘rsatish imkonini beradi

Kriminalistik  
ekspertizalar

Odamlar,  
hayvonlar va  
o'simliklarning sud  
ekspertizasi

Hujjatlarni sud  
ekspertizasi

**Taklif etilayotgan  
mezon bo'yicha  
barcha sud  
ekspertizalarini  
quyidagi sinflarga  
bo'lish mumkin:**

Sud-  
muhandislik-  
texnik  
ekspertizasi

Sud-iqtisodiy  
ekspertizasi

Sud portret  
espertizasi

Sud trasologik  
(izshunoslik)  
ekspertizasi

Sud fototexnik  
ekspertizasi

Sud ballistik  
ekspertizasi

Materiallar,  
ashyolar,  
buyumlar  
kriminalistik  
ekspertizasi

**Kriminalistik  
ekspertiza turlari**

Sud  
videofonografik  
ekspertizasi

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar  
va prekursorlarning sud ekspertizasi

Yo'l-transport  
hodisalar  
va transport  
vositalarining  
sud ekspertizasi

### **Odamlar, hayvonlar va o'simliklarning sud ekspertizasi turlari**

Sud-tibbiy ekspertizasi

Sud psixologik-filologik  
tadqiqotlar

Sud-biologik ekspertizasi

Psixologik-kriminalistik sud-  
ekspertiza tadqiqotlari

Psixofiziologik insoniy  
jarayonlarni sud ekspertizasi

Sud-molekulyar genetik  
ekspertizasi

Sud moliya-byudjet  
tadqiqotlari

Sud-moliya va kredit  
tadqiqotlari

Sud  
tovarshunoslik  
ekspertizasi

Iqtisodiy  
operatsiyalarni sud  
ekspertlik tadqiqotlari

**Sud iqtisodiy  
ekspertizasining  
turlari**

Sud-  
buxgalteriya  
tadqiqotlari

Sud yong‘in-  
texnikaviy  
ekspertizasi

Sud qurilish-texnikaviy  
ekspertizasi

Sud  
muhandislik-  
texnologik  
ekspertizasi

Sud portlash-  
texnikaviy  
ekspertizasi

**Sud-muhandislik-  
texnik ekspertizasi  
turlari**

Kompyuter  
tizimlari va  
texnologiyalari-  
ning sud  
ekspertizasi

Elektrotexnik  
tizimlari va  
jihozlarining sud  
ekspertizasi

Sud-agrotexnik  
ekspertizasi

**Tadqiqotlar hajmi bo‘yicha**


Asosiy

Qo‘sishchcha

**Ekspertlar soni bo‘yicha**

Yagona

Komission




### **Protsessual qonunchilikda ekspertizalarning quyidagi huquqiy tasnifi nazarda tutilgan**

Komission ekspertizasi tarkibida ekspertlar komissiyasi tuzilishi belgilangan. Komission ekspertizani tayinlashning sababi - olingen natijalarini birgalikda tahlil qilish va baholash asosida bir xil sud-ekspert ixtisosligidagi ekspertlari tomonidan murrakab tadqiqotlar o'tkazish zarurati.

Qo'shimcha ekspertiza birlamchi ekspertiza etarli darajada aniq yoki to'liq bo'lмаган taqdirda, shuningdek ilgari o'r ganilgan holatlar bo'yicha yangi savollar tug'ilganda tayinlanadi. Qonunga ko'ra, qo'shimcha ekspertizani bajarish xuddi shu yoki boshqa ekspertga topshirilishi mumkin

Kompleks sud ekspertizasi ish uchun ahamiyatga molik holatlarni turli ilm sohalaridan foydalangan holda bir necha tekshirish o'tkazish yo'li bilangina aniqlash mumkin bo'lgan hollarda tayinlanadi. Kompleks ekspertizani bajarish jarayonida har bir ekspert tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida umumiy xulosani shakllantirish amalga oshiriladi.

***Qayta ekspertiza har doim birlamchi eskpertizada tadqiqot qilingan obyektlarni tekshirish va birlamchi ekspertizadagi savollarni hal qilish uchun tayinlanadi.***  
***Uni tayinlash uchun quyidagi holatlar asos bo'ldi:***



## **6-MAVZU: SUD EKSPERTIZANING TAYINLASH VA BAJARISHNING TASHKILIY MASALALARI**

### **TAYYORLASH BOSQICHI:**

1. Ekspertiza tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qilish.
2. Ekspertlik bilimlarni talab qiladigan vazifalarni belgilash.
3. Kerak bo‘lgan muayyan ekspertiza turini belgilash.
4. Ekspertga savollarni shakllantirish.

Ekspertiza tayinlash to‘g‘risida qaror qabul qilish; Bu bosqich dastlabki tergov yoki sud muhokamasi jarayonida ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni aniqlash uchun fan, texnika, san‘at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lgan shaxsni jalb qilishni talab qiladigan vaziyat yuzaga kelishini anglatadi.

Ekspertlik bilimlarni talab qiladigan vazifalarni belgilash; Tergovchi (sud) bo‘lajak tadqiqotning aniq maqsadlarini aniq belgilashi kerak, bu esa ekspertiza maqsadlarini va ekspertiza o‘tkazish uchun zarur va yetarli shartlarni belgilashni nazarda tutadi.

### **KERAK BO‘LGAN MUAYYAN EKSPERTIZA TURINI BELGILASH**

Ushbu masalani hal qilish ekspert bilimlarini jalb qilish samaradorligini oldindan belgilab beradi. Shu munosabat bilan tergovchi yoki sud ekspertizaning mavjud tasniflari va ularning imkoniyatlari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotlarga ega bo‘lishi kerak.

### **EKSPERTGA SAVOLLARNI SHAKLLANTIRISH**

Tergovchi (sud) ekspertiza turini va uning vazifalarini aniqlagandan so‘ng, ekspert tomonidan hal qilish uchun taqdim etilgan savollarni shakllantirishga kirishishi kerak. Isbotlash subyektlari uchun ularni shakllantirishda uslubiy va protsessual talablarga amal qilish muhimdir.

Ekspertga oldiga qo‘yiladigan savollar mantiqiy ketma-ketlikda qo‘yilishi kerak, bu ularning tuzilishini o‘z ichiga oladi, bunda umumiyl tartibdagi faktlar (holatlar) aniqlanishini hisobga olgan holda, tergov (sud) uchun qiziqroq bo‘lgan aniqroq savollarga o‘tish kerak.

Savollar ekspertiza vakolatidan va tanlangan mutaxassisning ixtisosligidan tashqariga chiqmasligi kerak.

Ekspertga oldiga qo‘yiladigan savollar aniq matnni o‘z ichiga olishi va protcess barcha ishtirokchilari uchun tushunarli bo‘lishi kerak.

## **EKSPERTIZA UCHUN DASTLABKI MA'LUMOTLARNI TAYYORLASH BOSQICHI**

Tergovchi (sud) ekspertiza uchun yuborilgan materiallar ro'yxatini aniq belgilashi shart. Bularga tadqiqot obyektlari, ekspert tadqiqoti namunalari, jinoiy, fuqarolik, ma'muriy ish materiallari, xususan, ulardagi ashyoviy dalillar va ekspertga tadqiqot o'tkazish imkonini beruvchi hujjatlar kiradi.

Dastlabki ma'lumotlarni taqdim etishda tergovchi (sud) ekspertiza o'tkazish uchun obyektlar va namunalarga qo'yiladigan protsessual talablarni hisobga olishi kerak, ular orasida tegishlilik, maqbullik va ishonchlilik talablari ko'rsatilishi kerak.

### **Sud ekspertizasi bajarishni tayinlash bosqichi quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

Tayinlash to'g'risida qaror qabul qilish.

Ekspert yoki ekspert muassasasini tanlash.

Tayinlangan ekspertiza materiallarini ekspert yoki sud ekspertizasi organiga topshirish.

Ekspertizani tayinlagan organ (shaxs) sud ekspertiza muassasasi (hududiy bo'lim) rahbariga ekspertiza o'tkazish va xulosa berish uchun zarur bo'lgan ekspertiza obyektlarini va boshqa materiallarni taqdim etadi va shu kunning o'zida sud ekspertiza muassasasi ro'yxatdan o'tkaziladi.

Ekspertiza tayinlashga vakolatlari organ (shaxs) tomonidan tadqiqotlarga sud ekspertizasini tayinlash to'g'risidagi qaror (ajrim), tadqiqot obyektlari va ish materiallari, shuningdek, tadqiqotlarni o'tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo'lgan sud ekspertizasi premetiga taalluqli ma'lumotlarga ega bo'lgan hujjatlar ekspertiza tashkilotiga taqdim etiladi.

Ekspertiza uchun kelib tushgan materiallar rahbar tomonidan ko'rib chiqiladi va ekspertiza o'tkazish uchun sud ekspertiga topshiriladi.

### **Ekspertizalar maxsus jihozlangan xonalarda o'tkaziladi, quyidagi hollar bundan mustasno:**

Sud jarayonida ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish zarurligi.

Obyektlarni katta o'lchamlari yoki o'ziga xos xususiyatlari tufayli ularni saqlanayotgan joyda tadqiqot qilish.

Ko‘rikdan o‘tkazish talab qilinadigan tadqiqot obyektlarini (ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan obyektlardan tashqari) sud ekspertizasidan o‘tkazishda ekspertizani tayinlagan vakolatli organ (shaxs) yoki advokat sud eksperti uchun obyektga to‘siksiz kirishni va uni tekshirish imkonini ta’minlaydi. Ko‘rikdan o‘tkazish ekspertizani tayinlagan vakolatli organ (shaxs) hamda advokat tomonidan tashkil etiladi va ularning majburiy ishtirokida amalga oshiriladi hamda tegishli bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

Ekspert o‘ziga rahbar tomonidan yuklatilgan ekspertizani ijro uchun qabul qilib, taqdim etilgan materiallar va tadqiqot obyektlarini o‘rganadi va ularning qo‘yilgan savollar bo‘yicha xulosa berish uchun mosligi va etarliligiga ishonch hosil qiladi.

Tadqiqotlar o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha ish materiallari va tadqiqot obyektlarini hamda qo‘shimcha hujjatlarni taqdim etish lozim bo‘lganda sud eksperti tomonidan ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs), advokat, jismoniy va yuridik shaxsga 3 ish kunida yozma yoki elektron iltimosnomalar yuboriladi.

Qo‘shimcha ish materiallari faqat ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs), advokat, jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan taqdim etiladi.

Qo‘shimcha ish materiallari 30 kun mobaynida taqdim etilmagan taqdirda, sud eksperti tadqiqotlarni mavjud ish materiallari bo‘yicha o‘tkazadi.

Sud ekspertizasini tayinlagan vakolatli organ (shaxs), advokat, jismoniy yoki yuridik shaxs kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur chora-tadbirlarni ko‘rmasa ekspertiza tashkiloti rahbari 30 kun o‘tgach unga keyingi ish kunida ish materiallarini sud ekspertizasini o‘tkazmasdan qaytaradi.

## SUD EKSPERTIZASINI BAJARISH MUDDATLARI

Ekspertiza tayinlashga vakolatli organ (shaxs)ning qarori (ajrimi) bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish muddatlari ish materiallari ekspertiza tashkilotiga tushgan kundan keyingi ish kunidan boshlab hisoblanadi va sud eksperti xulosasi ekspertiza tayinlagan vakolatli organ (shaxs)ga yuborilgan kunda tugaydi.

Ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs)ning qarori (ajrimi) asosida tadqiqotlarni o‘tkazish muddatlari sud ekspertizalarining hajmi va murakkabligiga, shuningdek, sud ekspertining ish hajmiga ko‘ra 30 kun doirasida belgilanadi.

Tadqiqotlarni o'tkazishni 30 kun mobaynida bajarish mumkin bo'limgan taqdirda, ekspertiza tashkiloti rahbari muddat o'tishidan 3 ish kuni oldin asoslangan holda ekspertiza tayinlagan vakolatli organ (shaxs)ga yozma yoki elektron ravishda xabar qiladi hamda ular bilan kelishgan holda qo'shimcha muddatni belgilaydi.

Sud eksperti tomonidan tadqiqotlarni o'tkazish muddatlari quyidagi davrlarga to'xtatib turiladi:

- ekspertiza tayinlagan vakolatli organ (shaxs), advokat hamda jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan taqdim etilgan ish materiallaridagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish to'g'risida sud eksperti (mutaxassis)ning iltimosnomasini ko'rib chiqish davriga;
- tadqiqotlarni o'tkazishni 30 kun mobaynida bajarish mumkin bo'limgan taqdirda uni o'tkazish muddatlarini kelishib olish to'g'risida yuborilgan xabarni ko'rib chiqish davriga;
- sud ekspertining xizmat safarida, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi yoki mehnat ta'tilida bo'lish davriga, sud ekspertizasini bajarishni boshqa sud ekspertiga topshirish mumkin bo'limganda.

## **7-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKSPERTIZA MUASSASALARI**

### **O'zbekistonda sud ekspertizasi tizimi davlat va nodavlat sektoriga bo'linadi**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazi

O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi huzuridagi Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Qurolli Kuchlari Sud-tibbiy ekspertiza markazi

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Ekspert-kriminalistika bo'limi

Elektron texnologiyalarini rivojlantirish markazi Ekspert-kriminalistika bo'linmasi

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi Markaziy bojxona laboratoriyasi

Nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari

### **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi**

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, odil sudlovnii amalga oshirish, jamoat tartibini, xavfsizlikni ta'minlash, jinoyatlar va huquqbazarlikka qarshi kurashish masalalarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlarga maxsus bilimlarni qo'llash yo'li bilan ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan.

Sud ekspertizasini rivojlantirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi; sud-ekspertlik amaliyotiga yangi uslublarni joriy etish yuzasidan boshqa sud ekspertizasi muassasalariga tavsiyalar beradi.

Imiy-tadqiqot ishlarini bajarish maqsadida grant mablag‘lari olish uchun tanlov va tenderlarda ishtirok etadi.

O‘z faoliyatini rivojlantirish maqsadida Markazni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil qiladi; xalqaro konferensiya, seminar va boshqa anjumanlarni tashkil qiladi hamda ularda ishtirok etadi.

Belgilangan tartibda boshqa davlatlar sud ekspertizasi muassasalari bilan tuzilgan shartnomalar (kelishuv) asosida mutaxassislar, ilmiy-texnik hujjatlar, ilmiy-ishlab chiqarish tajribasi va boshqa axborotlar almashinuvini amalga oshiradi.

### Sud ekspertiza organining rahbari

**Sud ekspertizasi organining rahbari – sud ekspertizasi organining sud ekspertiza faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs (sud ekspertizasi organining birinchi rahbari, sud ekspertizasi organining hududiy bo‘linmasi boshlig‘i) hisoblanadi.**

Sud ekspertizasi organi rahbari quyidagi huquqlarga ega:

1) Markazda tadqiqotlarni o‘tkazish uchun tegishli mutaxassislar yoki zarur moddiy-texnik baza yoxud maxsus sharoitlar bo‘lmasa, sud ekspertizasini tayinlash to‘g‘risidagi qaror, ajrim, so‘rov yoxud murojaatni (tadqiqot o‘tkazish uchun qilingan) ijro etmasdan hamda sud ekspertizasini o‘tkazish uchun taqdim etilgan tadqiqot obyektlari va ish materiallarini uch ish kuni muddatida qaytarish.

2) Sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan), advokat, jismoniy yoki yuridik shaxsdan sud ekspertlari komissiyasi tarkibiga Markazda ishlamaydigan shaxslarni, shu jumladan xorijiy davatlarning mutaxassislarini, agar sud ekspertizasini o‘tkazish uchun ularning maxsus bilimlari zaruriyat talab qilinsa, bu haqda ularga bir ish kuni ichida xat kiritish.

3) Qo‘yilgan masalalarni hal etish uchun zarur bo‘lgan tadqiqotlarni o‘tkazishni o‘z kuchlari va vositalari bilan ta’minlayotgan tashkilotlarga sud ekspertizasini tayinlash to‘g‘risidagi qaror yoki ajrim yoxud so‘rovning ko‘chirma nusxasini yuborish.

4) Agar mavjud bo‘lsa ekspertlik mutaxassisligiga muvofiq sud eksperti sifatida harakat qilish.

**Sud ekspertizasi organi rahbari O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega**

## **Sud ekspertizasi organi rahbari quyidagi huquqlarga ega emas:**

- 1) Sud ekspertizasini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan qo‘sishimcha tadqiqot obyektlarini sud ekspertizasini tayinlagan organning (shaxsning) qarori yoki ajrimisiz talab qilib olish.
- 2) Sud ekspertizasini o‘tkazish uchun ekspertiza muassasasida ishlamaydigan shaxslarni mustaqil ravishda jalb etish.
- 3) Sud ekspertiga muayyan sud ekspertizasi yuzasidan tadqiqot jarayonini va fikrlar mazmunini oldindan belgilab qo‘yadigan ko‘rsatmalar berish.

## **Sud ekspertizasi organining rahbari quyidagilarga majburdir:**

- 1) Markazga sud ekspertizasini o‘tkazish uchun yuborilgan materiallarni qabul qilish va ularning tegishli Nizomga muvofiqligini tekshirishini ta’minlash.
- 2) O‘rinbosari, tegishli laboratoriya (bo‘lim) mudirlari yoki sud ekspertlariga sud ekspertizasini o‘tkazishni tashkil qilish haqida yozma topshiriq berish.
- 3) Sud ekspertizasini o‘tkazish muddatlarini belgilash va unga rioya etilishini nazorat qilish.
- 4) Sud ekspertizasini tayinlash to‘g‘risidagi qaror yoki ajrim olinganidan so‘ng sud ekspertizasini o‘tkazishga qo‘yilgan savollarga javob berish uchun talab qilinadigan ko‘lamda maxsus bilimlarga ega bo‘lgan sud ekspertlariga yoki sud ekspertlari komissiyasiga topshirish.
- 5) sud ekspertini ishga qabul qilishda uning huquq va majburiyatlarini tushuntirishini ta’minlash.

## **8-MAVZU EKSPERTIZA TAYINLASH VA O'TKAZISHNING SHARTLIGI**

*(O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining  
173-moddasiga muvofiq)*

1. o'limning sababini, yetkazilgan tan jarohatlarining xususiyati va og'irlik darajasini;
2. jinsiy aloqada bo'lganlikni, homiladorlik holatini va homilani sun'iy yo'l bilan tushirish belgilarini;
3. gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining yoshini, agar bu haqda hujjatlar bo'lmasa yoki hujjatlar shubba tug'dirsa;
4. gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining, ustidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashga doir ish yuritilayotgan shaxsning ruhiy va jismoniy ahvolini hamda ularning g'ayrihuquqiy qilmishni sodir etayotgan paytda o'z harakatlarini idrok etish va idora qilish layoqatini, shuningdek jinoiy javobgarlikning ahamiyatini tushunish, jinoyat protsessida ko'rsatuvarlar berish hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini;
5. jabrlanuvchining, guvohning ruhiy va jismoniy holatini hamda ular ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni idrok qilish, esda saqlash va so'roq qilganda ifodalab berish layoqatiga ega ekanliklarini, shuningdek jabrlanuvchining jinoyat protsessi chog'ida o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini;
6. tanosil va boshqa yuqumli kasalliklarga chalingan, surunkali ichkilikbozlikka va giyohvandlikka duchor bo'lgan shaxslarni davolash zarurligini va imkoniyatlarini;
7. giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar va ularning turi mavjudligini;
8. pul belgilari, qimmatli qog'ozlar va boshqa hujjatlar qalbakilashtirilganligini;
9. portlashlar, halokatlar va boshqa favqulodda hodisalarning texnikaviy sabablarini aniqlash zarur bo'lganda ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart.

Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sud ekspertizasi predmetiga oid ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish yoki ko'chirma nusxalar olish;

Sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va tadqiqot obyektlari taqdim etilishi haqida iltimosnomalar berish;

Tergov harakatlari o'tkazilayotganda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsati bilan hozir bo'lish va shu tergov harakatlarida ishtiroy etuvchi shaxslarga sud ekspertizasi predmetiga oid savollar berish;

Sud muhokamasida sud ekspertizasi predmetiga oid dalillarni tadqiq etishda ishtiroy etish va so'roq qilinayotgan shaxslarga sudning ruxsati bilan savollar berish;

Ashyoviy dalillar va hujjatlarni ko'zdan kechirish;

O‘z xulosasida nafaqat o‘zining oldiga qo‘yilgan savollar bo‘yicha, balki sud ekspertizasi predmetiga oid va ish uchun ahamiyatga molik boshqa masalalar bo‘yicha ham fikrlarini bayon etish;

Uning xulosasi yoki ko‘rsatuvlari protsess ishtirokchilari tomonidan noto‘g‘ri talqin qilinganligi xususida tergov harakati yoki sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim bo‘lgan bayonotlar berish;

Agar u ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o‘z ona tilida xulosa taqdim etish va ko‘rsatuvlari berish hamda bunday holda tarjimon xizmatidan foydalanish;

Agar uning huquq va erkinliklarini ishni yuritayotgan organning qarorlari, shaxsning harakatlari (harakatsizligi) buzayotgan bo‘lsa, bu qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish.

Sud eksperti qonunchilik hujjalariга muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

### **Sud - ekspertining majburiyatları**

Sud eksperti sifatida o‘zini-o‘zi rad etishi uchun qonunda va mazkur Nizomda nazarda tutilgan asoslar mayjud bo‘lgan taqdirda, bu haqda sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga), advokatga yoki Markazning yoxud boshqa tashkilotning rahbariga darhol ma’lum qilish;

O‘ziga taqdim etilgan tadqiqot obyektlarini har tomonlama va to‘liq tekshirishdan o‘tkazish, o‘z oldiga qo‘yilgan savollar yuzasidan asosli va xolisona xulosa berish;

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning chaqiruviga binoan surishtiruvda, dastlabki tergovda yoki sud majlisida shaxsan ishtirok etish uchun kelish;

O‘zi o‘tkazgan sud ekspertizasi xususida ko‘rsatuvlari berish va o‘zi bergan xulosani tushuntirish uchun qo‘srimcha savollarga javob berish;

Sud ekspertizasini o‘tkazishi munosabati bilan o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan ma’lumotlarni oshkor qilmaslik;

Taqdim etilgan tadqiqot obyektlari va ish materiallarining saqlanishini ta’minlash;

Ish tergov qilinayotganda va sud muhokamasi vaqtida tartibga rioxiga qilish.

Sud eksperti zimmasida qonunchilik hujjalariга muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

## **9-MAVZU: SUD EKSPERTI QUYIDAGILARGA HAQLI EMAS**

ish materiallari bo‘yicha manfaatdor tomonlar bilan qarindosh bo‘lganda;

ish materiallari bo‘yicha manfaatdor tomonlar Markazning direktori va o‘rinbosari, Markazning hududiy bo‘lim boshliqlari (keyingi o‘rnlarda – Markaz rahbari), laboratoriya (bo‘lim) boshliqlari va ularning yaqin qarindoshlari bo‘lganda, bunda tadqiqotlar o‘tkazuvchi yagona tashkilot bo‘lgan holatlar mustasno;

tirik shaxsga nisbatan sud ekspertizasini o‘tkazishda mazkur shaxsga uning tayinlanishidan oldin tibbiy yordam ko‘rsatilganda. Mazkur cheklov sud-tibbiy yoki sud psixiatrik ekspertizalar shaxsni bevosita ko‘rikdan o‘tkazmasdan amalga oshirilgan hollarda ham amal qiladi;

sud ekspertining xolisligiga va beg‘arazligiga shubha tug‘diradigan boshqa holatlar mavjud bo‘lganda.

Sud eksperti yuqorida qayd etilgan holatlarda bevosita rahbarni xabardor qiladi. Rahbar Markazda ushbu mutaxassislik bo‘yicha boshqa sud eksperti bo‘lganda, tadqiqotlarni unga topshiradi. Boshqa sud eksperti bo‘lmagan holatlarda ekspertizani tayinlagan vakolatli organ (shaxs)ga, advokatga yoki tadqiqotlar o‘tkazish uchun murojaat qilgan jismoniy yoxud yuridik shaxsga ish hujjatlarini uch ish kunida ijrosiz qaytarib yuborishini ta’minlashi lozim.

Mazkur tartibga amal qilmaslik qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘ladi.

### **Quyidagi holatlarda sud ekspertiga ish materiallari yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazish taqiqilanadi**

Sud ekspertizasini o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan, ishning natijasidan o‘zining manfaatdor emasligini shubha ostiga qo‘yadigan masalalar yuzasidan protsess ishtirokchilari bilan shaxsiy aloqaga kirishish;

Sud ekspertizasini o‘tkazish uchun mustaqil ravishda materiallar to‘plash;

O‘ziga topshirilgan sud ekspertizasini o‘tkazishga boshqa shaxslarni jalb qilish;

sud ekspertizasi natijalarini sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan) tashqari biron-bir shaxsga xabar qilish;

Agar qonunchilik hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, Markaz rahbaridan tashqari bevosita boshqa biron-bir organdan (shaxsdan) sud ekspertizasini o‘tkazish to‘g‘risida topshiriqlar qabul qilish;

Boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs sifatida sud ekspertizasini o‘tkazish.

Sud eksperti o‘z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildir va uning faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

## Sud ekspertizasini o‘tkazish asoslari

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdon shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi sud ekspertizasini o‘tkazish asoslaridir. Sud ekspertizasi tegishli qaror yoki ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran tayinlangan hisoblanadi.

Sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) tekshirishlarni o‘tkazish va xulosa berish uchun sud ekspertiga zarur bo‘lgan tekshirish obyektlari hamda ish materiallarini taqdim etadi.

Sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) tekshirish uchun namunalar oladi va ularni protsessual qonunda belgilangan tartibda ishga qo‘shib qo‘yadi. Zarur hollarda, bunday namunalarni olish sud ekspertizasini o‘tkazish topshirilgan sud eksperti yoki mutaxassis ishtirokida amalga oshiriladi.

Agar tekshirish uchun namunalar olish tekshirishlarning bir qismi hisoblansa va sud ekspertizasiga taqdim etilgan tekshirish obyektlaridan foydalanilgan holda sud eksperti tomonidan amalga oshirilsa, sud ekspertizasi tugallanganidan keyin mazkur namunalar uni tayinlagan organga (shaxsga) yuboriladi yoxud qonunchilikda belgilangan tartibda davlat sud-ekspertiza muassasasida, agar sud ekspertizasi ushbu muassasada o‘tkazilgan bo‘lsa, saqlanadi.

Sud ekspertizasi qonunchilikda belgilangan muddatlarda o‘tkaziladi.

## 10-MAVZU: SUD EKSPERTINING HUQUQIY MAQOMI

O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga muvofiq **sud eksperti** sifatida davlat sud eksperti, boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin.

Boshqa tashkilot xodimi sud ekspertizasini uni tayinlagan organ (shaxs) tomonidan mazkur tashkilotga berilgan topshiriqni bajarish tartibida o‘tkazadi.

Ishda sud eksperti sifatida ishtirok etish uchun jalg etilgan boshqa jismoniy shaxs biron-bir davlat sud-ekspertiza muassasasi shtatida turmaydi va sud ekspertizasini uni tayinlagan organning (shaxsning) topshirig‘ini bajarish tartibida o‘tkazadi.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar sud eksperti sifatida jalg etilishi mumkin emas. Shaxsning sud eksperti sifatida ishtirok etishini istisno etadigan boshqa holatlar protsessual qonunda nazarda tutiladi.

### Sud ekspertizasini o‘tkazish huquqiga ega

**Davlat muassasasi** sud-ekspertiza faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan muassasa, shuningdek, tegishli davlat organlari, vazirliklar va idoralar tizimidagi ixtisoslashtirilgan sud ekspertizasi bo‘lmalari.

**Nodavlat tashkiloti** fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat, ma’muriy sud ishlari va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud ekspertizasini o‘tkazishga ixtisoslashtirilgan, shtatida sud eksperti sertifikatiga ega mutaxassislari bo‘lgan tashkilot.

**Sud eksperti** - Sud eksperti sifatida davlat sud eksperti, boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin.

Boshqa tashkilot xodimi sud ekspertizasini uni tayinlagan organ (shaxs) tomonidan mazkur tashkilotga berilgan topshiriqni bajarish tartibida o‘tkazadi.

Ishda sud eksperti sifatida ishtirok etish uchun jalg etilgan boshqa jismoniy shaxs biron-bir davlat sud-ekspertiza muassasasi shtatida turmaydi va sud ekspertizasini uni tayinlagan organning (shaxsning) topshirig‘ini bajarish tartibida o‘tkazadi.

## Sud ekspertining huquqlari

Qonunchilikda belgilangan tartibda sud ekspertizasi predmetiga oid ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish yoki ko'chirma nusxalar olish;

Tergov harakatlari o'tkazilayotganda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsati bilan hozir bo'lish va shu tergov harakatlarida ishtirok etuvchi shaxslarga sud ekspertizasi predmetiga oid savollar berish;

Sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va tekshirish obyektlari taqdim etilishi haqida iltimosnomalar berish;

Sud muhokamasida sud ekspertizasi predmetiga oid dalillarni tekshirishda ishtirok etish va so'roq qilinayotgan shaxslarga sudning ruxsati bilan savollar berish; Ashyoviy dalillar va hujjatlarni ko'zdan kechirish;

O'z xulosasida nafaqat o'zining oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha, balki sud ekspertizasi predmetiga oid va ish uchun ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha ham fikrlarini bayon etish;

Uning xulosasi yoki ko'rsatuvlari protsess ishtirokchilari tomonidan noto'g'ri talqin qilinganligi xususida tergov harakati yoki sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan bayonotlar berish;

Agar u ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida xulosa taqdim etish va ko'rsatuvlar berish hamda bunday holda tarjimon xizmatidan foydalanish;

Agar uning huquq va erkinliklarini ishni yuritayotgan organning qarorlari, shaxsning harakatlari (harakatsizligi) buzayotgan bo'lsa, bu qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish.

## Sud ekspertining majburiyatları

Sud eksperti sifatida o'zini o'zi rad etishi uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, bu haqda sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yoki davlat sud-ekspertiza muassasasining yoxud boshqa tashkilotning rahbariga darhol ma'lum qilishi;

O'ziga taqdim etilgan tekshirish obyektlarini har tomonlama va to'liq tekshirishdan o'tkazishi, o'z oldiga qo'yilgan savollar yuzasidan asosli va xolisona xulosa berishi;

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning chaqiruviga binoan surishtiruvda, dastlabki tergovda yoki sud majlisida shaxsan ishtirok etish uchun kelishi;

O‘zi o‘tkazgan sud ekspertizasi xususida ko‘rsatuvlar berishi va o‘zi bergan xulosani tushuntirish uchun qo‘srimcha savollarga javob berishi;

Sud ekspertizasini o‘tkazishi munosabati bilan o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan ma’lumotlarni oshkor qilmasligi;

Taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallarining saqlanishini ta’minlashi;

Ish tergov qilinayotganda va sud muhokamasi vaqtida tartibga rioya qilishi shart.

### **Sud eksperti haqli emas**

Sud ekspertizasini o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan, ishning natijasidan o‘zining manfaatdor emasligini shubha ostiga qo‘yadigan masalalar yuzasidan protsess ishtirokchilari bilan shaxsiy aloqaga kirishishga;

Sud ekspertizasini o‘tkazish uchun mustaqil ravishda materiallar to‘plashga;

Sud ekspertizasi natijalarini sud ekspertizasini tayinlagan organdan (shaxsdan) tashqari biron-bir shaxsga xabar qilishga haqli emas.

Davlat sud eksperti, shuningdek:

Agar qonunchilikda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, davlat sud ekspertiza muassasasi rahbaridan tashqari bevosita boshqa biron-bir organdan (shaxsdan) sud ekspertizasini o‘tkazish to‘g‘risida topshiriqlar qabul qilishga;

Boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs sifatida sud ekspertizasini o‘tkazishga haqli emas.

## **11-MAVZU. SUD EKSPERTIZASI VA ISHTIROKCHILARNING PROTSESSUAL HUQUQLARI**

1. Sud-ekspertlik faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonunlarida nazarda tutilgan inson huquq va erkinliklariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

2. Shaxsning erkinligini vaqtincha cheklashni yoki uning shaxsiy daxlsizligi buzilishini talab etuvchi sud-ekspert tekshirishlari (bundan buyon matnda tekshirishlar deb yuritiladi) faqat qonunda belgilangan asoslar va tartibda o‘tkaziladi.

3. Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasi o‘tkazilishi munosabati bilan qabul qilingan qarorlar, sud ekspertining harakatlari (harakatsizligi) o‘z huquq va erkinliklarining cheklanishiga olib keldi deb hisoblagan shaxs mazkur qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

### **Sud ekspertizasi faoliyatini amalga oshirishda shaxs va fuqaroning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga, yuridik shaxsning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi**

Jinoyat ishlari bo‘yicha ekspertiza tayinlash va uni yuritishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, shuningdek unga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash bo‘yicha ish yuritilayotgan shaxs, agar uning ruhiy holati imkon bersa, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 179-moddasida va boshqa normativ hujjatlarda o‘z manfaatlarini himoya qiluvchi huquqlarning keng ro‘yxati aks ettirilgan.

### **Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ekspertiza tayinlash va o‘tkazishdagi huquqlari ( O‘zR JPKning 179-moddasi)**

#### **1. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi ekspertiza tayinlash va o‘tkazishda quidagi huquqlarga ega:**

1. ekspertiza o‘tkazilgunga qadar ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror yoki ajrim bilan tanishib chiqish va o‘ziga berilgan huquqlar tushuntirilishini talab qilish. Bu haqda bayonnomaga tuziladi yoki sud majlisi bayonnomasiga yozib qo‘yiladi.

2. ekspertni rad etish.

3. o‘zi ko‘rsatgan shaxslar orasidan ekspert tayinlanishini iltimos qilish.

4. ekspert xulosa berishi uchun uning oldiga qo'shimcha savollar qo'yish, qo'shimcha materiallar taqdim etish.

5. ekspertiza o'tkazilayotganda surishtiruvchi, tergovchi, sudning ruxsati bilan hozir bo'lish, ekspertdan tekshiruv vaqtida qo'llayotgan usullarining va olingan natijalarning mohiyatini tushuntirib berishni talab qilish, ekspertga tushuntirishlar berish.

6. ekspert xulosasi bilan tanishib chiqish va qo'shimcha yoki qayta ekspertiza o'tkazish to'g'risida iltimos qilish.

**2. Sanab o'tilgan huquqlardan guvoh, shu jumladan himoyalanish huquqiga ega bo'lgan, ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs va agar uning ruhiy holati imkon bersa, tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risida ish yuritilayotgan shaxs ham foydalanadi.**

3. Murakkab tibbiy tekshiruv usullaridan, shuningdek kuchli og'riq berish bilan bog'liq usullardan majburiy foydalanishga faqat ekspertiza o'tkazilayotgan shaxsnинг roziligi bilan, agar ushbu shaxs voyaga yetmagan yoki uning ruhiy holati buzilgan bo'lsa, uning qonuniy vakilining, vasiysining yoki homiysining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

4. Ekspert tekshiruvi uchun namunalar olishda qo'llaniladigan usullar va ilmiy-texnikaviy vositalar inson hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo'lishi lozim. Kuchli og'riq beradigan murakkab tibbiy tadbirdilar va usullarni qo'llash namuna olinishi lozim bo'lgan shaxsnинг roziligi bilan, basharti u voyaga yetmagan yoki ruhiy holati buzilgan bo'lsa, uning qonuniy vakili, vasiylari yoki homiylarining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

5. Namuna olish namuna olinuvchini yechintirib yalang'ochlash bilan bog'liq bo'lsa, shifokor, boshqa mutaxassis, xolislar namuna olinuvchi shaxs bilan bir jinsda bo'lishlari lozim.

6. Ekspert tekshiruvi uchun namunalar olinganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 90-92-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq surishtiruvchi yoki tergovchi bayonnomma tuzadi, sud esa, o'ziga kelgan namunalarni sud majlisi bayonnomasida aks ettiradi.

7. Advokat so'roviga ko'ra tadqiqotlar iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritilayotganda ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida yoki sud muhokamasi jarayonida davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnomaga asosida ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan amalga oshiriladi.

## **12-MAVZU: SUD EKSPERTIZASINING USLUBIY (METODIK) ASOSLARI**

Ekspertlar tomonidan maxsus bilimlarni qo'llash samaradorligi jinoiy, fuqarolik yoki ma'muriy ishni to'g'ri hal qilish uchun muhim bo'lgan holatlarni aniqlash uchun qiziqish uyg'otadigan obyektlarni o'rganishga ekspert nazariyasini va amaliyoti tomonidan ishlab chiqilgan tizimli yondashuv bilan belgilanadi.

Ushbu yondashuv o'zining shakli va mazmun yo'nalishi bo'yicha umumiyligi kognitiv printsipga ega bo'lgan va sud ekspertizasining umumiyligi nazariyasini tomonidan ekspert tadqiqotlari metodologiyasi sifatida shakllantirilgan ekspert muammolarini hal qilishning turli usullarida o'z ifodasini topgan.

Ekspert tadqiqotining uslubiy asoslari - bu obyektlarni o'rganish va muayyan turdagi sud ekspertizasi yo'nalishidagi tegishli faktik ma'lumotlarni aniqlash uchun usullar, texnikalar va texnik vositalarni maqbul tanlash va qo'llash bo'yicha ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan tavsiyalar tizimi. Biz ko'rib chiqayotgan holatda tizim deganda ekspertiza o'tkazish jarayonida intellektual va texnik salohiyatdan foydalanishning maqsadga muvofiqligi va tartibliligi tushuniladi.

Metodologiya, o'z mohiyatiga ko'ra, o'ziga yuklangan vazifalarni hal qilish uchun maxsus ilmiy bilimlarni qo'llash jarayonida ekspertlarning harakatlari algoritmini anglatadi. Shu munosabat bilan, mavjud bilimlar asosida tadqiqot maqsadidan uning natijasiga silliq o'tishni amalga oshirishga imkon beradigan bilim jarayonining ketma-ketligini hisobga olish muhimdir.

O'z navbatida, kognitiv jarayonning ierarxiyasini unda quyi vazifalarni ketma-ket hal qilish orqali kerakli natijaga erishishni ta'minlaydigan bosqichlarni ajratishni anglatadi.

### **Ekspert tadqiqot metodologiyasini baholashda quyidagi bosqichlarni ajratish lozim:**

Tayyorlovchi;

Analitik;  
(obyektlarni alohida o'rganish bosqichi)

Sintez qilish;  
(obyektlarni qiyosiy o'rganish bosqichi)

Tadqiqot natijalarini baholash bosqichi;

Yakuniy;  
(tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish va yakunlash bosqichi)

## **Tayyorlovchi bosqich**

Birinchi navbatda ekspertni ekspertizaga yuborilgan ish materiallari bilan tanishtirishni o‘z ichiga oladi, bu esa:

Dastlabki ma’lumotlarni tahlil qilish;

Tadqiqot obyektlarini umumiyl tekshirish va baholash;

Hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalarning mohiyatini tushunish;

Tadqiqot maqsadini aniqlash;

Muayyan metodologiyani va shunga mos ravishda tadqiqot usullari va ilmiy-texnik vositalarini tanlashni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot uchun zarur bo‘lgan barcha dastlabki ma’lumotlar mavjudligiga, ularning etarliligi, olinishining qonuniyligi va yaroqliligiga ishonch hosil qilgandan so‘ng, ekspert ekspertiza uchun taqdim etilgan savollarning mohiyatini qonuniyligi va shakllantirilishining to‘g‘riligi nuqtai nazaridan aniqlaydi. Shu bilan birga, ekspertning ularni hal etish bo‘yicha vakolatlari hamda kelgusi tadqiqot uchun tegishli metodologiya va moddiy-texnik bazaning mavjudligi masalasini hal qilinadi.

## **13-MAVZU: ANALITIK (OBYEKTTLARNI ALOHIDA O'RGANISH BOSQICHI)**

Bu bosqichda obyektlarni alohida o'rganish nazarda tutilgan, bu ma'lum bir obyektni individuallashtirish yo'lida ma'lum bosqichlarning mavjudligini nazarda tutadi.

Masalan, identifikatsiya jarayonini aniqlaydigan zarur bosqichlar diagnostika va tasniflash kichik vazifalarini hal qilish bo'lib, ular obyekt xususiyatlarini tanib olish jarayonida olingan umumiylari tartibdagi ma'lumotlardan ular o'rtaida umumiylari guruhga mansublik mavjudligini ko'rsatadigan ma'lumotlarga ketma-ket o'tishni ta'minlaydi.

### **Alohida tadqiqotlar quyidagilar orqali amalga oshiriladi**

Obyektlarning barqaror xususiyatlarini aniqlash va tizimlashtirish;

Obyektlarning noyob xususiyatlarini aniqlash va tizimlashtirish;

Har bir obyekt uchun xususiyatlarning individual to'plamini o'rnatish.

### **Sintez qilish; (obyektlarni qiyosiy o'rganish bosqichi)**

Sintez qilish bosqichining mohiyati qiyosiy tadqiqotdan iborat bo'lib, obyektlarni aniqlashda ekspert bilimlari mazmunini tashkil etuvchi bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi, ular quyidagilardan iborat:

obyektlarni aniqlash uchun aniqlangan xususiyatlarning etarligi nuqtai nazaridan diagnostika va tasniflash kichik vazifalarini hal qilishda olingan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish va baholash;

obyektlarning alohida belgilarining barqarorligi yoki o'zgaruvchanligini qiyosiy tahlil qilish va baholash;

taqqoslanadigan obyektlarda mos keladigan o'ziga xos xususiyatlar majmuasini yaratish, ularni lokalizatsiya qilish;

obyektning barqaror va o'ziga xos xususiyatlari to'plamining mos kelishini aniqlash va baholash;

farqlarni baholash va tushuntirish.

### **Tadqiqot natijalarini baholash bosqichi**

Bu bosqichda ekspert tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalarini baholashni o'z ichiga oladi, bu maxsus hujjatda – ekspertning xulosasida unga berilgan savollarga javoblarni shakllantirishda ifodalanadi.

Xulosalar va ularni belgilangan holatlar, shuningdek ekspert aniqlay olmagan yoki javob berishdan bosh tortgan holatlar bo'yicha asoslash ularga berilgan xulosaning tadqiqot qismida ko'rsatiladi.

Hujjatning yakuniy qismida xulosalar tadqiqotning mantig'i va ketma-ketligiga va olingan yakuniy natijalarga muvofiq shakllantiriladi.

### **Yakuniy;**

#### **(tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish va yakunlash bosqichi)**

Ekspert tadqiqotining ushbu bosqichi uning natijalarini rasmiylashtirishni o'z ichiga oladi.

#### **Xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risidagi hujjat**

Agar sud eksperti qo'yilgan savollarni uning maxsus bilimlari asosida hal qilish mumkin bo'lmasligiga yoki unga taqdim etilgan tekshirish obyektlarining yoxud materiallarning yaroqsizligiga yoki xulosa berish uchun yetarli emasligiga va ularni to'ldirib bo'lmasligiga yoxud fan va sud-ekspertlik amaliyotining holati qo'yilgan savollarga javob topish imkoniyatini bermasligiga ishonch hosil qilsa, u xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risida asoslantirilgan hujjat tuzadi hamda uni sud ekspertizasini tayinlagan organga (shaxsga) yuboradi.

## **14-MAVZU: EKSPERT XULOSASI: TUZILISHI VA MAZMUNI**

O‘zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasiga ko‘ra, **sud ekspertining xulosasi (xulosa)** – sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va sud-ekspert tekshirishlarining olib borilishini va natijalarini aks ettiradigan yozma hujjat.

**Sud eksperti xulosasining kirish qismida** tadqiqot o‘tkazilgan sana va joy, tartib raqami, uning huquqlari va majburiyatlarini unga tushuntirish va uning bilib turib noto‘g‘ri xulosa bergenligi, ish materiallarini oshkor qilganligi, shuningdek uzrli sabablarsiz xulosa berishni rad etganligi yoki bundan bosh tortganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida tushuntirilganligi haqidagi tilxat olinganligi ko‘rsatiladi.

**Xulosaning kirish qismida** sud ekspertizasini o‘tkazish asoslari, ekspertiza o‘tkazishni tayinlagan vakolatli organ (shaxs) yoxud advokat tadqiqotlarni o‘tkazgan sud eksperti (sud ekspertlari), sud ekspertizasi hal etishi uchun qo‘yilgan masalalar, tadqiqot o‘tkazish uchun taqdim qilingan ish materiallari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek, sud ekspertizasini o‘tkazish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

**Sud eksperti xulosasining tadqiqot qismida** sud eksperti oldiga qo‘yilgan har bir masala bo‘yicha tadqiqotlar jarayoni va uning natijalari yoziladi, aniqlangan faktlar bo‘yicha ilmiy tushuntirish beriladi.

**Sud eksperti xulosasining yakunlovchi (xulosa) qismi** sud eksperti oldiga qo‘yilgan masalalarga javob shaklida bayon qilinadi va turli talqinlarga yo‘l qo‘ymaydigan aniq, tushunarli tilda bayon qilinishi lozim.

Agar xulosaning yakunlovchi (xulosa) qismini tadqiqot qismida bayon qilingan tadqiqot natijalarining mukammal tavsifisiz va qo‘yilgan masalaga to‘liq javobsiz shakllantirish mumkin bo‘lmasa, xulosaning tadqiqot qismiga havola qilishga ruxsat beriladi.

## **II BO'LIM. MAXSUS QISM: SUD EKSPERTIZALARI VA UALAR HAL QILADIGAN MASALALAR**

### **1-MAVZU: SUD-BALLISTIKA EKSPERTIZASI**

**Sud ballistika** – kriminalistik texnikaning, o‘qotar qurollar, ularning patronlari va ularning qism va mexanizmlari hamda tarkibiy qismlari, o‘qotar qurollar va patronlarning ishlatish izlari bo‘yicha ma’lumotlarni aks etishi va olish qonuniyatlarini o‘rganadigan, jinoyatlarni ochish va tergov qilish hamda jinoyatchilikni oldini olish maqsadida yuqorida sanab o‘tilgan obyektlarni aniqlash, qayd etish, olish, saqlash va tadqiqot qilish uchun texnik usullar, vosita va metodlar ishlab chiqadigan bir sohasidir.

**Sud ballistika ekspertiza** – qonunda belgilangan protsessual shaklda tegishli ekspert xulosasini rasmiylashtirish bilan, tergov harakatlari va sud muhokamasi jarayonida o‘qotar qurol, o‘q-dorilar va ularning ishlatish izlari haqidagi ilmiy asoslangan ma’lumotlarni olish maqsadida o‘tkaziladigan maxsus ekspertiza tadqiqotlaridir.

**Sud ballistika ekspertizasining predmeti** – qurol va o‘q-dorilarni o‘rganishda maxsus ilmiy bilimlar asosida aniqlangan qurol, o‘q otish belgilarini o‘rganishda faktik ma’lumotlarni, tekshirilayotgan hodisaning holatlarini aniqlash sud ballistik ekspertizasi predmeti hisoblanadi.

#### **Sud ballistika ekspertizasining vazifalari:**

- o‘qotar qurol va o‘q-dorilarning turi, modeli va kalibrini aniqlash, otilgan o‘qlar, gilzalar bo‘yicha aniq qurolni aniqlash;
- qurol va o‘q-dorilarni otish uchun yaroqlilagini aniqlash;
- patronlar, o‘qlar, snaryadlar, o‘qlarning bir xilligini aniqlash;
- o‘qning yo‘nalishini, burchagini, masofasini aniqlash uchun to‘sirlardagi o‘qlarning izlarini o‘rganish.

#### **Sud ballistika ekspertizasi obyektlari quyidagilardir:**

qurol va o‘q-dorilar;  
qurol va o‘q-dorilarning bevosa yoki bilvosita ta’siri natijasida o‘zgargan narsalar;  
tergov va sud tomonidan isbotlash jarayonida olingan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatli protsessual manbalar.

*Sud ballistika ekspertizasining bevosita obyektlariga* – qurol va uning alohida qismlari, o‘q-dorilar va o‘q-dorilarning tarkibiy qismlari, jabrlanuvchining kiyim-kechaklari va voqeа joyidan olingan narsalar (teshiklar, rikoshet izlari), materiallar, xom ashyo, o‘q-dorilar va qurolga o‘zgartirishlar, gaz qurollari va uning patronlari, ekspertiza uchun namunalar, ekspertiza predmetiga tegishli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan ish materiallari (ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirish va olib qo‘yish bayonnomalari, voqeа sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomalari); voqeа joyini ko‘zdan kechirish sxemalari, sud-ekspertiza xulosalari) kiradi.

Ballistik ekspertizalarni o‘tkazish natijasida ekspertlar tomonidan quyidagi savollarga javob berilishi mumkin:

- taqdim etilgan buyum o‘qotar qurollarga va o‘q-dorilar turkumiga tegishlimi?
- taqdim etilgan qurol qaysi tizim, model, namunaga taalluqli?
- taqdim etilgan qurolning (patron) kalibri qanday?
- tadqiqotga taqdim etilgan o‘qotar qurol qanday usul bilan tayyorlangan?
- tadqiqotga taqdim etilgan o‘qotar qurol otish uchun yaroqlimi?
- berilgan o‘q va gilza qanday turdagи o‘qotar quroldan otilgan?
- otilgan o‘q va gilza ilgari bir patronga tegishli bo‘lganmi?
- taqdim etilgan quroldan, uning stvollari oxirgi marta tozalanganidan keyin o‘q otilganmi?
- tekshirilayotgan jarohat o‘q tegishidan hosil bo‘lganmi?
- o‘q qaysi masofadan otilgan? o‘q qaysi joydan otilgan?

## SUD-TRASOLOGIK EKSPERTIZASI

**Trasologiya** – kriminalistikaning alohida bo‘limi bo‘lib, uning vujudga kelishi ko‘chmanchi xalqlar, ovchilar, izquvarlar tomonidan izlarni o‘qish san’atiga borib taqaladi.

Trasologiya – kriminalistika fanining bo‘limi bo‘lib, iz hosil bo‘lishi jarayonining nazariy asoslari, ularni qoldirgan obyektlarning tashqi tuzilishi, izlarning hosil bo‘lish mexanizmlari, izlarni topish, hisobga olish va olib qo‘yish usullari va vositalari, shuningdek jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni aniqlash maqsadida izlar tadqiqotining umumiy va xususiy usullarini o‘z ichiga oladi.

**Trasologik ekspertizasining predmeti** – bu turli izlarni o‘rganishda ularning hosil bo‘lish mexanizmini aniqlash va ularni qoldirgan obyektini aniqlash uchun faktik ma’lumotlarni o‘rnatish hisoblanadi.

### Iz qoldiradigan obyektlarning turiga qarab, izlarning to‘rtta asosiy guruhi ajratiladi:

Odam izlari

Qurol, asbob va ishlab chiqarish mexanizmlarining izlari

Transport vositalarining izlari

Hayvonlar izlari

### Trasologik ekspertizasining vazifalari:

- Izning guruhga mansubligini aniqlash va turli obyektlarni ularning izlari-xaritalashlari bo‘yicha aniqlash;
- qismlarning bir butunga tegishlilagini belgilash;
- izlarning paydo bo‘lish mexanizmi va shartlarini diagnostika qilish, izlarning hodisaga, iz qoldirgan narsalarning xususiyatlari va belgilariga aloqadorligini aniqlash;
- iz qoldirgan holatlarni aniqlash;
- obyektlarning sovuq qurollar toifasiga tegishlilagini aniqlash.

### Bundan tashqari, trasologik tadqiqot obyektlariga quyidagilar kiradi:

Mexanik usul bilan ajratilgan turkum obyektlar yoki monolit obyekt qismlari

Tugun, tamaki qoldiqlari, shuningdek, odamning ish faoliyatini bildiruvchi buyumlar

Qulflar

## Trasologik ekspertizasining obyektlari

Odam va uning  
kiyimi

Qurol, asbob  
va ishlab chiqarish  
mexanizmlarining  
izlari

Buzish asboblari

Transport vositalari

Hayvonlar izlari

### Trasologik ekspertizasiga quyidagi savollar qo‘yilishi mumkin:

- bir necha hodisa joyida topilgan yakka oyoq izlari bir odam tomonidan yoki bir poyabzaldan qoldirilganmi?;
- izlar gumon qilinuvchidan olib qo‘yilgan poyabzaldan qoldirilganmi?;
- hodisa joyidan topilgan izlar yo‘lakchasi elementlari gumon qilinuvchining eksperimental izlar yo‘lakchasiga mos keladimi?
- ushbu qulf maxsus ochgich, ilgak yoki unga tushadigan boshqa qalbaki kalitlar yordamida ochilganmi?
- ushbu izlar qanday turdagি uskunalar (arra, pichoq, bolta) yoki asboblardan qolgan?
- №48569230 raqamli vagondan yechib olingan plombanining ishchi sirtlarida tasvirlar (matn, raqam va boshqa nazorat belgilari), tadqiqotga taqdim etilgan moslamalarning (tisk) ishchi sirtida mavjud bo‘lgan yozuvlar bilan bir xilmi (mos keladimi)?

## **SOVUQ QUROLLARNING KRIMINALISTIK EKSPERTIZASI**

**Sovuq qurol** – bevosita hayot uchun xavfli bo‘lgan tan jarohati yetkazish maqsadida maxsus tayyorlangan, siqilgan prujina va tortilgan kamon tori kuchidan foydalaniladigan, bevosita ishlab chiqarishda, xo‘jalik-turmushda va boshqa maxsus ishlarda ishlatish uchun mo‘ljallanmagan, hujum qilish va faol himoyalanish uchun mo‘ljallangan chopuvchi, kesuvchi, sanchuvchi, chopuvchi-sanchuvchi, chopuvchi-kesuvchi, kesuvchi-sanchuvchi, chopuvchi-kesuvchi-sanchuvchi, uruvchi-majaqllovchi murakkablashtirilgan narsalarga aytildi.

**Sovuq qurollarning kriminalistik ekspertizasi** bu – kriminalistikaning qurollarni o‘rganish bo‘limi bo‘lib, sovuq va otish quollarini loyihalash va ishlab chiqarish, obyektlarning sovuq yoki otish quollariga tegishliliginini aniqlash, sovuq va otish quollaridan foydalanish, jinoyat vositasi sifatida sovuq va otish quollarini ishlatish, saqlash va ulardan foydalanish izlarini shakllantirish tadqiqotidir.

**Sovuq qurollarning kriminalistik ekspertizasining predmeti** bu - quollar yoki tuzilmasi bo‘yicha ularga o‘xhash mahsulotlarning guruhga mansubligini aniqlashdan iborat.

**Sovuq qurollarning kriminalistik ekspertizasining obyektlariga** - pichoqli quollar (pichoqlar, qilichlar, shashka, palash, shpaga, rapira, jangovar pichoqlar) va boshqalar, zarba beruvchi quollar (yavaraga, bo‘g‘imlar, nunchakular, kastet, kisten, cho‘qmor, gurzi) va boshqalar, konstruktiv xususiyatlari bo‘yicha qirrali quollarga o‘xhash uy-ro‘zg‘or buyumlari (dekorativ va suvenirlar) va boshqalar, qurollarni, tashqi ko‘rinishi va tuzilishi jihatidan otish quroliga o‘xhash narsalar va buyumlarni, maqsadi noma’lum bo‘lgan boshqa narsalarni uloqtiruvchi sport va ov kamonlari va arbaletlar ham kiradi.

### **Sovuq qurollarning kriminalistik ekspertizasining vazifalari:**

O‘rganilayotgan obyektlarning sovuq va otish quollari yoki uy-ro‘zg‘or buyumlariga tegishliliginini aniqlash;

Qirrali va otish quollarining tipi va turini, shuningdek tayyorlash usulini aniqlash;

O‘rganilayotgan obyektlarni qurol yoki uy-ro‘zg‘or buyumlarining ayrim turlariga bog‘lash.

**Sovuq qurollarning kriminalistik ekspertizasini o‘tkazish natijasida ekspertlar tomonidan quyidagi savollarga javob berilishi mumkin:**

- Qurolning soz yoki nosozligi, agar nosoz bo‘lsa tegishli soz holatga keltirish mumkinmi?
- Ishlatish uchun mazkur qurol yaroqlimi, agar yaroqsiz bo‘lsa tuzatish, qo‘llashga yaroqli qilish iloji bormi?
- Mazkur predmet (narsa-buyum) sovuq qurolmi?
- Tekshiriluvchi predmet sovuq qurollarning qanday turiga, ko‘rinishiga taalluqlidir.
- Tekshiriluvchi qurol (qurollar)ni tayyorlashda mazkur asbob-uskuna, qurilmalar qo‘llanilganmi?
- Tadqiqotga yuborilgan bo‘lak-qism mazkur qurolning qismi emasmi?
- Ushbu narsa ilgari sovuq qurol deb hisoblanganmi?
- Ushbu narsani endilikda sovuq qurol deb hisoblash mumkinmi?

## 2-MAVZU: SUD KOMPYUTER-TEXNIKAVIY EKSPERTIZASI

**Sud kompyuter-texnikaviy ekspertizasi** – texnik ekspertizalar sinfiga kiruvchi mustaqil ekspertiza turi bo‘lib, tergov jarayonidagi obyektning kompyuter qurilmasi yoki mobil aloqa vositasi sifatidagi holatini, jinoyatni sodir etish jarayonidagi rolini aniqlash, axborot saqlovchi va tashuvchi qurilmalarda jinoyatga aloqador ma’lumotlarni ajratib olish uchun qurilmalar xotirasiga xavfsiz yo‘llar bilan kirish, hamda ma’lumotlarni tahlil qilish maqsadida o’tkaziluvchi tadqiqot jarayonidir.

**Predmeti:** jinoiy, iqtisodiy, fuqarolik va ma’muriy ish uchun ahamiyatli bo‘lgan hamda, kompyuter vositalari yoki mobil aloqa qurilmalari tizimlarida axborotlarning paydo bo‘lishi, tahrirlanishi va o‘chirib yuborilishi kabi algoritmlarni o‘z ichiga olgan qonunlarni o‘rganish asosida aniqlangan faktlar(holatlar)dir.

**Obyekti:** shaxsiy kompyuterlar, mobil aloqa vositalari, har qanday elektron ma’lumot saqlovchi va tashuvchi xotira vositalari, periferik qurilmalar, tarmoq uskunalar, operatsion va mobil operatsion tizimlar, dasturiy vositalar, ularning algoritmlari, matnli va grafik hujjatlar, multimedia formatidagi (audio-video) ma’lumotlar, ma’lumotlar bazasida saqlanuvchi axborotlar, Sim-kartalar, foto-video uskunalar, ularning ma’lumot saqlovchilari va boshqa shunday funksiya ega bo‘lgan qurilmalardir.

**Hal etiladigan savollar:** sud-iqtisodiy ekspertizasi predmetiga oid bo‘lib, ish uchun muhim ahamiyatga ega, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan hal qilinmaydigan bo‘lishi hamda savol huquqiy tusga ega bo‘lmasligi lozimlozim.

### **Sud kompyuter-texnikaviy ekspertizasining tadqiqot turlari:**

- apparat (yoki qurilma) kompyuter-texnikaviy ekspertizasi;
- kompyuter-ma’lumotlari ekspertizasi;
- kompyuter dasturiy ta’minoti ekspertiza;
- kompyuter tarmoqlari ekspertizasi;
- radioelektron qurilmalar (mobil aloqa vositalari) ekspertizasi.

### ***Hal etilmaydigan savollar:***

- ✓ taqdim etilgan axborot tashuvchi qurilma(lar)da quyidagi so‘zlar qatnashgan (kalit so‘zlar ro‘yxatini ko‘rsatgan holda) axborotlar mavjudmi?
- ✓ taqdim etilgan axborot tashuvchi qurilma(lar)da quyidagi ma’lumotlar (ma’lumotlar nima haqidaligini ko‘rsatgan holda) haqida axborot mavjudmi?
- ✓ mobil aloqa vositasiga “...” haqida xabarni kim yuborgan?
- ✓ mobil aloqa vositasiga “...” haqidagi xabar qachon yuborilgan va xabarning mazmuni qanday?

### ***Vazifalari:***

- tadqiqot obyektining turi, texnik holati, ishlash qobiliyati, xarakteristikasi va vazifalarini aniqlash;
- axborot saqlovchi va tashuvchi qurilmalar hamda ma’lumotlar bazasidan jinoyatga aloqador axborotlar olish, axborotlarni saralash, hamda surishtiruv yoki tergov organiga tushunarli ko‘rinishda taqdim etish;
- axborotning xususiyatlarini aniqlash va ularni tiklash, shifrlangan (parollangan) ma’lumotlarni aniqlash va ularni ochish, aniqlangan ma’lumotlarni hisobot ko‘rinishida saqlash;
- mobil aloqa vositalaridan ishga taalluqli ishonchli ma’lumotlarni olish, saralash, taqdim etish va boshqalardir.

### **3-MAVZU: SUD-FONOGRAFIYA EKSPERTIZASI**

Sud-fonografiya ekspertizasi poraxo‘rlik, korrupsiya, ta’magirlik hamda terrorizm kabi jinoiy ishlarni fosh etishda muhim ahamiyatga ega. Jinoyatga tayyorgarlikni yoki qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ygan shaxslarni fosh etishda isbotlovchi va guvohlik beruvchi holat va materiallar tanqis bo‘lgan vaziyatlarda, yashirin ravishda yozib olingan so‘zlashuvlar mavjud hollarda, ularning qilgan jinoyatlarini ochish uchun sud-fonografiya ekspertizasi muhim rol o‘ynaydi.

#### **Sud-fonografiya ekspertizasining maqsadi**

Tadqiqot qilinuvchi fonogramma yozib olingan asbob-uskunani, ya’ni magnitofon, diktofon, videokameralarga, raqamli diktofonlarga, raqamli videokameralarga, uyali telefonlarga, flesh-xotira kartalariga, flesh-xotira yig‘uvchilariga, kompakt disklarga va h.k.larga, yozilgan suhabatni (fonogrammani) tekshirish, suhabat mazmuni, ishtirot etgan shaxslar soni, jinsi, suhabatning sharoitlari va boshqalarni aniqlashga qaratilgandir.

#### **Sud-fonografiya ekspertizasining obyektlari**

- magnitofon, diktofon, videokameralarga, raqamli diktofonlarga, raqamli videokameralarga, uyali telefonlarga, flesh-xotira kartalariga, flesh-xotira yozuvchilariga, kompakt disklarga va h.k.larga yozilgan fonogramma;
- fonogrammaning stenogrammasi, ya’ni suhabatning so‘zma-so‘z bayoni;
- ovoz yozish moslamasi (magnitofon, diktofon, videokamera, raqamli diktofon, raqamli videokamera, uyali telefon, flesh-xotira kartasi, flesh-xotira yozuvchisi, kompakt disk va boshqa.);
- magnit tasma (audiokasseta, videokasseta, mikrokasseta, mikrochip, kompakt disk va boshqa.).

#### **Sud-fonografiya ekspertizasini tayinlash uchun solishtiruv namunalarini tayyorlash**

- namuna olish uchun yuqori sifatli tovush yozuvchi asbob-uskunalaridan foydalanish;
- namunalarning yozib olinish tezligi, sharoiti tadqiqot qilinishi lozim bo‘lgan fonogramma tezligiga, sharoitiga iloji boricha yaqin bo‘lishi.

## **Sud-fonografiya ekspertizasi hal etadigan masalalar**

- ekspertizaga taqdim etilgan stenogrammaning tadqiq qilinuvchi fonogramma mazmuniga mos kelishi yoki mos kelmasligi;
- ekspertizaga taqdim etilgan yozuv (fonogramma) sifati past va fonogrammani tashqi shovqinlardan tozalash zarur bo‘lganda, suhbat stenogrammasini tuzish;
- ekspertizaga taqdim etilgan suhbatda nechta shaxs ishtirok etganligini, ularning jinsini, ruhiy holatini, suhbat qatnashchilarining nutqlari erkin holatdami yoki avvaldan tayyorlangan matnni o‘qish ko‘rinishidami, suhbat qaerda (xonada, ko‘chada, avtomashina salonida va h.k.) yozib olinganligini aniqlash;
- suhbat yozib olingan tashuvchida mexanik (faqat lenta-tortuvchi mexanizmi bo‘lgan obyektlar bo‘yicha) yoki elektroakustik montaj belgilari mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash;
- ekspertizaga taqdim etilgan fonogramma asli yoki nusxaligini aniqlash;
- ekspertizaga taqdim etilgan fonogrammadagi ovoz va nutqning kimga tegishli ekanligini aniqlash (identifikatsiya qilish);
- ekspertizaga taqdim etilgan tadqiqot qilinishi lozim bo‘lgan fonogramma aynan qaysi moslamada yozib olinganligini aniqlash;
- ekspertizaga taqdim etilgan videotasma va videofonogrammalarni tadqiqot qilish va h.k.

## **Sud-fonografiya ekspertizasi oldiga hal etish uchun qo‘yiladigan savollar**

- yuqorida qayd etilgan suhbatlar identifikatsion tadqiqoti uchun yaroqlimi?
- yuqorida qayd qilingan suhbat yozilgan kompakt (yoki raqamli) diskda elektroakustik montaj belgilari mavjudmi?
- yuqorida qayd etilgan suhbatda nechta shaxs ishtirok etgan? Ularning jinsi qanday? Suhbat jarayonida suhbatlashuvchilarga jismoniy va ruhiy ta’sir o‘tkazish alomatlari mavjudmi? Ularning nutqlari o‘qitilganmi yoki erkin nutqmi?
- yuqorida qayd etilgan suhbat qaerda (ko‘chada, xonada) yozib olingan?
- yuqorida qayd etilgan suhbatda ishtirok etgan va shu suhbat stenogrammasida shartli ravishda «B», deb belgilangan shaxsning ovozi va nutqi fuqaro K.ning ovozi va nutqiga tegishlimi?

## **4-MAVZU: MATERIALLAR ASHYOLAR BUYUMLAR KRIMINALISTIK EKSPERTIZASI**

### **Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi**

Turli toifadagi jinoiy ishlarni tergov qilish va sudda ko‘rishda tolali tabiatga ega bo‘lgan obyektlarning (to‘qimachilik materiallari) tadqiqoti voqealari vaziyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, nomusga tegish, qotillik, odam o‘ldirish va yo‘l transport hodisalari bo‘yicha jabrlanuvchi, ayblanuvchilarning kiyim-kechaklari va har xil buyumlar sathida qolgan mayda tolalarni tekshirish alohida ahamiyatga ega.

**Predmeti:** Maxsus bilimlar asosida ushbu tolalarni o‘zaro solishtirish orqali umumiyligi manbaini belgilash, tekshirilayotgan moddalarni ma’lum bir sinf, turga taalluqlilagini aniqlash bilan bog’liq faktlar ekspertizaning predmetini tashkil qiladi.

**Obyektlari:** Ko‘p hollarda tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar (qop, gazlama, choyshab va boshq.), shuningdek, arqonlar, tasmalar va ip qoplamali elektr simlaridan jinoyatchilar o‘z qilmishlarini bekitishda keng foydalanishadi. Voqealari sodir bo‘lgan joydan olingan bunday ashyoviy dalillarni ushbu ekspertiza turining obyektlaridir.

### **Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi oldiga qo‘yiladigan savollar:**

- A.ning shimi va futbolkasida B.ning ichki ko‘ylagi va lozimi tolalari bilan turdosh tola zarralari bormi va aksincha?
- Transport vositasida tolali materiallar bormi, agar bo‘lsa, ular jabrlanuvchi kiyimining tolalari bilan turdoshmi?
- Voqealari joyidan topilgan ipli tugma gumon qilinuvchidan olingan ip bilan tolali tarkibi bo‘yicha bir xilmi?
- Taqdim etilgan kiyim qayta bo‘yalganmi? Agar bo‘yalgan bo‘lsa uning dastlabki rangi qanday bo‘lgan?
- Voqealari joyidan olingan yong‘in qoldiqlarida to‘qimachilik materiali va buyumlarning yoki ularning qismlaridan tolalar bormi? Agar bo‘lsa, ularning turi va ishlatilish sohasi aniqlansin.

## **Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasiga materiallarni tayyorlash.**

Ashyoviy dalillarning o‘z vaqtida to‘g‘ri olinishi hamda o‘zgartirmay ekspertiza muassasasiga yetkazilishi ekspert tekshiruvlarini samarali olib borilishining muhim omilidir.

Surishtiruvchi, tergovchi va sudya kiyimlarning o‘zaro kontaktda bo‘lganligini aniqlashga qaratilgan ekspertizaga ashayoviy dalillarni olish va ko‘zdan kechirish haqidagi bayonnomalarni taqdim qilishi lozim. Bayonnomada ashayoviy dalil sifatida olingan kiyimlar voqeа sodir bo‘lgandan keyin tozalanganligi, yuvilganligi va ishlatilganligi to‘g‘risida bat afsil ma’lumotlar keltirilishi shart.

### ***Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlarni topib olib qo‘yishda quyidagi qoidalarga rioya etish lozim:***

- tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlarni ko‘zdan kechirishda lupa, qo‘lqop va pinsetdan foydalanish;
- tolali ashayolarni bir-biriga tegishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- har bir kiyim alohida ko‘zdan kechirish, agar kiyim ho‘l bo‘lsa, quritish;
- har bir kiyimni alohida g‘ilofga (qalin qog‘ozga o‘rash yoki polietilen paketchaga) joylash va tegishli ma’lumotlarni yozib qo‘yish.

Shuni ham yodda tutish kerakki, mikrotolalar bo‘yicha ekspertiza boshqa turdagи ekspertizalardan (trasologik, ballistik, sud-tibbiy va boshq.) oldin o‘tkazilishi kerak, chunki ularni bajarish vaqtida mayda tolalar yo‘qolishi mumkin. Bu talabga amal qilinmaslik noto‘g‘ri xulosa berishga yoki ekspertiza oldiga qo‘yilgan masala yechilmay qolishiga olib kelishi mumkin.

## **Lok-bo‘yoq materiallari va qoplamarining ekspertizasi**

Yo‘l-transport hodisalari oqibatida odamni bosib yoki urib ketish, tunash, o‘g‘irlik va transport vositalarining bir-biri bilan o‘zaro to‘qnashishi kabi ko‘pgina jinoyatlarni tekshirishda lok-bo‘yoq materiallari va qoplamarining ashayoviy dalil sifatidagi o‘rni alohida ahamiyatga ega.

**Predmeti:** Lok-bo‘yoq materiallari, qoplamarini va bo‘yalgan buyumlar kriminalistik tadqiqotlarining ilmiy asoslari va metodikalari yordamida aniqlanadigan, jinoyat ishlarini tergov qilish va ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga yordam beradigan faktik ma’lumotlar – mazkur turdagи kriminalistik ekspertizalarning predmetini tashkil qiladi.

**Obyektlari:** Lok-bo‘yoq materiallari masalan, hodisa sodir bo‘lgan joydan aniqlab olingan kiyimda turli rangdagi moddalarning dog‘lari aniqlangan va ular keyinchalik badiiy moy bo‘yoq deb diagnostika qilingan. Bu holat esa kiyim egasining faoliyat turini (masalan, rassom) aniqlashda ahamiyat kasb etadi. Lok-bo‘yoq materiallari, qoplamlari va bo‘yagan buyumlarning kriminalistik ekspertizasining obyektlari sifatida Lok-bo‘yoq materiallarining alohida suyuq va to‘kiluvchan turlari, moddiy sharoitning elementlaridagi LBMning ifloslanishlari (mikrozarrachalar, ishqalanishlar), Lok-bo‘yoq materiallarining alohida tarkibiy qismlari (komponentlari) bo‘lishi mumkin;

*Lok-bo‘yoq qoplamlari (yoki ularning bo‘laklari)*, masalan, tekshirilayotgan o‘ram materialida, tuzilishi va materiali aniq bir turdagি o‘q-dorining Lok-bo‘yoq qoplamasiga mos keladigan Lok-bo‘yoq qoplama mikrozarrachalari aniqlanadi. O‘q-dorilarni qonunga xilof ravishda saqlash jinoyat hisoblangani uchun tegishli surishtiruv va tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkaziladi. Lok-bo‘yoq materiallari, qoplamlari va bo‘yagan buyumlarning kriminalistik ekspertizasining obyektlari sifatida, hodisa joyining moddiy sharoiti elementi – aniq bir obyektlarning Lok-bo‘yoq qoplamlari yoki bo‘yagan buyumlardan ajralib qolgan Lok-bo‘yoq qoplamaning alohida bo‘laklari (jumladan, mikroobyektlar) maydonga chiqadi;

**Bo‘yagan buyum (mahsulot)**, hodisa sodir bo‘lgan joyda, jabrlanuvchi piyodani urib yuborishda taxmin qilinayotgan transport vositasiga tegishli lok-bo‘yoq qoplamaning zarrachalari aniqlanadi. Bu holda bo‘yagan buyum sifatida avtomashina maydonga chiqadi. *Bo‘yagan buyum* – moddiy sharoitning aniq bir elementidir.

#### ***Identifikatsion savollar:***

- obyektda (buyum) lok-bo‘yoq materiallarining yoki qoplamarining zarralari (umuman yoki faqat ma’lum bir turi) bormi?
- topilgan modda lok-bo‘yoq materiallari yoki qoplamariga (umuman yoki faqat ma’lum bir turiga) taalluqlimi?
- tekshirishga taqdim qilingan lok-bo‘yoq materiallari yoki qoplamar namunalari umumiylar tur yoki guruhga mansubmi?
- muayyan predmetlar o‘zaro ta’sirlashishda (kontaktda) bo‘lganmi?
- muayyan obyektga lok-bo‘yoq qoplamasi qanday usulda surtilgan (zavod sharoitidami yoki qo‘ldamasi)?
- buyum yuzasi qayta bo‘yalganmi?

Neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallari ekspertizasini o‘tkazish zarurati o‘zini yoqib yuborish, qasddan o‘t qo‘yish, ehtiyotsizlik natijasida sodir qilinadigan yong‘in, yo‘l-transport hodisalari, jasadni yoqib yuborish, turli jinoyat izlarini yo‘qotish maqsadida obyektlarga o‘t qo‘yish, neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallarini o‘g‘irlash bilan bog‘liq bo‘lgan jinoiy ishlarni ko‘rishda tug‘iladi.

***Neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiali ekspertizasining obyektlari:***

- yonilg‘i (avtomobil benzinlari, aviatsion, dizel, bug‘qozon va reaktiv yonilg‘isi);
- moylar (motor, transmission, industrial, gidravlik, vakuum uskuna);
- yog‘lash materiallari (antifriksion, konservatsion, uzoq muddat saqlash uchun to‘ldiruvchi);
- qattiq neft mahsulotlari (shag‘am, serezin, vazelin, bitum, qora kuya, ozokerit-balchiq);
- har xil mahsulotlar (rangsizlantirilgan va tozalangan kerosin, organik erituvchilar, shimdirish uchun ishlatiladigan vosita, himoyalovchi mum, yog‘lash, sovitish uchun ishlatiladigan neft mahsulotlari).

***Neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiali ekspertizasini hal etish uchun quyidagi savollar qo‘yilishi mumkin:***

- voqeа joyidan topilgan idishdagi (shisha, banka) suyuqlik neft mahsulotimi (benzin, kerosin, dizel yonilg‘isi)?
- voqeа joyidan topilgan idishdagi (shisha, banka) va gumon qilinayotgan shaxsdan olingan suyuqliklar bir turga mansubmi?
- ekspertizaga taqdim etilgan obyektlarda (kiyim, tuproq namunalari, taxta bo‘laklarida va h.k.) neft mahsulotlarining yoki yonilg‘i-moylash materiallarining qoldiqlari (izlari) bormi?
- ekspertizaga taqdim etilgan obyektlardagi modda qoldiqlari neft mahsulotlarining (yonilg‘i-moylash materiallarining) qaysi turiga mansub?
- marhumning kiyimda aniqlangan dog‘lar transport vositalarida ishlatiladigan yonilg‘i moylash materialiga mansubmi?

***Neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallari ekspertizasiga namunalarni tayyorlash.*** Neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallari yana bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega: benzinlarda, kerosinlarda, dizel yonilg‘isida uchuvchan tarkibiy qismlar borligi hamda ushbu mahsulot va materiallar serg‘ovak obyektlarga singishi va taqsimlanishini nazarda tutib ashyoviy dalillarni topganda, musodara qilganda, o‘rab joylaganda va ekspertizaga tayyorlayotganda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

***Ekspertiza o‘tkazish uchun ashyoviy dalillardan tashqari quyidagilar yuborilishi kerak:***

- neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallarining taxminiy tabiatni, turi, kelib chiqishi, buyumga qanday o‘tib qolishi, saqlash sharoiti haqidagi jinoiy ish materiallari (tergov ma’lumotlari);
- neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallari bilan ifloslangan buyumlar, voqealarni bo‘lgandan keyin musodara qilinguncha ishlatilganligi, sarf qilinganligi va o‘zgarganligi haqidagi ma’lumotlar;
- solishtirish uchun neft mahsulotlari va yonilg‘i-moylash materiallarining namunalari hamda tekshirilayotgan ashyoviy dalillarning qismi bo‘lgan namunalar joylanadi.

### **Shisha va undan tayyorlangan buyumlarning sud kimyoviy ekspertizasi**

Shisha bo‘yicha kriminalistik ekspertiza trasologik va fizik-kimyo tekshirish usullarini o‘z ichiga oladi va kompleks ekspertiza hisoblanadi. Bu kabi ekspertizani o‘tkazish ikkita mutaxassis: trasolog-ekspert va fiz-kimyoviy tadqiqot usullarini olib boradigan ekspertga topshirilishi lozim.

***Obyektlari:*** Ushbu ekspertiza obyektlari bo‘lib shisha buyumlar, ularning siniqlari va mayda (kichik) zarralari hisoblanadi. Ekspertizalarni o‘tkazish amaliyoti shisha buyumlar, ularning siniqlari va mayda zarralari tadqiq etishga ko‘pincha yo‘l-transport hodisalarini tekshirish bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlar sifatida yuborilishidan dalolat beradi.

***Shishalar (oyna) ekspertizasi oldiga quyidagicha savollar qo‘yiladi:***

- ekspertizaga taqdim qilingan ashyoviy dalilda shisha (oyna) parchalari (mayda zarrachalari) bormi?
- voqealarni topilgan shisha (oyna) siniqlarining turi va xili qanday?

*Shisha va undan tayyorlangan buyumlarning sud kimyoviy ekspertizasiga materiallarni tayyorlash.* Voqeа joyida qolgan shisha siniqlarini tezda yig‘ib olish zarur, aks holda, masalan yo‘l transport hodisalari bilan bog‘liq holatlarda, transport vositalarining harakati natijasida ular yo‘qolib ketishi va boshqa joyga o‘tib qolishi mumkin. Voqeа joyini ko‘zdan kechirish davomida barcha shisha siniqlari terib olinadi (qanday o‘lchamda bo‘lishidan qat’iy nazar), shuningdek guman qilingan transport vositalaridan ham o‘z vaqtida shisha siniqlarini olish zarur. Odатда shisha siniqlarini avtomashina saloni ichidan, zarar yetkazilgan faralardan, bamperdan, tashqi qismidan va chiroqlar uyasidan qidirish kerak. Agar faralar va yon tomon chiroqlar sinmagan holatda bo‘lsa, ular o‘zgartirilgan – o‘zgartirilmaganini tekshirib ko‘rish kerak.

Terib олинган shisha siniqlari quritiladi, har bir shisha sinig‘i alohida qog‘ozga yoki paxtaga o‘raladi.

Shisha sinig‘ining kichik zarrachalarini buyumlarda topish kerak bo‘lganda buyumning (narsa) o‘zini alohida qilib, polietilen xaltalarga solib, tadqiq etish uchun taqdim etiladi.

Voqeа joyidan shishaning faqat mayda zarralari topilgan taqdirda ularni trasologik usullari bilan taqqoslab tekshirish imkoniyatlari keskin cheklanadi va ko‘pincha umuman mumkin bo‘lmaydi. Bunday hollarda ularni fizik xossalari va kimyoviy element tarkibi bo‘yicha tadqiq etish zarur.

Shisha siniqlari fizik xossalari va kimyoviy tarkibi bilan bir-biriga mos kelishi, ular buyumlarning bir turiga mansubligi haqida ijobjiy xulosa ehtimolini oshiradi, aksincha, farq qilgan taqdirda – bu masala qat’iy salbiy hal qilinishga asos bo‘ladi.

### **Maxsus kukunlar va maxsus qalamlarning sud kimyoviy ekspertizasi**

Korrupsiya, poraxo‘rlik, firibgarlik va tovlamachilik kabi jinoyatlarni ochish va tergov qilish murakkab hisoblanadi. Ko‘pincha pora olish va berish hech qanday guvohlarsiz sodir bo‘ladi. Shuning uchun tergov idoralari bu jinoyatlarni ochishda hozirgi zamon kriminalistika vositalaridan foydalanadi. Ular qatorida maxsus kukunlar va markerlar (qalamlar) ekspertizasi keng qo‘llaniladi.

**Obyektlari:** Ko‘zga ko‘rinmaydigan maxsus kukunlar (lyuminofor) va maxsus markerlar (qalamlar), pul kupyuralari, kiyim, konvert, gazeta, har xil predmet tashuvchilar.

### ***Maxsus kukunlar va maxsus qalamlarning sud kimyoviy ekspertizasi oldiga quidagi savollar qo‘yiladi:***

- ekspertizaga taqdim etilgan ashyoviy dalillarda (pul kupyuralarida, kiyimlar sathida, qo‘llardan artib olingan surtmalarda va h.k.) maxsus kukun izlari mavjudmi?
- ekspertizaga taqdim etilgan pullardagi «Pora» yozuvi namunasi taqdim qilingan maxsus qalamning yozuvi bilan bir xilmi?

***Maxsus kukunlar va maxsus qamlar ekspertizasiga materiallarni tayyorlash.*** Maxsus kukunlar ekspertizasini tayinlash o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ekspertizaga yuboriladigan ashyoviy dalillar (pul kupyuralari, kiyim, konvert, gazeta va h.k.) bevosita olingan joyida (masalan, gumon qilinuvchi shaxs ushlangan yerda) ko‘zdan kechiriladi. Bunda ashyoviy dalillar bilan ishslashda ehtiyyotkorlik zarur, chunki undagi maxsus kukunlar izlari kam bo‘lib, yo‘qolib ketishi mumkin. Ashyoviy dalillar xolislar ishtirokida qadoqlanadi va tegishli izohnoma surishtiruvchi yoki tergovchi, xolislar tomonidan imzolanadi. Ekspertizaga ashyoviy dalillar bilan birga quyidagi hujjatlar taqdim qilinishi lozim: ashyoviy dalillarga maxsus kukunlar bilan ishlov berish bayonnomasi, voqeа joyini ko‘zdan kechirish bayonnomasi, ashyoviy dalillarni olib qo‘yish bayonnomasi. Ushbu hujjatlarning kseronusxalari ekspertga taqdim etilishi zarur.

### **Tarkibida spirti bo‘lgan suyuqliklar sud kimyoviy ekspertizasi**

***Obyektlari:*** Aroq, spirt, vino, konyak, pivo, samogon, idishlar yuqida qolgan noma’lum suyuqliklar va h.k. ushbu ekspertiza obyektlaridir.

### ***Tarkibida spirti bo‘lgan suyuqliklar sud kimyoviy ekspertizasi oldiga quyiladigan savollar:***

- tekshirish uchun taqdim etilgan suyuqlikning tabiatи va tarkibi qanday?
- tekshirish uchun taqdim etilgan suyuqliklar aroqmi, agar aroq bo‘lsa, ular fizik-kimyoviy ko‘rsatgichlari bo‘yicha davlat standarti talablari (quyilish miqdori, quvvati, mikroqo‘sishchalariga)ga javob beradimi?
- voqeа joyidan olingan noma’lum ichimlik tarkibida odam organizmi uchun zararli, kuchli ta’sir qiluvchi moddalar mavjudmi?
- tekshirish uchun taqdim etilgan suyuqlik qo‘lbola yoki zavod sharoitida tayyorlanganmi?
- tekshirish uchun yuborilgan spirt qanday xomashyodan tayyorlangan, uning turi aniqlansin?
- taqqoslash uchun korxonadan va savdo do‘konidan olingan aroq mahsulotlari etiketlarida ko‘rsatilgan yozuvlarga mos keladimi? va h.k.

### ***Tarkibida spirti bo‘lgan suyuqliklar sud kimyoviy ekspertizasiga materiallarni tayyorlash.***

Tadqiqotlarni o‘tkazish uchun ekspert ixtiyoriga tekshiriladigan obyekt, zarur hollarda – uni olib qo‘yish bayonnomasi va solishtirib tekshirish uchun tegishli namunalar taqdim qilinadi.

Spirit yengil bug‘lanuvchi modda bo‘lgani sababli spirtli mahsulotlar topilganda, ular solingan idish mahkam berkitilishi zarur. Agar spirtli ichimlik qoldiqlari bo‘lgan idish (stakan, ryumka, butilka va h.k.) topilgan bo‘lsa, u polietelen xaltaga solinib, xalta germetik berkitilishi kerak. Ashyoviy dalilga tegishli izohnoma qo‘sib qo‘yiladi. Unda ashayoviy dalil qachon, qaerdan, kim tomonidan olinganligi va qaysi ishga taalluqliligi ko‘rsatiladi. Spirtli ichimliklar solingan yoki qoldiqlari bo‘lgan idishlar olib qo‘yilganda ularda barmoq izlari bo‘lishi mumkinligini inobatga olish zarur.

Ekspertizaga ashayoviy dalil sifatida olib qo‘yilgan obyekt butunlay yuborilishi maqsadga muvofiqdir. Ammo ayrim sabablarga ko‘ra buni amalga oshirishning iloji bo‘lmasa, masalan, spirtli ichimlik katta bochkaga solingan yoki katta partiya qo‘lbola aroq mahsuloti ushlanganda, spirtli mahsulotdan tekshirish uchun bir qismi (namunasi) yuboriladi. Namunalar olingani tegishli bayonnomma tuzish orqali protsessual rasmiylashtiriladi va ekspertizaga ushbu bayonnomma nusxasi bilan birga taqdim qilinadi.

Ekspertiza oldiga turli joylardan olingan spirit mahsulotlari turdoshligi masalasi qo‘yilganda taqqoslab tekshirish uchun ularning namunalari olinib tekshirishga yuborilishi lozim.

### ***Metallar, qotishmalar va ulardan tayyorlanadigan buyumlar ekspertizasi***

Jinoiy ish tafsilotlarini ekspertlarning fizika, metallshunoslik, kriminalistika sohasidagi maxsus bilimlari asosida aniqlash va bunda olinadigan ma’lumotlar metallar, qotishmalar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasining predmetini tashkil etadi.

### ***Metallar, qotishmalar va ulardan tayyorlanadigan buyumlar ekspertizasi***

#### ***Metallar, qotishmalar va ulardan tayyorlanadigan buyumlar ekspertizasining obyektlari:***

Po‘lat buyumlar va ularning qismlari, asl metallar (oltin,kumush)dan yasalgan buyumlar va qoplamlalar, mis, allyumin va ularning qotishmalaridan yasalgan buyumlar, qo‘rg‘oshin, qalay, mis va h.k. buyumlarning metallashgan izlari tushgan mahsulotlardir.

## **Metallar, qotishmalar va ulardan tayyorlanadigan buyumlar ekspertizasi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan:**

- ekspertizaga taqdim etilgan ashyoviy dalillarda qanday metall zarrachasi bor?
- gumon qilinayotgan shaxsdan olingan, ekspertizaga taqdim etilgan buyumlar – bosqon, torozi, bolg‘achalarda oltin (yoki jinoiy ish tafsilotiga ko‘ra boshqa metall) bormi?
- ayblanuvchidan olingan pichoq qanday po‘lat navidan tayyorlangan?
- ekspertizaga taqdim etilgan buyumlar – tish qoplamasи, bilakuzuk, tumor qanday qotishmalardan tayyorlangan?
- voqeа joyidan olingan metall bo‘lagi gumon qilinayotgan shaxsdan olingan pichoqning bir qismi bo‘lishi mumkinmi?
- tekshirishga taqdim etilgan tish qoplamalari gumon qilinayotgan shaxsdan olingan qotishmadan yasalgan bo‘lishi mumkinmi?

**Metallar, qotishmalar va ulardan tayyorlanadigan buyumlar ekspertizasiga materiallarni tayyorlash.** Metall obyektlarni ishlab chiqarish usulini (kelib chiqish manbani) aniqlash uchun zarur ma’lumotlarni ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan uskuna va qurilmalarni tekshirish yo‘li bilan olish mumkin. Shuning uchun bunday buyumlar musodara qilinib ekspertga taqdim etilishi kerak. Biror sababga ko‘ra buning iloji bo‘lmaganda, ekspert ixtiyoriga uskunalar va qurilmalar batafsil ta’riflab tuzilgan ularni ko‘zdan kechirish bayonnomasi taqdim etiladi. Ko‘zdan kechirish bayonnomasiga voqeа joyining chizmasi va tekshiriladigan buyumlarni ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan uskunalarning fotosuratlari ilova qilinadi.

Ekspert tadqiqotining vazifasiga qarab namunalar (ularning miqdori, turi) tergovchi(sud) tomonidan tanlanadi.

Identifikatsion masala tekshirilayotgan buyumni belgilarining yig‘indisiga asoslanadi, shu tufayli ekspertga namunalar taqdim etilishi kerak va ular haqida batafsil ma’lumotlar berilishi shart. Metallning tashqi ko‘rinishi, kimyoviy tarkibi va strukturasida hodisa natijasida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda yoki boshqa hujatlarda batafsil yoziladi. Sababi, bu o‘zgarishlar muhim, ba’zan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ashyoviy dalillar va namunalarni jo‘natishga tayyorlashda, ayniqsa, o‘ta ehtiyyotkor bo‘lish va diqqat bilan yondoshish lozim: metall buyumlarning tekshiriladigan yuzalari yoki ular bilan tutashib turgan buyumlar (masalan, taqqoslayotgan mahsulotlar, metall izi bor deb taxmin qilingan kiyimning bir qismi, qipiқ) alohida paketlarga joylanadi.

## **Polimer materiallar (plastmassalar, rezina, yelimli materiallar) va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi**

Odam o'ldirish, zo'rlash, o'g'irlik, yo'l-transport hodisalari kabi jinoiy ishlar bo'yicha polimer materiallar (plastmassalar, rezina, yelimli materiallar) va ulardan tayyorlangan buyumlar ko'p tarqalgan ashyoviy dalillardir.

Har xil jinoiy ishlar, xususan, qotillik, yo'l-transport hodisalari, davlat va fuqarolarning mulkini o'g'irlash va h.k.lar bo'yicha kriminalistik ekspertizasi obyekti sifatida rezina va undan tayyorlangan buyumlar tez-tez uchrab turadi.

**Obyektlari:** Transport vositalarining detallari, elektrotexnika, kabel sanoati (elektr simlarining izolyatsiya qatlami, materiali, izolyatsiya tasmalari) mahsulotlari, avtomobil va oyoq kiyimi (rezina, sun'iy charm, plastmassa), attorlik (tugmalar, taqinchoqlar) sanoatining mahsulotlari, polimer plyonkalari, sintetik tolalar va yelmlar (kleylar) ushbu eksperitaning obyektlari hisoblanadi.

### **Polimer materiallar, plastmassa va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi tayinlanganda quyidagi savollar qo'yilishi mumkin:**

- taqdim etilgan voqeа sodir bo'lgan joydan topilgan hamda jabrlanuvchining kiyimidagi tugmalar umumiy bir turni va guruhni tashkil qiladimi?
- polimer materialning kimyoviy tarkibi va uning qaerda qo'llanilishi (ishlatilishi) aniqlansin.
- A.ning uyidan va zavod sexidan olingan linoleum (polimer qoplama) bir tur va guruhga mansubmi?
- taqdim etilgan obyekt qanday yelim bilan yopishtirilgan?
- taqdim etilgan ushbu yelimning asosiy ishlatilish yo'nalishi qanday?

## ***Polimer materiallar, plastmassa va ular dan tayyorlangan buyumlar ekspertizasiga materiallarni tayyorlash.***

Yuqorida keltirilganlar ekspertlik amaliyotida tez-tez uchrab turadigan vazifalar bo‘lib, jinoiy ishlar bo‘yicha tergov olib borish jarayonida yuzaga keladigan holatlarga oydinlik kiritish uchun qo‘yilishi mumkin bo‘lgan boshqa vazifalarni cheklamaydi.

Kimyoviy ekspertizaga taqdim etiladigan ashyoviy dalil qog‘ozga o‘ralgan bo‘lishi kerak. Barcha paket, o‘ram va tugunchalar, umuman, ashyoviy dalillar solingan qutilar shunday bog‘lanishi zarurki, begona odam bog‘langan kanopni yechmay, qo‘yilgan muhrni buzmay ocha olmasin.

Tadqiq etish uchun yuboriladigan obyektlarning hajmi katta bo‘lib, transport orqali olib kelish qiyinchilik tug‘dirgan hollarda obyektlarni ko‘zdan kechirish, ular sathida qolgan polimer (rezina) qoldiqlari, izlarini aniqlash uchun ekspert (mutaxassis)ni voqeа sodir bo‘lgan joyga yordamga chaqirtirish mumkin.

## **Portlovchi moddalar ekspertizasi**

Portlovchi moddalar ekspertizasi ko‘p jihatlari bo‘yicha sud-yong‘intexnikaviy ekspertiza bilan turdoshdir. Ularning ilmiy asosini o‘t olish va yonish nazariyasi va muxandislik sohasidagi bilimlar tashkil qiladi. Lekin portlash ekspertizasi o‘zining xususiyatlariga ham ega. Jumladan, uning muhim asosini yonishni detonatsiyaga aylanish, detonatsiya va fizikaviy portlashlar nazariyasi tashkil qiladi.

Portlashga aloqador bo‘lgan narsalar hamda sharoitlar portlovchi moddalar ekspertizasining tadqiqot obyektlari bo‘lishi mumkin. Bularga brizant portlovchi moddalar (nitroglitserin, oktagen, geksogen va h.k.) va oltingugurt, selitra, tutunli va tutunsiz poroxlar, alyumin kukuni va boshqalar kiradi. Shuningdek, portlatuvchi moslamalar (detonatorlar) ham portlovchi moddalar ekspertizasining obyektlari qatoriga kiradi.

Ashyoviy dalillarni olish to‘g‘risidagi qarorga portlash sodir bo‘lgan joyning (binolar) tasviri va uning chizmasi ilova qilinishi kerak. Ushbu ilovada binoning o‘lchamlari, ashyoviy dalil olingan joylar, jug‘rofiy tomonlar (shimol, janub, sharq, g‘arb) ko‘rsatilmog‘i lozim.

Ashyoviy dalillar qisqa vaqt ichida olinib, alohida-alohida o‘ralgan holda ekspertizaga taqdim qilinishi lozim.

### ***Bu ekspertiza yordamida quyidagi savollar hal qilinadi:***

- ekspertizaga taqdim etilgan voqeа sodir bo‘lgan joydan olingan ashayoviy dalillar portlovchi moddalar turkumiga kiradimi? Agar kirsa, uning turi aniqlansin.
- ekspertizaga taqdim etilgan voqeа sodir bo‘lgan joydan olingan kiyim qoldiqlarida portlovchi moddalar mavjudmi? Agar mavjud bo‘lsa, uning turi aniqlansin.
- ekspertizaga taqdim etilgan portlash sodir bo‘lgan joydan olingan tuproq namunalarida portlovchi moddalar qoldiqlari mavjudmi? Agar mavjud bo‘lsa, uning turi va qaerlarda ishlatalishi aniqlansin.
- ekspertizaga taqdim etilgan portlash sodir bo‘lgan joydan olingan metall bo‘laklarida portlovchi moddalar qoldiqlari mavjudmi? Ular qaerlarda ishlatalishi aniqlansin.
- ekspertizaga taqdim etilgan fuqaro A.ning uyidan ashayoviy dalil sifatida olingan o‘g‘it, oltingugurt va alyumin kukuni portlovchi moddalar hisoblanadimi?

Portlash oqibatida sodir bo‘lgan yong‘inlarni sababini aniqlashda tadqiqotlar yong‘in-texnikaviy va portlash-texnik ekspertlari tomonidan birgalikda kompleks ravishda olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu turdagи ekspertizalarni bajarish an’anaviy fizik-kimyoviy usullardan tashqari zamonaviy analitik usullarni qo‘llashni talab qiladi. Bu maqsadlarda o‘ta sezgir kapillyar kolonkali gaz-xromatografi va xromato-mass-spektrometr hamda plazmali mass-spektrometr ISP-MS uskunalaridan keng foydalaniladi.

### **Sud-tuproqshunoslik ekspertizasi**

Qotillik, tan jarohatini yetkazish, zo‘rlab nomusga tegish, talonchilik, yo‘l-transport hodisalari singari jinoiy ishlarni tergov qilishda poyafzal, kiyim, transport vositalari qismlari va h.k. kabi har xil buyumlardagi tuproq qoldiqlari ko‘p uchraydigan ashayoviy dalillar jumlasiga kiradi.

### ***Ekspert oldiga sud-tuproqshunoslik ekspertizasi tayinlanganda, quyidagi savollarni qo‘yish maqsadga muvofiq:***

Taqdim etilgan obyektlarda birorta begona qatlamlar bormi, agar bo‘lsa ular tuproq emasmi?

Tuproq qoldiqlari obyektning qaysi qismida joylashgan?

Taqdim etilgan obyektlardagi tuproq moddalarini va voqeа sodir bo‘lgan yerdan olingan tuproq namunalari umumiy turkum va guruhga taalluqlikmi?

Taqdim etilgan obyektlardagi tuproq joyning muayyan qismiga (yerning ma’lum qismi, uning o‘lchamlari va chegarasi belgilab beriladi) taalluqlimi?

Qatlamlarning hosil bo‘lish mexanizmiga, obyektlarni saqlash sharoitlariga va h.k.larga oid qo‘shimcha, savollar qo‘yilishi mumkin:

– obyekt muayyan joy yoki boshqa predmet bilan o‘zaro aloqada (kontaktda) bo‘lganligini aniqlash;

**Har bir muayyan holatda voqeа joyidan tuproq namunalarini olish ma’lum sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.**

1. Voqeа joyi – yer yuzining ochiq sathi (o‘rmon, dala, hovli, poliz) bo‘lganda tuproq namuna (2ta )lari to‘g‘ridan-to‘g‘ri bevosita shu nuqtadan (masalan, murda topilgan joydan) va undan 5-10 m. masofadan (4ta) olinishi kerak. Voqeа joyidan 50-100 m masofadan nazorat namunalari olinadi.

2. Voqeа joyi – jar, o‘ra bo‘lganda, tuproq namunalari jar (o‘ra) tubidan va jar (o‘ra) chetining yuzasidan olinishi kerak. Nazorat namunalar – jar (o‘ra) tashqarisidan tuproqning bosilmagan, tegilmagan qismidan olinadi.

3. Voqeа joyi – uy (xonodon) bo‘lganda, namunalar ifloslangan uy jihoz buyumlari (choyshab, dasturxon, oyoq osti yo‘lka gilamchalaridan, deraza kesakilari va b.)dan, dahlizdan, uyg‘a olib keladigan yo‘lkadan yoki oyoq izlari topilgan joylardan olinadi. Uy yaqinida joylashgan yerlardan nazorat namunalari olinishi kerak.

4. Voqeа joyi – yerto‘la, chordoq, saroy, garaj bo‘lganda, tuproq namunalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri voqeа joyidan, uning har xil nuqtalaridan, kiraverish qismidan olinadi. Nazorat namunalarini voqeа sodir bo‘lgan joyga o‘xshash yaqin joylashgan yerto‘la, chordoq, saroy, garajdan olinishi kerak.

Barcha tuproq namunalarini alohida mustahkam idishlarga joylanadi. Namunalarini to‘qima (bo‘z) xaltalarga yoki karton qutilarga joylash maqsadga muvofiqdir. Polimer xaltalardan yoki shisha idishlardan bu maqsadlarda foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki bu holda tuproq keragidan ortiq namlanib qoladi. Agar tuproq nam bo‘lsa, uni xona haroratida quritish zarur. Namunalar joylangan idishlarga ular haqida izohnomalar biriktiriladi.

***Sud-tuproqshunoslik ekspertizasi tayinlanganda ekspertiza  
muassasasiga qaror va ashyoviy dalillar bilan birga quyidagilar taqdim  
etiladi:***

- voqeа joyini ko‘zdan kechirish, uning tafsiloti, o‘lchamlari, chegarasi, tuproq qavatining bir xilligi, tuproq yuzasida begona narsalar yo‘qligi va yuzasining holati (o‘simlik bilan qoplanganligi, nam va quruqligi) bayon qilingan hujjat (bayonнома)ning nusxasi;
- tuproq namunalarini ajratib olish va olish usuli ko‘rsatilgan hujjat (bayonнома) nusxasi;
- voqeа joyining qiyosiy va nazorat tuproq namunalari olingan nuqtalar ko‘rsatilgan chizmasi;
- ashyoviy dalillarni musodara qilish haqidagi hujjat (bayonнома)ning nusxasi va voqeа sodir bo‘lgan daqiqadan boshlab ular olingunga qadar ishlatish natijasida ifloslangan buyumlar va ularning o‘zgarishi (kiyimni va poyafzalni tozalash, dala yerda ish olib borilgani) yoki o‘xhatilayotgan joy qismi haqida ma’lumot;
- voqeа sodir bo‘lgan vaqtdagi va o‘sha vaqtdan boshlab namunalar olinguncha qadar o‘tgan davrdagi ob-havo sharoiti haqida ma’lumot.

## 5-MAVZU: SUD-BIOLOGIYA EKSPERTIZASI

### Sud-biologik ekspertizasi uch turga bo‘linadi:

1. sud-botanik ekspertizasi – o‘simliklarni tekshirish;
2. sud-zoologik ekspertizasi – hayvonlarni tekshirish;
3. boshqa biologik (sud-ornitologik, sud-ixtiologik) bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarni tekshirish.

### Sud botanika ekspertizasi

**Sud-botanika ekspertizasi obyektlariga** - jumladan, quyidagilar kiradi: o‘simlik va uning qismlari (yog‘ochi, po‘stlog‘i, poyalari, barglari, ildizi, urug‘i, mevalari, guli), o‘simlik mahsulotlari (un, yorma(krupa), kraxmal, choy, tamaki), yem-xashak (pichan, somon, silos, kunjara), qog‘oz, karton, asal.

Daraxt yog‘ochi, po‘stlog‘i qotillik, o‘g‘rilik, o‘t qo‘yish, o‘rmon ho‘jaliklariga zarar yetkazish kabi jinoiy ishlarni fosh etishda obyekt tariqasida uchraydi. Ko‘pincha ularning mayda bo‘lakchalari-zarralari jinoiy ishni sodir etishda foydalangan asboblar (arra, bolta, lom)da, jabrlanuvchi va gumon qilinayotgan shaxslarning kiyimlarida transport vositalarida boshqa buyumlarda uchraydi.

### Bunday hollarda ekspert hal etishi uchun quyidagi savollar qo‘yilishi mumkin:

- Taqdim qilingan buyumlar (pichoq, arra, bolta) da yog‘och va daraxt po‘stlog‘i zarralari bormi?
- Hodisa joyidan olingan pichoqning yog‘och dastasi qanday daraxtdan yasalgan?
- Pichoqda, arrada, lomda, boltada topilgan yog‘och zarralari hodisa sodir bo‘lgan joydan olingan yog‘och zarralari bilan daraxt yog‘ochining bir turi (turkumi) ga mansubmi?
- Avtomashinadan topilgan yog‘och zarrachalari yo‘l chetida o‘sayotgan daraxt turiga mansubmi?

### Maydalangan, shakli o‘zgargan barg zarralarini tekshirishga yuborayotganda tergov tashkilotlari tomonidan quyidagi vazifalar qo‘yilishi mumkin:

- barg zarralari o‘simlikning qaysi tur va turkumga mansubligini aniqlash.
- Bunday hollarda odatda ish materiallarida (hujjatlarida) zarralarni taxminan o‘simliklarning tor ma’lum bir doirasiga mansub bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar keltiriladi:
- topilgan barg zarrachasi (lari) voqeа joyidan olingan butun o‘simlik namunasi bilan bir xil tur (turkum)ga mansubmi;
- topilgan bir necha xil barg mayda zarralari bir tur (turkum)ga mansubmi.

**Bu vazifalarni bajarishda ekspert hal etish uchun quyidagi savollar qo‘yiladi:**

- Tekshirishga taqdim etilgan barg zarralari o‘simliklarning qaysi turi (turkumi)ga mansub?
  - Guman qilinayotgan shaxs kiyimidagi dog‘lar qanday hosil (paydo) bo‘lgan? Agar o‘simlikdan paydo bo‘lgan bo‘lsa, voqeа joyidan olingan o‘simlik turiga taalluqli bo‘lgan o‘simlikdan paydo bo‘lganmi?
  - Guman qilinayotgan shaxsning kiyimidan olingan barg zarralari va voqeа joyidan olingan o‘simlik bir tur (turkum)ga taalluqlimi?
  - Jabrlanuvchining oshqozonidan olingan barg zarralari o‘simliklarni qaysi turi (turkumi)ga mansub?
  - Guman qilinayotgan shaxsdan musodara qilingan moddaning tarkibidagi barg (zarralari hamda jabrlanuvchi oshqozonidan olingan barg zarralari o‘simliklarning bir xil tur (turkumi)ga mansubmi?)
- Don-dun o‘g‘irlash bilan bog‘liq bo‘lgan jinoiy ishlarni fosh etishda odatda sud-biologik ekspertiza don namunalarning qaysi turkumga mansubligini aniqlash uchun tayinlanadi. Ekspert oldiga quyidagi savollar qo‘yiladi:
- Guman qilinayotgan shaxsdan va omborxonadan olingan donlar bir umumiy manbaga mansubmi?

**Sud zoologiya ekspertizasi**

**Sud-zoologiya ekspertizasi obyektlariga** - jumladan, quyidagilar kiradi: hayvonlar tanasidan chiqqan qil va terisi.

Hayvonlar juni qotillik, zo‘rlash, transport bosib ketishi, o‘g‘rilik, hayvonlarni noqonuniy yo‘l bilan o‘ldirish, uy hayvonlarini o‘g‘irlash, teri, jun mahsulotlarini o‘g‘irlash va shu kabi jinoiy ishlar ko‘rilayotganda tez-tez sud-biologik ekspertizasi obyektlari tariqasida uchrab turadi.

**Junning ekspertizasi quyidagi vazifalarii hal etadi:**

- topilgan obyekt junmi (sochmi);
- topilgan jun (soch) odamnikimi yoki hayvonnikimi;
- agar bu jun hayvonniki bo‘lsa, u holda hayvonlarning qaysi turi (urug‘dosh, oiladoshlari) ga mansub;
- jun ma’lum bir hayvon (ot, qo‘y, eshak)nikimi, yoki junli mahsulot (ondatradan qulochchin, qo‘y terisidan shuba) ga taalluqlimi;
- soch tolalari yulib olinganmi yoki o‘zi to‘kilganmi;
- soch tolalariga qanday tashqi mexanik ta’sir ko‘rsatilgan.

Ekspert oldiga hal etish uchun qo‘yilgan vazifalarni bajarish tekshirishga taqdim etilgan jun (soch) tolalarning soni va holatiga bog‘liq.

Ekspertizaga yana hayvonlar terisi, qayta ishlovnning barcha bosqichidan o‘tgan va tayyor mahsulot holida teri bo‘laklari taqdim etilgan bo‘lishi mumkin.

Bunday hollarda ekspert hal etishi uchun shunday vazifalar qo‘yilishi mumkin:

- taqdim etilgan bo‘lakchalar terimi, agar teri bo‘lsa hayvonlarning qaysi turiga mansub;
- taqdim etilgan buyumlar (to‘pponcha qini,pichoq qini, kamar, qo‘lqop) tabiiy teridan tayyorlanganmi yoki sun’iy teridanmi;
- taqqoslanayotgan teridan qilingan buyumlar bir tur hayvonlarga mansubmi yoki bir necha turgami;
- taqdim etilgan teri mahsulotlariga qanday tashqi mexanik ta’sir ko‘rsatilgan (issiqlik, namlik).

Ekspertizaning muvaffaqiyatli hal bo‘lishi tergovchining materiallarni tekshirishga nechog‘lik mukammal rasmiylashtirishiga bog‘liq.

### **Boshqa biologik (sud-ornitologik, sud-ixtiologik) ekspertizasi**

**Boshqa biologik (sud-ornitologik, sud-ixtiologik) obyektlariga parrandalarning (qushlarning) pari va patlari, baliq tangachalari.**

Uy parrandalarini o‘g‘irlash, otish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoiy ishlar ko‘rliganda sud-biologik ekspertizasiga pat va par kelishi mumkin. Boshqa sud-biologik obyektlari kabi bu obyektlarni ham tekshirishdan maqsad ularning qaysi taksonomik turga mansubligini aniqlashdir.

#### ***Parrandalar pari va patlari tekshirilayotganda ekspertizaga hal etish uchun quyidagi savollar qo‘yilishi mumkin:***

- Ekspertizaga taqdim qilingan obyekt parranda pati va parimi?
- Agar bu obyektlar parranda pari va patlari bo‘lsa, qaysi parrandaga mansub?
- Par va patlar bo‘lakchalari parrandalarning qaysi bir turi, oiladoshiga mansub?
- Tekshirilgan par va patlar namunaga olingan par va patlar bilan bir xilmi?
- Tekshirilgan par va patlar ma’lum bir turkum parrandasiga mansubmi?

**Bu obyektlar o‘ziga xos ma’lum xususiyatlarga ega bo‘lgan taqdirdagina yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish mumkin.**

Sud-biologik ekspertizasiga tekshirish uchun baliq tangachasi ham kelishi mumkin. Bunday hollarda savollar quyidagicha bo‘ladi:

- ushbu obyektlar- baliq tangachalarimi?
- baliq tangachalari baliqlarning qaysi turi (oиласига) ga mansub?
- baliq tangalari ma’lum bir turdagи baliqlarga mansubmi?
- Shu tekshirilgan baliq tangalari mansub bo‘lgan baliqning yoshi nechada?
- Baliq tangachalari namunalari bir tur baliqqa mansubmi?
- Baliq tangachalari (baliq) tuzlanmaganmi yoki quritilmaganmi?
- Ushbu tekshirilayotgan baliq tangachalariga mansub bo‘lgan baliqning yoshi nechada?

### **Sud-ekologik ekspertizasi**

O‘simliklarning zararkunandalari va kasalliklariga qarshi ko‘rashish qoidalari buzilishi, zararli kimyoviy moddalarni qo‘llash, baliq xo‘jaligi havzalarini qo‘riqlash, suv havzalarini, havoni, tuproqni, dengizni, yoki dengiz tirik boyliklari, odam sog‘lig‘i uchun zararli moddalarni yoki boshqa chiqindilar va materiallarni tekshirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarda sud ekologiya ekspertizalari tayinlanadi.

Atrof-muhitni jinoiy ifloslantirish bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha tayinlanadigan ekspertizalarni obyektga qarab uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Birinchi guruh – odam, hayvon va o‘simlik holatining sud ekspertizasi. Ekspertlar biolog, vrach, hayvon vrachi, ixtiolog va sanitariya-gigiena sohalarida mutaxassis bo‘lishlari mumkin.

Ushbu guruh sud ekspertizalari odam, hayvon, o‘simliklar uchun zararli oqibatlar sabablarini tibbiyot-biologik nuqtai-nazardan hamda hududning ekotizimini (yoki shunga o‘xshash ehtimollarni) aniqlash bilan bog‘liq vazifalarni hal etadi.

1. Atrof-muhit ifoslantirish manbalarini texnika-texnologiya masalalarini bevosita tekshirish, texnologik uskunalarining, ayrim tozalash inshootlarining va qurilmalarning sifatini aniqlash uchun tayinlanadigan sud ekspertizalari ikkinchi guruhnini tashkil etadi. Ushbu ekspertizalar orqali texnologiya, qurilish, gidrotexnika va sanitariya-texnika bilan bog'liq holatlar tadqiq etiladi.

2. Modda va materiallarning fizikaviy va kimyoviy xossalari o'zgarishi natijasida vujudga kelgan izzlarni tadqiq etish bilan bog'liq bo'lgan ekspertizalar uchinchi guruhnini tashkil etadi. Ushbu tadqiqotlar yordamida havo, suv havzalarini, tuproq, o'simliklarni kasallananishga olib kelgan, odamlarni, hayvonlarni, baliqlarni, o'simliklarni halokatga olib kelgan (yoki shunga o'xshash oqibatlarga olib kelish xavfi bo'lgan) zaharli moddalar borligi aniqlanadi.

#### **Sud ekoliya ekspertizasining asosiy vazifalari quyidagilardir:**

- atrof-muhitda (havo, suv, tuproq, o'simliklarda)gi zaharli moddalarini aniqlash;
- tergovchi (sud) tomonidan topilgan ifoslantiruvchi moddalarini muayyan turkum (zaharli kimyoviy moddalar, og'ir metallar va h.k.)ga taalluqligini aniqlash;
- ekspertizaga taqdim etilgan obyektni turkumiyligi, guruhiy taalluqligini aniqlash;
- ekspertizaga taqdim etilgan obyektni qanday maqsadda ishlatalishini yoki qo'llanish sohasini aniqlash.

#### **Giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlar ekspertizasi**

Odam o'ldirish, zo'rlash, zaharlanish, ko'zbo'yamachilik, o'g'irlik, giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarni qo'llash, tayyorlash, saqlash va sotish kabi har xil toifadagi jinoiy ishlarni tergov qilish, sudda ko'rish jarayonida giyohvandlik va kuchli ta'sir qilish xususiyatlariga ega bo'lgan dori vositalari, ko'knori, nasha va boshqa o'simliklardan qo'lda tayyorlangan giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlar ashyoviy dalil sifatida uchrashi mumkin.

**Predmeti:** Maxsus bilimlar asosida ushbu moddalarning muayyan massalarini o‘zaro solishtirish orqali umumiylan manbaini belgilash, tekshirilayotgan moddalarni ma’lum bir sinf, turga taalluqlilagini, ularning o‘sgan joyi, vaqtini va ishlab chiqarish usulini aniqlash bilan bog‘liq faktlardir.

**Giyohvandlik vositalarining obyektlari:** Nasha va ko‘knor o‘simliklari, ulardan qo‘lda tayyorlangan giyohvandlik vositalari, farmasevtika sanoatida va dorixonalarda tayyorlangan giyohvandlik dori vositalari shu ekspertizaning obyektlaridir.

**Psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning obyektlari:** kukun (poroshok)lar, tabletkalar, eritmalar, surtmalar, aralashmalar va ularning qoldig‘ini saqlaydigan turli buyumlar (shpris, igna, ampula, stakan, piyola va boshq.) farmasevtika sanoatida ishlab chiqarilgan uyqu chaqiruvchi va narkotik xususiyatlariga ega bo‘lgan barbitur kislotasi va benzodiazepin hosilalari (barbital, natriy barbitali, barbamil, fenobarbital, natriy etamininali, siklobarbital, geksambarbital, noksiron, xloralgidrat, xlorbutanolgidrat va boshq.), markaziy asab tizimini tinchlantiruvchi psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar, fenotiazin, butirofenon qatori preparatlari, epilepsiyaga qarshi va neyroleptik hamda boshqa kuchli ta’sirga ega, tana skeletining mushaklarini bo‘shashtiruvchi va shunga o‘xhash me’yordan ko‘p qabul qilganda narkotik ta’sir etuvchi dorivor preparatlari bo‘lishi mumkin.

**Prekursorlarning obyektlari:** kukunlar (poroshok), suyuqliklar va ularning qoldig‘ini saqlaydigan turli buyumlar (shpris, igna, ampula, stakan, shisha idish va boshq.), ishlab chiqarishda qo‘llanadigan organik erituvchilar: aseton, toluol, etil efiri, metiletiketon, piperidin; kislotalar: antranil, N-asetilantranil, sulfat, xlorid kislotalari, lizergin kislotasi; alkaloidlar: ergometrin, ergotamin, efedrin va h.k. bo‘lishi mumkin.

### **Giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlar ekspertizasiga materiallarni tayyorlash.**

Giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlar ekspertizasiga materiallarni tayyorlash. Giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarni tekshirishda ekspertiza oldiga qo‘yilgan vazifalarning samarali bajarilishi materiallarni ekspertizaga to‘g‘ri tayyorlash bilan bog‘liq. Bu faoliyat obyektlarni olib qo‘yish, protsessual rasmiylashtirish va ekspertiza tayinlashni o‘z ichiga qamrab oladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlar ekspertizasi oldiga qo'yiladigan savollar:

- voqeа joyidan olingan, topilgan modda(lar) giyohvandlik vositasi (psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi modda yoki prekursor)mi, agar giyohvandlik vositasi (psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi modda yoki prekursor) bo'lsa, qaysi turiga mansub?
- taqdim etilgan obyektlar (shpris, igna va shisha idishlar)da giyohvandlik vositasi (psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi modda yoki prekursor) ning qoldig'i mavjudmi?
- taqdim etilgan o'simlikning tarkibida giyohvandlik vositalari bormi?
- gumon qilinayotgan shaxsdan va uning uyidan musodara qilingan namunalar umumiy bir tur yoki turkumga mansubmi, agar shunday bo'lsa, qaysi tur yoki turkumga taalluqli?
- musodara qilingan moddalar umumiy manbaga (umumiy massaga) mansubmi?
- musodara qilingan moddalarga qo'llanilgan xomashyo va ularning o'sgan joyi, tayyorlanishi, ishlab chiqarilish usuli, saqlash sharoiti bo'yicha umumiy manbaga mansubmi?

Surishtiruvchi yoki tergovchi voqeа sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasida ekspertiza o'tkazishga oid hamma voqeа va ma'lumotlarni ko'rsatishi lozim. Jumladan, giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarni topilgan joyi, uning saqlanish sharoiti (namlik, yorug'lik) aniq belgilanadi. Agar ekin topilgan bo'lsa, uning hosili olingan vaqtiga, tuproq turi, o'sgan joyi qayd etilishi kerak.

Jinoyat sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda asosiy e'tibor giyohvandlik vositasini, psixotrop va kuchli ta'sir ko'rsatuvchi modda hamda prekursorlarni topishga qaratilishi lozim. Ularning mayda zarralari va yuqi har xil buyumlar – kiyimda (cho'ntagida, ro'molchada), transport vositalarida hamda giyohvandlik vositasini tayyorlashda ishlatilgan asboblarda (elak, shpris, ignalar va chilim) mavjud bo'lishi mumkin. Ko'pincha ekspertizaga giyohvandlik vositasining eritmasi ro'molcha yoki dokaga shimdirligil holda keltiriladi.

Afyunni (opiy) ishlab chiqarishda qayta ishlash texnologiyasi va har xil bosqichlariga qarab, olingan chiqindilarning rangi, hidi, maydaligi bo'yicha tuproq bo'laklari, bitum va smolalardan farq qilish qiyin. Ko'p hollarda tergov idoralari xodimlari bunday obyektlar xususiyatlarini bilmasliklari tufayli giyohvandlik vositalarini ishlab chiqarish, saqlash va

Giyohvandlik vositasi, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning har bir namunalari ekspertizaga yuborilayotganda alohida idishga (shisha idish, probirka, polietilen xaltacha) joylanadi.

Afyun ekstrakti, suyuq nasha kabi suyuq holda bo'lgan ashayoviy dalillar og'zi mahkam berkitiladigan maxsus idishga solinadi.

Yangi uzilgan nasha va ko'knor o'simliklari chirib, tekshirishga yaroqsiz bo'lib qolmasligi uchun ekspertizaga yuborishdan oldin soyada xona haroratida quritilishi lozim.

Musodara etilgan o'simlik massasini ekspertizaga uning hamma qismlari (guli, bargi, poyasi, ildizi) saqlangan holda va 1 kg dan kam bo'lman miqdorda yuborish kerak.

Agar o'simlik massasida qo'shimcha zarralar mavjud bo'lsa, ularni tashlab yubormay birga taqdim etish lozim, chunki ular jinoyat sodir etilgan joy haqida ma'lumot berishi mumkin.

Basharti, agar o'sgan joyini aniqlash bilan bog'liq vazifalar hal etilayotgan bo'lsa, tekshiriladigan modda (ko'knor va nasha o'simligi, nasha va maydalangan ko'knor o'simligi namunalari) bilan birga solishtirish uchun taxmin qilingan o'sha joyda o'sgan boshqa o'simliklar taqdim etilishi kerak.

Ekspert oldiga giyohvandlik vositasini tayyorlash usulini aniqlash vazifasi qo'yilganda tekshirilayotgan moddalar bilan birga ekspertizaga ularni tayyorlashda ishlatilishi mumkin bo'lgan har xil asbob (press moslama, elaklar, pichoq, kurakcha, tarozi, qiyma qiladigan asbob va h.k.)lar ham yuborilishi shart.

Identifikatsion masalalar hal etilayotgan bo'lsa, obyektlar butunligicha yuboriladi. Buning iloji bo'lman taqdirda shu ashayoviy dalillarning fraksion va kimyoviy tarkibini to'liq ifodalaydigan namunalar olinishi kerak.

Tekshirilayotgan obyektlarning bir butunga taalluqliligi aniqlanayotganda, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud iloji boricha bir butunning aniq hajmini ko'rsatishi kerak.

Ashayoviy dalillarni saqlash qoidalariga riosa qilmaslik ularni tekshirishga yaroqsiz holga yoki butunlay yo'qolib ketishiga olib keladi.

Ashayoviy dalillardan tashqari ekspert ixtiyoriga solishtirish uchun namunalar, sud-tibbiy ekspertizasining xulosasi, voqeа sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi, ashayoviy dalillarni olib qo'yish bayonnomasi ashayoviy dalillarni olib qo'yish bayonnomasi va boshqa zarur materiallar taqdim etilishi kerak.

## Dori preparatlari ekspertizasi

Odam o‘ldirish, zo‘rlash, zaharlanish, ko‘zbo‘yamachilik, o‘g‘irlik, dori preparatlarini qo‘llash, tayyorlash, saqlash va sotish kabi har xil toifadagi jinoiy ishlarni tergov qilish, sudda ko‘rish jarayonida dori preparatlari ashyoviy dalil sifatida uchrashi mumkin.

**Predmeti:** Maxsus bilimlar asosida ushbu moddalarning muayyan massalarini o‘zaro solishtirish orqali umumiylar manbaini belgilash, tekshirilayotgan moddalarni ma’lum bir sinf, turga taalluqlilagini, ularning tarkibini aniqlash bilan bog‘liq faktlar ekspertizaning predmetini tashkil qiladi.

**Mavzusi:** Dorilarning tabiatini, xususiyatlarini aniqlash, ma’lum bir sinf, turiga taalluqlilagini tekshirish, aniqlash, muayyan massa bilan solishtirish, o‘xshatish bilan bog‘liq masalalarni yechish yordamida haqiqatni, vaziyatni aynan ta’riflamoq – dori preparatlari kriminalistik ekspertizasining mavzusidir.

**Obyektlari:** kukun (poroshok)lar, tabletkalar, eritmalar, surtmalar, aralashmalar va ularning qoldig‘ini saqlaydigan turli buyumlar (shpris, igna, ampula, stakan, piyola va boshqalar) bo‘lishi mumkin.

### Vazifalari:

- moddalar tabiatini o‘rganish, aniqlash, qanday dori preparatlari turkumiga taalluqlilagini tekshirish, aniqlash;
- moddalar qoldig‘ini turli buyumlarda topish;
- ishlab chiqarish texnologiyasi xususiyatlari, saqlash sharoiti bo‘yicha turdosh dorilarni bir turkumga mansubligini aniqlash;
- ajratilgan bo‘laklar bo‘yicha muayyan dori preparatlarini taqqoslashdan iborat.

***Dori preparatlari ekspertizasi oldiga qo‘yiladigan savollar:***

- voqea joyidan olingan, topilgan moddalarning (tabletka, ampula, kapsula, kukunlar, granulalar) tabiatи va tarkibi aniqlansin.
- taqdim etilgan obyektlar (shpris, igna va shisha idishlar)da dori preparatlarining qoldig‘i mavjudmi, agar mavjud bo‘lsa uning turi aniqlansin?

***Dori preparatlari ekspertizasiga materiallarni tayyorlash.*** Dori preparatlarini tekshirishda ekspertiza oldiga qo‘yilgan vazifalarning samarali bajarilishi materiallarni ekspertizaga to‘g‘ri tayyorlash bilan bog‘liq. Bu faoliyat obyektlarni olib qo‘yish, protsessual rasmiylashtirish va ekspertiza tayinlashni o‘z ichiga qamrab oladi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasida ekspertiza o‘tkazishga oid hamma voqea va ma’lumotlarni ko‘rsatishi lozim.

Jinoyat sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishda asosiy e’tibor daliliy ashyolarni topishga qaratilishi lozim. Ularning mayda zarralari va yuqi har xil buyumlar - kiyimda (cho‘ntagida, ro‘molchada), transport vositalarida mavjud bo‘lishi mumkin.

Ashyoviy dalillarni saqlash qoidalariga rioya qilmaslik ularni tekshirishga yaroqsiz holga yoki butunlay yo‘qolib ketishiga olib keladi.

Ashyoviy dalillardan tashqari ekspert ixtiyoriga solishtirish uchun namunalar, voqea sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish bayonnomasi, ashayoviy dalillarni olib qo‘yish bayonnomasi va boshqa zarur materiallar taqdim etilishi kerak.

## **Oziq-ovqat mahsulotlari sud ekspertizasi**

***Obyektlari:*** don mahsulotlari, konditer, go‘sht, yog‘, sut, konserva mahsulotlari, salqin ichimliklar, alkogol mahsulotlari, oziq-ovqat qo‘sishchalar, har xil shirinliklar va boshqalar hisoblanadi.

***Tadqiqot usullari:***

Organoleptik usul o‘z ichiga tashqi ko‘rinish, rang, hid, ta’m kabi ko‘rsatkichlarni oladi;

***Fizik-kimyoviy usullar:***

Oziq-ovqat tarkibini aniqlash;

IQ spektrometrik tadqiqotlar, gaz xromatografik tahlil (DEZ), gaz xromatografiya-mass-spektrometrik tahlil, induksion plazmali mass-spektrometrik tahlil.

Iste’mol bozoriga sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarining kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida hozirda dolzarb masala bo‘lib turgan muammoni haqqoniy yechish uchun mazkur ekspertiza turini vujudga keltirish zarur bo‘lib hisoblanadi. Bu esa Respublikamizga kirib kelayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining standart talablariga javob berishi, texnik sharoiti, ishlab chiqarish texnologiyasiga to‘g‘ri kelishi va mahsulotlarning tarkibida zararli mikroqo‘sishimchalar, toksik elementlar hamda zaharli kimyoviy moddalarni aniqlash imkonini beradi.

***Oziq-ovqat mahsulotlari sud ekspertizasi quyidagi masalalarni hal etadi:***

- taqdim etilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibini va ularning qadoqlash (yorliq) da ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiqligini aniqlash;
- o‘rganilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida og‘ir metallar va toksik elementlarning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash;
- o‘rganilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida pestisidlar va boshqa zararli moddalarning mavjudligini yoki yo‘qligini aniqlash.

## 6-MAVZU: SUD-IQTISODIY EKSPERTIZASI

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni aniqlash va samarali tergov olib borish faqat maxsus iqtisodiy bilimlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Bunda xo'jalik yurituvchi subyekt (korxona)ni nafaqat moliyaviy xo'jalik operatsiyalari, balki o'zida iqtisodiy ko'rsatkichlarini ifodalovchi buxgalteriya, statistika va tezkor hisob hujjatlari tadqiq qilinishi lozim. Sud-iqtisodiy ekspertizaning turlarga bo'linishi iqtisodiy sohadagi jinoyatlarga qarshi kurashishda iqtisodiy bilimlardan o'z o'rnida samarali foydalanish imkonini beradi. Sud-iqtisodiy ekspertizaning bunday sinflanishi tergov va sud idora xodimlarining iqtisodiy jinoyatlarni ochishda ularga yanada chuqurroq kirib borish imkonini beradi.

**Predmeti:** moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari.

**Obyekti:** birlamchi va boshqa hisob xujjatlar.

**Hal etiladigan savollar:** sud-iqtisodiy ekspertizasi predmetiga oid bo'lib, ish uchun muhim ahamiyatga ega, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan hal qilinmaydigan bo'lishi lozim.

**Hal etilmaydigan savollar:**

Huquqiy tusdagi savollar. Misol uchun, ayblanuvchi hattixarakatlariga baho berish, ma'lum shaxslarning javobgarligi, shaxslarning ayb darajasi va h.k.

Umumiylusdagi – savollarni hal etishda iqtisodchi-ekspert tomonidan taftish o'tkazishni talab qiluvchi.

### Sud-iqtisodiy ekspertizalar quyidagi turli masalalarni hal etadi:

- Korxonalardagi moliyalashtirishdagi to'g'riligini aniqlash; - olingan daromad miqdorini aniqlash;
- Olingan daromad miqdorini aniqlash;
- Soliq solinadigan asoslarni aniqlash;
- Iqtisodiy fondlarni yaratilish asoslarini aniqlash;
- Hisobotlarda iqtisodiy ko'rsatkichlarni aks ettirilganligi kabi holatlarni tadqiq etish;
- Mehnat haqini hisoblashda me'yoriy hujjatlarga asoslanganlikni aniqlash.

### Sud-buxgalteriya ekspertizasi

Sud-buxgalteriya ekspertizasi iqtisodiy ekspertizaning eng keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, u korxona (tashkilot), xo'jaliklarning buxgalteriya hujjatlaridagi hisob-kitob jarayonlarini (operatsiyalarini) tahlil qilinishi, davlat, jamoa mulki talon-taroj qilinganlik va boshqa xo'jalik, mansab iinovatlarini ochish kabi holatlarga ehtiyoji tug'ilganda o'tkaziladi.

**Predmeti:** Pul mablag‘lari, tovar moddiy boyliklarni haqiqatda naqd bor-yo‘qligini, buxgalteriya hisobini yuritish qoidalarini buzilish holatlarini aniqlash yuzasidan buxgalteriya hisobi hujjatlarining tadqiq etish.

**Obyektlari:** moddiy boyliklarni kirim-chiqim buxgalteriya hujjatlari, ro‘yxatdan o‘tkazish (inventarizatsiya) dalolatnomalari va yig‘ma hisob hujjatlari xizmat qiladi, jumladan:

- Dastlabki hujjatlar
- Jamlash hujjatlar
- Avtomatlashtirilgan hisobot ma’lumotlari
- Taftish va tekshiruv dalolatnomalari
- Boshqa ekspertizalarning (tovarshunoslik, qurilish, texnologik, xatshunoslik ekspertizalari) xulosalari, ekspertiza qilinayotgan obyektga taalluqli bo‘lgan ayblanuvchilarning ko‘rsatmalari, tintuv va olib qo‘yish bayonnomalari, norasmiy olib borilgan hisob hujjatlari.

**Vazifalari:**

- Pul mablag‘lari va tovar moddiy boyliklarni belgilangan tartibda kirim qilinishi va hisobdan chiqarilishini asoslilagini aniqlash;
- Pul mablag‘lari va tovar moddiy boyliklarni haqiqatda bor-yo‘qligini aniqlash;
- Buxgalteriya hisob-kitoblarini yuritish va nazoratini tashkil etilishini to‘g‘rilagini aniqlash;
- Hisob va nazoratni yuritish qoidalariga javobgar, javobgarligida pul mablag‘lari va tovar moddiy boyliklari bo‘lgan shaxslar doirasini aniqlash.

**Sud-buxgalteriya ekspertiga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan savollar**

- ma’lum vaqt davomida (tashkilot, muassasa, korxonada ishlovchi) moddiy javobgar shaxsda tovar-moddiy boylik, pul mablag‘lari kamomadi (ortiqchasi) bo‘lganmi? Bo‘lgan bo‘lsa qancha miqdorda?
- muayyan xo‘jalik operatsiyalari tufayli tashkilotga (korxona, muassasa) qancha zarar yetkazilgan?
- ma’lum shaxsning nomidagi ortiqchalarni shu nomdagi tovar boyliklari bo‘yicha kamomad hisobiga o‘tkazsa bo‘ladimi va o‘tkazilganmi? Hisobga o‘tkazilgandan keyin kamomad (ortiqcha) miqdori qancha?
- muayyan tashkilotni tekshirishda (taftish qilish) qo‘llangan uslublar kamomadlarni (ortiqcha) aniqlashga imkon bergenmi?

## **Sud-buxgalteriya ekspertiga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan savollar (davomi)**

- muayyan tashkilot (korxona, muassasa)ning buxgalteriya hisobi va hisobot hujjatlarida ma’lum davr davomida qo‘shib yozishlar mavjudmi? Mukofotlar asosli ravishda berilganmi?
- qanday qilib muayyan shaxsda ma’lum davr orasida hujjatlarga muvofiq kamomad (ortiqcha) hosil bo‘lgan?
- buxgalteriya hisobi va hisobotida tovar-moddiy boyliklar va pul mablag‘lari kamomadi (ortiqchasi) qanday qilib bekitilgan?
- muayyan tashkilotning buxgalteriya hisobida mazkur xo‘jalik operatsiyasi qanday aks etgan va uni qanday aks ettirish kerak edi?
- buxgalteriya hisobi qoidalariga binoan kamomad (ortiqcha)ning miqdorini belgilashda taqdim etilgan hujjatlar hisobga olinganmi yoki hisobga olinishi mumkinmi? Ushbu hujjatlar hisobga olingan holda kamomadning (ortiqcha) miqdori qanday?
- mavjud tovarlar ma’lum bir vaqtga ularning mumkin bo‘lgan qoldiqlariga nisbatan ortiqcha qilib ko‘rsatilganmi? Agar shu holat mavjud bo‘lsa, unda u nimadan dalolat beradi?
- dastlabki va jamlama buxgalteriya hujjatlarida mahsulot ishlab chiqarish haqidagi hisobot ko‘rsatkichlari qancha summaga o‘zgartirilgan?
- ishlab chiqarish sarf-xarajatlari summasining oshirilishi yoki kamaytirilishi qanday xo‘jalik operatsiyalari bilan bog‘liq?
- tovar-moddiy boyliklar (asosiy mablag‘larni) qayta baholash asosli ravishda amalga oshirilganmi?
- ma’lum vaqt davomida materiallarni oshirib ro‘yxatdan chiqarish holatlari bo‘lganmi va qancha summada (mahsulotga zarur xarajat me’yori texnologik ekspertiza yordamida aniqlanadi)?
- mazkur xomashyo yoki tovarlarning kelib tushishi va ro‘yxatdan o‘chirilishi buxgalteriya hisobida tegishli ravishda aks ettirilganmi?
- tovar-moddiy boyliklarning hujjatlar bilan asoslanmagan hisobga olish yoki ro‘yxatdan chiqarilishi qaysi operatsiya orqali va qancha summaga bajarilgan?
- asoslanmay tuzilgan hujjatlar bo‘yicha yoki umuman hujjatsiz qachon va qancha summaga muayyan tovar-moddiy boyliklar ro‘yxatdan o‘chirilgan?
- noto‘g‘pi (asoslanmagan) berilgan pul mablag‘larining summasi qancha? Bu summa kamomadni tashkil qiladimi?

## **Sud-buxgalteriya ekspertiga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan savollar (davomi)**

- hisobga olish ma’lumotlarida tovar-moddiy boyliklar, pul mablag‘larining kirimi va xarajati o’rtasida farqlar mavjudmi?
- buxgalteriya hisoblarida tayyor mahsulotni ortish va tushirishga ketgan xarajatlar haqidagi ko‘rsatkichlar dastlabki buxgalteriya hujjatlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga mos keladimi? Mos kelmasa, ushbu farqlar ishlab chiqarish xarajatlari summasini oshirganmi yoki kamaytirganmi?
- sintetik hisob va hisobot ma’lumotlari xomashyoni (tayyor mahsulot) kirimga kiritish bo‘yicha dastlabki hujjatlar, mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha yakuniy ko‘rsatkichlarga mos keladimi?
- hisobga olish registridagi qaysi yozuvlar dastlabki hujjatlar bilan tasdiqlanadi?
- moddiy boyliklarni olish va sotishda budjet korxonasi (muassasa, tashkilot) tovarsiz operatsiyalarni amalga oshirganmi?
- ma’lum bir davrda tovar-moddiy boyliklarni qabul qilib olish va topshirishda (masalan, omborxonada) hisobga olish va nazorat qilishning qaysi talablari bajarilmagan?
- ma’lum bir davrda moddiy boyliklar, pul mablag‘lari uchun kim javobgar bo‘lgan?
- tovar-moddiy boyliklarni hisobga olish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar talablarini ta’minlash bosh buxgalterning majburiyatiga kiradimi?
- bosh buxgalterdan boshqa qaysi shaxs buxgalteriya hisobini olib borish uslubiyotiga rioya qilish uchun ma’suldir?
- tovar-moddiy boyliklar, pul mablag‘lari, kamomadlarni (ortiqcha) yoki moddiy zararning boshqa turlarini yuzaga keltiruvchi sharoitni bartaraf etish uchun qanday chora-tadbirlar kerak?
- buxgalteriya hisob-kitobi va nazoratini belgilaydigan me’yoriy qoidalar talablarining qaysi buzilishlari moddiy zarar yetkazishga olib keldi?
- muayyan xo‘jalik operatsiyalari bo‘yicha hisobot buxgalteriya hujjatlarini yuritishning barcha qoidalariga rioya qilgan holda rasmiylashtirilganmi?

## Sud-moliya-kredit ekspertizasi

**Predmeti:** Pul mablag‘lari fondlarini shakllanishi va sarflanishi, kredit mablag‘larini taqsimlanishini asosliligi aks etgan, ya’ni moliya-kredit jarayonlarini (operatsiyalarini) o‘zida aks ettirgan hujjatlarni tadqiq etish, hamda yo‘l qo‘yilgan qonunbuzarlik holatlarini aniqlash.

### **Obyektlari:**

- Uzoq muddatli iqtisodiy me’yoriy hujjatlar, me’yorlar, stavkalar, limitlar, dotatsiyalar, muassasalar, bank va muassasa o‘rtasidagi kredit shartnomalari;
- Ko‘rsatkichlarni asoslovchi hisob-kitoblar ilova qilingan moliyaviy rejalar (daromad va xarajatlar balansi);
- Buxgalteriya hisob-kitobining dastlabki va jamlama hujjatlari, tovar-transport yuk xatlari, bank ko‘chirmalari bilan birga to‘lov dalolatnomalari, kredit ajratish, mahsulot yetkazib berish shartnomalari, akkreditiv arizalar, hisob-fakturalar, yuk xatlar, to‘lov dalolatnomalari, jurnal orderlari, bosh kitob, balans hisoboti;
- Ishlab chiqarish va mahsulot tannarxi bo‘yicha buxgalteriya va statistik hisobot hujjatlari.

### **Vazifalari:**

- Davlat korxonalari, aksionerlik jamiyatlari va boshqa sub’ektlarni moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidagi moliyaviy ko‘rsatkichlari hisob-kitoblarining asoslilagini aniqlash; davlat budgeti to‘lovlari hisob-kitoblarini asosliligiga aniqlik kiritish vazifalari; kredit mablag‘lari olish uchun korxona tomonidan bank muassasasiga noto‘g‘ri ma’lumotlar berilishi holatlarini aniqlash; keraksiz, xaridorgir bo‘lмаган, ма’naviy eskirgan tovar va jihozlar uchun kredit olish maqsadida asossiz rejallashtirishlar va ushbu holatda korxonaga nisbatan qo‘llanilgan jarima hamda kredit mablag‘ini muddatidan oldin qaytarib olishga bo‘lgan sanksiyalarni asosligini aniqlash;
- Pul mablag‘lari fondlari va kreditlaridan foydalanishni, ularning ishlatalishi to‘g‘riligi va asosliligi aniqlash;
- Moliyaviy rejalarni shakllantirishdagi va kredit pul mablag‘larini ishlatalishdagi yo‘l qo‘yilgan qonun buzilish holatlarini aniqlash.

***Moliya-kredit ekspertizasini o'tkazishda ekspert ixtiyoriga taqdim etiladigan hujjatlar:***

1) korxonaning (muassasa) bosh kitobi; 2) hisob-kitob (balans) va unga izohlar; 3) jurnal orderlari; 4) bank hujjatlari (ko'chirma ilovasi bilan); 5) «xarajat» moddasi bo'yicha izohlar; 6) iqtisodiy rag'batlantirish jamg'armalariga ko'chirilgan pul mablag'lari, ishlab chiqarish tannarxining hisob-kitobi; 7) sotilgan mahsulot bo'yicha hujjatlar; 8) shartnomalar.

**Sud-moliya-kredit ekspertiga qo'yilishi mumkin bo'lgan savollar**

- ishlab chiqarishni, fan va texnikani, ijtimoiy rivojlantirish, moddiy rag'batlantirish kabi iqtisodiy barqarorlashtirish fondlarini to'g'ri shakllanganligini aniqlash;
- korxonaning (tashkilot) kredit mablag'lariga bo'lgan talabini asoslilagini aniqlash;
- korxona va tashkilotlar tomonidan davlat va mahalliy budgetlarga to'lovlarini to'liq va o'z vaqtida o'tkazib berilishi aniqlansin;
- budget tashkilotlari tomonidan (fan, madaniyat, sog'lijni saqlash va boshqalar) pul mablag'larini asosli sarflanishi aniqlansin;
- iqtisodiy barqarorlashtirish fondlariga yo'naltirilgan ajratmalarning to'g'riliqi va ulardan oqilona foydalanimishi aniqlansin;
- tashkilotlar o'rtasida mahsulotni sotish, xizmatlar, ishlar bajarish bo'yicha qilinadigan hisob-kitoblarni to'g'riliqi va bajarilmagan shartnomalarini bo'yicha qo'llanilgan iqtisodiy sanksiyalarni asosligi aniqlansin;
- korxonalar tomonidan kreditlash tartibiga amal qilinmaslik natijasida bank tomonidan qo'llanilgan sanksiyalarni to'g'riliqi va asosliligi aniqlansin;
- budget hamda yuqori turuvchi tashkilotlar bilan hisob-kitoblar va pul, kredit mablag'larini sarflanish qoidalari buzish holatlarini aniqlash;
- moliyaviy rejalarini to'g'ri tuzilishini, olingan mablag'lar va kreditlarni maqsadli ishlatalishini, budget daromadlariga yo'naltirilgan soliqlarni to'liq va o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlovchi shaxslar doirasini aniqlash.

## Sud-mehnat iqtisodi ekspertizasi

Ish haqi fondlarini me'yordan ortiqcha sarflanishi, mehnat resurslaridan samarasiz foydalanishiga oid dalillarni aniqlashda huquqni muhofaza qilish idora xodimlari tomonidan sud-mehnat iqtisodi ekspertizasidan foydalanishni taqozo etadi.

**Predmeti:** mehnat va ish haqi to'lovlari hujjatlaridagi ish haqini to'lash, ularni hisobotlarda to'g'ri aks etishi, mehnat va ish haqini rejalashtirishdagi qoida buzilish holatlarini aniqlash.

### *Obyektlari:*

- Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish rejalar (texnik iqtisodiy reja me'yorlari, mehnat va xodimlar bo'yicha rejalar, iqtisodiy barqarorlashtirish fondi rejalar) ko'rsatkichlari, asoslovchi hisob-kitoblari bilan;
- Rejalashtirish va reja ko'rsatkichlari o'zgarishlari bo'yicha hujjatlar, ish haqi fondi va moddiy rag'batlantirish fondi rejalar, faoliyat turlari, choraklar bo'yicha yillik tasdiqlangan holda;
- Birlamchi hujjatlar (buyruqlar, ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish, mehnat shartnomasini bekor qilish bo'yicha ko'rsatmalar, shaxsiy varaqalar, mehnat ta'tiliga chiqish bo'yicha buyruqlar, ish haqi va ish soati bo'yicha tabellar, to'lov, hisob-kitob qaydnomalari);
- Mehnat bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarni bajarilishi bo'yicha davlat statistika hisobotlari hujjatlari;
- O'tkazilgan tekshirish hujjatlari (bajarilgan ishlarni nazorat o'lchov dalolatnomalari);
- Yig'ma hujjatlar (yig'ma tabellar, brigadalar bo'yicha oylik ish haqi hisob-kitoblari, sex-uchastkalar bo'yicha hisoblangan mukofot qaydnomalari).

### *Sud-mehnat iqtisodi ekspertizasini o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlar:*

- 1) xodimlar ro'yxati; 2) rejalashtirilgan texnik-iqtisodiy me'yorlar; iqtisodiy rag'batlantirish, ish haqi jamg'armasi, moddiy rag'batlantirish jamg'armasi bo'yicha rejalar; 3) ish vaqtini hisoblash tabeli; 4) ish haqi bo'yicha shaxsiy hisoblar; 5) ishchilar soni bo'yicha qaydnomalar; 6) shaxsiy moddiy javobgarlik haqidagi shartnomalar; 7) statistik hisobotlar.

Iqtisodiyot sohadagi jinoyat ishlarini tergov qilishda rejali iqtisodiy ko'rsatkichlar va shartnoma majburiyatlarining asosli bajarilganini aniqlash kerak bo'ladi. Sodir bo'layotgan o'zgarishlarga qaramay sud-rejali iqtisodiy ekspertizani o'tkazishga bo'lgan talab saqlanib kelmoqda. Soliq va boshqa ko'rsatkichlarning miqdori bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilishi haqidagi hisobotni buzib ko'rsatish va shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda moliyaviy – xo'jalik faoliyatiga tegishli ma'lumotlar hujjatlarda noto'g'ri aks etish natijasida moddiy zarar yetkazilgan hollarda mazkur ekspertiza o'tkazilishi mumkin.

### **Vazifalari:**

#### **1. Korxonada ishlayotgan ishchilar soni hisob-kitobi, qo'llanilayotgan tarif setkasining asosliligi va ushbu ma'lumotlarning korxona hisobotlarida to'g'ri aks etganligi.**

- Korxona ishlab chiqarish tarkibining soni, tizimi va tuzilmasi hamda undagi o'zgarishlarni iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri;
- mehnatga haq to'lash tarif sistemasini inobatga olgan holda xodimlarning lavozim darajalari bo'yicha hisob-kitobining asosliligi;
- yuqorida keltirib o'tilgan holatlarning tashkilot (korxona) hisobotlarida to'g'ri aks etishi.

#### **2. Ish haqi fondining to'g'ri shakllanishi va chiqim qilinishi hamda ularning hisobotlarida to'g'ri aks ettirilganligini aniqlash.**

- Ish haqi fondi (mehnatga haq to'lash fondi) taqsimlanishi va ajratilishini asosli va to'g'riliqini, sarflanishining asosliligi, uning belgilangan me'yordan chetga chiqishi va buning sabablarini; mehnatga haq to'lash fondiga korxonaning ishlab chiqarishiga taalluqli bo'lman to'lovlearning ta'sirini; ishchi xodimlarni ish haqi fondidan mukofotlashni asosliligini; zararli, o'ta zararli sharoitlarda ishlovchi ishchi xodimlarga to'lanadigan qo'shimcha haqlarning asosliligini; mehnatga haq to'lash fondi bo'yicha aks etgan ma'lumotlarni korxona hisobotlarida to'g'ri aks ettirilganligini aniqlash.

#### **3. Ish haqi bo'yicha mehnatni rejalashtirish va rejalarini bajarish vaqtidagi qonun buzilish holatlarini aniqlash.**

- ish haqi fondi bo'yicha mehnat resurslarini ajratish va ulardan foydalanishdagi qoida buzilish holatlarini aniqlash;
- ish haqi va mehnat ko'rsatkichlari bajarilishi bo'yicha hisobotlarni tuzilishi va to'g'ri rejalashtirilishini ta'minlovchi shaxslar doirasini aniqlash.

### **Predmeti:**

Shartnoma, ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlarini asosli rejalshtirish, ularning bajarilishi va hisobotda aks etishi, shuningdek, bular haqida hisobot tayyorlashda buzilishga yo'l qo'yilgan holatlar haqida ma'lumotlarni aniqlash maqsadida rejalshtirish, bajarish va hisobot hujjatlarini tekshirish.

### **Obyektlari:**

- Reja tuzish uchun kerak bo'lgan dastlabki ma'lumotlar aks etgan hujjatlar, shartnoma, buyurtma, me'yor va limitlar, asoslangan ko'rsatkichlarning hisob-kitoblari ilova qilingan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejasi;
- Ishlab chiqarish bo'linma tomonidan belgilangan, reja ko'rsatkichlari aks etuvchi hujjatlar;
- Topshiriqni bajarish paytida amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalari bevosita aks etuvchi dastlabki va jamlama hujjatlar;
- Iqtisodiy ko'rsatkichlar bajarilganligi aks etuvchi statistik va buxgalteriya hisoboti hujjatlari (balans, hisobot va boshqalar).

### **Sud-rejali-iqtisodiy ekspertizaga qo'yiladigan savollar**

- rejalshtirish, rejalarini bajarish va hisobot tayyorlashda kamchiliklarga yo'l qo'yilganmi, agarda shunday bo'lsa qaysi me'yoriy qoidalar talabi buzilgan?
- yillik (chorak) hisobot tuzishda qo'shib yozish holatlari mavjudmi?
- hisobot tuzishda belgilangan tartib buzilganmi?
- qo'shib yozishlar topshiriq bajarish foizini oshirib ko'rsatish usuli emasmi?
- to'g'pi rejalshtirish, rejalarini bajarish va ishlab chiqarish faoliyati ko'rsatkichlarini hisobotda aks ettirish uchun mas'ul bo'lgan mansabdar shaxslar aniqlansin.

## **Hal etiladigan masalalar**

### **1. *Shartnoma, davlat buyurtmasi, rejadagi topshiriqlarning me'yorlarga muvofiqli***

1) shartnoma, davlat buyurtmalari, uzoq muddatli iqtisodiy me'yoriy andozalar shartlariga reja topshiriqlari (ko'rsatkichlari) muvofiqligini aniqlash; 2) topshiriq rejalar korxona hisob-kitobi ko'rsatkichlariga qarab asoslanganligi va bo'linmalarga berilgan topshiriq rejalar quyidagi ko'rsatkichlar, ya'ni tabiiy ifodadagi mahsulot ishlab chiqarish rejasi, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qarab asoslanganligini aniqlash; 3) sotilgan mahsulot hajmining asosli ravishda hisobotda aks etishi; 4) mahsulot tannarxi rejasining asoslanganligi; 5) markazlashtirilgan davlat mablag'lari va qurilish montaj ishlariga limit rejalarini belgilash, davlat m arkazlashtirilgan kapital quyilma, moddiy-texnik ta'minot fondlari hisobiga asosiy fondlarni, ishlab chiqarish quvvati va obyektlarini ishga tushirish.

### **2. *Rejali iqtisodiy ko'rsatkichlar, ishlab chiqarish faoliyati bajarilishi va ularning hisobotda to'g'ri aks etganligini aniqlash***

1) ishlab chiqarish tannarxining iqtisodiy ko'rsatkichlar shartnomasi bajarilishini, jumladan, ishlab chiqarish va qurilish hajmi, mahsulot - tovarlarni sotish, xizmat ko'rsatish hajmi, qurilish-montaj va pudrat ishlari hajmi, ishlab chiqarish quvvatlari, asosiy fondlarni ishga tushirish, moddiy-texnik ta'minot ko'rsatgichlarining asosli ekanini aniqlash; 2) sotilayotgan mahsulotga belgilangan narxning asosli ekanini aniqlash; 3) sanab o'tilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarni bajarish haqidagi ma'lumotlarning korxona hisobida to'g'pi aks etganligini aniqlash.

### **3. *Rejalashtirish, rejalar va shartnoma majburiyatlarini bajarish haqida hisobot tuzishda yo'l qo'yilgan buzishlarni, to'g'ri rejalashtirish, rejalarini bajarish va ishlab chiqarish faoliyati ko'rsatkichlarini hisobotda aks ettirish uchun mas'ul bo'lgan mansabdar shaxslarni aniqlash***

korxona va uning bo'linmalari tomonidan ishlab chiqarish faoliyati ko'rsatkichlarining bajarilganini, raqamlar va foizda reja bajarilishining miqdorini; – hisobotda ko'rsatilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning hisob-kitob ko'rsatkichlariga to'g'riliqini, hisobot ma'lumotlarining to'liq aks etganligini va ularning rejalashtirilgan va bajarilgan iqtisodiy ko'rsatkichlardan farqini aniqlash.

## **Ekspertizani o‘tkazish uchun zarur ma’lumotlar**

- 1) davlat buyurtmasi bo‘yicha reja topshiriqlar;
- 2) shartnomalar;
- 3) mahsulot, tovarlarni sotish, xizmat ko‘rsatish hajmlari bo‘yicha reja topshiriqlarining hisob-kitobi;
- 4) shartnomaga binoan mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha hisob-kitoblar;
- 5) ichki tannarx bo‘yicha rejaning hisob kitobi;
- 6) markazlashtirilgan mablag‘lar, qurilish-montaj ishlari limit rejalarining hisob-kitobi;
- 7) asosiy vositalar bo‘yicha ro‘yxat;
- 8) rejalarini o‘zgartirib to‘g‘rilash haqidagi hujjatlar (farmoyishlar);
- 9) sex xarajatlari bo‘yicha smetalar, asbob uskunalarni saqlash va ishslash smetalar;
- 10) tovar-transport yukxati, ortib yuborilgan mahsulotlarning to‘lov talabnomasi;
- 11) bank ko‘chirmalari, ilovalari va jurnal orderlari;
- 12) bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomalari;
- 13) qurilish obyektlarini ishlatish uchun qabul qilish dalolatnomalari.

## **Sud- iqtisodiy-statistik ekspertizasi**

Sud-iqtisodiy-statistika ekspertizasi sud-rejali iqtisodiy ekspertiza bilan bog‘liqdir.

Iqtisodiy statistika qayta ishlab chiqarish jarayonlari iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tuzish usullari va tahlil qilish qoidalarini ishlab chiqadi.

**Predmeti:** Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni bajarish bo‘yicha hisobotlarni tuzishdagi statistik uslublar va statistik hisobotlarni tuzishdagi qoida buzilish

### ***Hal etiladigan savollar:***

- Iqtisodiy ko‘rsatkichlar bajarilishi bo‘yicha hisobot tayyorlashda barcha statistik uslublar qo‘llanganmi? Agar bularning barchasi qo‘llanmagan bo‘lsa, unda taqdim etilgan ma’lumotlarga qanday ta’sir qilgan?
- Korxonada statistik hisob-kitob olib borish me’yoriy hujjatlar talabiga javob beradimi?
- Statistik iqtisodiy ko‘rsatkichlarning haqiqiyligi va solishtirilishini ta’minlay olmaydigan kamchiliklar statistik hisobot olib borishda

### ***Obyektlari:***

- reja, shartnomalar, buyurtmalar, limitlarni tuzish uchun birlamchi ma'lumotlar aks ettirilgan hujjatlar;
- ko'rsatkichlarning hisob asoslanishlari bilan birgalikdagi iqtisodiy rivojlanish rejasi (ishlab chiqarishlar rejali va mahsulotni realizatsiya qilish jadvallari va hisoblari, kapital qurilish va hokazolar);
- ishlab chiqarish tarkibiy bo'linmasi tomonidan o'rnatilgan reja ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi hujjatlar (sex bo'yicha, uskunani saqlash va ekspluatatsiya qilish bo'yicha xarajatlar smetasi);
- topshiriqlarni bajarishda xo'jalik operatsiyalarini o'zida aks ettirgan birlamchi va yig'ma hujjatlar (shartnomalar, tovar-transport yukxatlari, qurilish obyektlarini qabul qilish dalolatnomalari, jurnal-orderlari, bosh kitob va boshqalar);
- iqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilishini o'zida aks ettiruvchi buxgalterlik hisoboti hujjatlari (ilovalar va rasshifrovkalar bilan balans, hisobot shakllari va boshqalar);
- - statistik shakllar – tegishli muassasalarga topshiriladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'yicha hisobotlar va hisobotlilik.

### ***Ekspertizani o'tkazish uchun zarur ma'lumotlar:***

- 1) statistik formalar, tegishli muassasaga topshiriladigan korxonaning hisobotlari;
- 2) bosh kitob;
- 3) balans, ilova va izohlari bilan.

## Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasi

O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning chet el davlatlardagi jismoniy va yuridik shaxslar bilan tovar, ishlarni (xizmatlar) import va eksport qilish bo‘yicha amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalari bo‘yicha yangi dalillarni hamda dastlabki tergov davrida olib borilgan tekshiruv chog‘ida aniqlanmagan boshqa ko‘rsatkichlar yoki tekshiruvlar natijasida belgilangan o‘xhash dalillarning ishonchliligi hamda yig‘ilgan hujjatlar asosida shubha tug‘diradigan boshqa omillarni aniqlashga ehtiyoj tug‘ilganda Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasi o‘tkaziladi.

**Predmeti:** O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshirayotgan korxonalar – tabiiy monopoliya subyektlari, davlat mablag‘larini jaib etgan boshqa mulkchilik shaklidagi tashkilot va korxonalar, ularning filiallari va vakolatxonalar, davlat ulushi bo‘lgan korxona va tashkilotlar tomonidan tuzilgan import shartnomalari hamda O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga sotiladigan tovar va ishlar (xizmatlar) uchun tashqi savdo qilish sohasidagi kontraktlarni, ularning o‘zgartish va qo‘srimchalarini rasmiylashtirish yo‘li bilan amalga oshirish borasidagi tashqi savdo faoliyatini o‘rganish.

**Obyektlari:** tovar va ishlar (xizmatlar), har qanday mol-mulkka (intellektual mol-mulkdan tashqari) nisbatan tashqi iqtisodiy faoliyat doirasida moliya-xo‘jalik operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha axborotni o‘z ichiga olgan hujjatlarda aks ettirilgan ma’lumotlar. Qonun hujjatlari bilan tashqi iqtisodiy faoliyatda foydalanish uchun taqiqlangan ma’lumotlar bundan mustasno.

### Tashqi savdo faoliyatining sud-iqtisodiy ekspertizasini o‘tkazish uchun qo‘yiladigan masalalar

- Muayyan sana holatiga valyuta kursini qo‘llash va milliy valyuta (so‘m) miqdorini chet el valyutasiga qayta hisoblashning to‘g‘riliği;
- Tovar, ishlarni (xizmatlar) olib chiqish va olib kirish bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirish qismi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligiga rioya qilish;
- Shartnomalari majburiyatlariga amal qilish bo‘yicha eksport va import shartnomalarni baholash; bojxona yuk deklaratasiyasini (BYuD) rasmiylashtirish (to‘ldirish) tartibiga rioya qilish;

- Rasmiy narxlar to‘g‘risida ma’lumotlarni taqdim etishni hisobga olgan holda jahon narxlari darajasi bilan taqqoslaganda eksport va import shartnomalarida ko‘zda tutilgan narxlarning oshishini (kamayishi) belgilash;
- Tashqi savdo oldi-sotdi shartnomasi asosida olingan, import (eksport) qilingan tovarlar soni va qiymatini belgilash;
- Tashqi savdo oldi-sotdi shartnomasini bajarish doirasida pul mablag‘lar va hisob-kitoblarning hisobini yuritish va harakatlanish tizimini belgilash (valyuta tushumining o‘z vaqtida tushishi);
- Tashqi savdo shartnomalarida ko‘zda tutilgan hujjatlarning mavjudligi va ularning to‘g‘ri rasmiy lashtirilishi;
- Birlamchi hujjatlar bo‘yicha tovarlarning assortimenti, rusumi, texnik tafsiloti va soni bo‘yicha shartnomalarning shartlariga muvofiqligini aniqlash;
- Yetkazib beruvchining hisob-fakturasi bo‘yicha o‘rinlar soni va tovar vaznining transport hujjatlarda, tasnif va sertifikatlarda keltirilgan o‘rinlar soni va tovar vazniga muvofiqligi;
- Shartnomada ko‘zda tutilgan tomonlarning shartnoma shartlarini lozim darajada bajarish bo‘yicha javobgarlikni bajarishning (qo‘llash) to‘g‘riliği.

## Sud-soliq ekspertizasi

Sud-soliq ekspertizasi fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat ishi (shu jumladan, tergovga qadar tekshiruv materiallari), ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rish jarayonida soliq qonunchiligi talablariga ko'ra soliq solish obyekti yuzaga keladigan turli xo'jalik yoki moliyaviy operatsiya sodir etilishi bilan bog'liq holatlar bo'yicha haqiqatda hisoblangan va budgetga hisoblanishi lozim bo'lgan soliqlarni miqdorini belgilash zarur bo'lgan hollarda tayinlanlanadi.

### **Predmeti:**

- ma'lum davr uchun budgetga hisoblanishi va to'lanishi lozim bo'lgan soliq miqdori;
- soliq solinadigan bazaning hajmisoliq solinadigan bazaning hajmi;
- budgetga hujjatlar bo'yicha to'langan soliqlar to'g'risidagi faktik ma'lumotlar.

**Umumiy vazifasi:** budgetga hisoblangan va to'langan soliqlar, yig'implarning miqdorini aniqlash hamda ularni soliq qonunchiligi talablariga muvofiq hisoblanishi, shuningdek, ularning hisoblanishi asosliliginini aniqlash maqsadida soliq solish obyektlari va elementlarini, buxgalteriya hisobi va soliq hisobi ma'lumotlarini tadqiq qilish.

**Obyektlari:** soliq to'lovchining boshlang'ich hisob hujjatlari, buxgalteriya va soliq hisobi registrlari, moliyaviy va soliq hisobotlari (soliq deklaratsiyalari), xo'jalik shartnomalari, soliq tekshiruvi dalolatnomalari, shuningdek soliq va yig'implar hisoblashga asos bo'luvchi xo'jalik operatsiyasini sodir etilganligini o'zida aks ettirgan boshqa hujjatlar.

*Sud-soliq ekspertizasi obyektlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:*

### **Asosiy obyektlar**

Soliq solish elementlari to‘g‘risidagi axborotlarni o‘zida aks ettirgan belgilangan (unifikatsiyalangan) shakldagi hisob hujjatlari; soliq solish elementlarini aniqlashda qo‘llaniladigan boshlang‘ich hisob hujjatlari; buxgalteriya va soliq hisobi registrlari; bank hujjatlari, hisob varag‘i aylanmasidan ko‘chirma ma’lumotlari; tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, tovar (ish, xizmat)larni sotish, yetkazib berish bo‘yicha moliyaviy-ho‘jalik operatsiyalar, jismoniy shaxslarning daromadlari, yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlari va xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettirilgan hisobotlar; soliq hisobotlari, moliyaviy hisobotlar, korxonaning hisob siyosati.

### **Yordamchi obyektlar**

Hisob hujjatlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda tadqiq qilinuvchi hisob yuritilmaydigan hujjatlar; ta’sis hujjatlari, shartnomalar, soliq tekshiruvi dalolatnomalari, soliq organlari hujjatlari (dalolatnomaga ilova qilingan tekshiruv hujjatlari va b.), auditorlik hisobotlari, boshqa mutaxassislik ekspertlarining xulosalari.

### **Elektron obyektlar**

Qog‘oz shaklida taqdim etilgan avtomatlashtirilgan hisobot materiallari (elektron hujjatning nusxasi).

### *Ekspert yechimiga qo‘yilgan savollarga talablar:*

1. Ekspert oldiga qo‘yilgan savollar faqat buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish sohasida maxsus bilimlarni talab etishi, soliq qonunchiligi me’yorlarini qo‘llagan holda hal etilishi mumkin.
2. Savollar ekspertning vakolati, uning huquq va majburiyatlari doirasida qo‘yilishi lozim.
3. Aniq bo‘lishi, ishning holatidan kelib chiqishi va tegishli ravishda tergovchi tomonidan hujjatlashtirilgan ma’lum dalillarga taalluqli bo‘lishi kerak.
4. Ekspert tomonidan faoliyati yuzasidan tadqiqot o‘tkazilishi kerak bo‘lgan korxona nomi hamda tadqiq qilinadigan faoliyat davri ko‘rsatilishi lozim.
5. Jiddiv mantiqiy ketma-ketlikda iovlashishi lozim.

## Bank sohasida boy berilgan foyda tadqiqoti

Bank sohasida boy berilgan foyda – bu kredit mablag‘larining qonuniy va asosli berilishi bilan birga biznesning boshqa muhim shartlari bog‘liq bo‘lgan uchinchi shaxslarning faoliyati tufayli huquqlarini buzilishi, qarzning o‘z vaqtida qaytarilmasligi natijasida, bankning pul yo‘qotishi. Boshqacha qilib aytilganda, bank sohasida boy berilgan foyda – bankning yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning boshqa tadbirkorlarning harakatlari tufayli ololmagan daromadi.

**Predmeti:** Ekspertlik yo‘li bilan kredit shartnomasi, kredit summasi qaytarilishi va unga hisoblanishi lozim bo‘lgan foiz bo‘yicha to‘lov jadvali (grafigi), kredit shartnomada ko‘rsatilgan qarz summasi berilishini tasdiqlovchi bank hujjati, kredit mablag‘larining maqsadli sarflanishini tasdiqlovchi buxgalteriya hujjatlari, berilgan kredit mablag‘larini qaytarilmasligi bo‘yicha hisoblangan foizlar summasi hisob-kitobi ma’lumotlari (hujjatlari), kredit shartnomasida ko‘rsatilgan tovar-moddiy boyliklarning kirim-chiqim hujjatlarini tadqiq etish.

**Obyektlari:** kredit berilishi bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar bilan birga uning qaytarilishi va o‘z vaqtida qaytarilmasligini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar.

### ***Ekspert oldiga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan savollar:***

- bank muassasasi tomonidan berilgan kreditning qaytarilmasligi oqibatida yetkazilgan zarar summasi va boy berilgan foyda miqdori aniqlansin;
- kredit summasining to‘liq qaytarilmasligi (qisman qaytarilganligi) natijasida boy berilgan foyda summasi hisoblansin;
- kredit mablag‘ini kredit shartnomasida ko‘rsatilgan muddatdan kechiktirib berish oqibatida tadbirkor tomonidan ololmagan, boy berilgan foyda miqdorini aniqlash;
- kredit mablag‘ini kredit shartnomasida ko‘rsatilgan miqdordan kam berilishi natijasida tadbirkor tomonidan ololmagan, boy berilgan foyda summasini hisoblash.

## **Tadbirkorlik subyektlarining boy berilgan foydasini aniqlash taddiqoti**

Tadbirkorlik subyektlarining boy berilgan foydasi – biznesning boshqa muhim shartlari bilan bog‘liq bo‘lgan uchinchi shaxslarning faoliyati tufayli huquqlarini buzilishi, qarzning o‘z vaqtida qaytarilmasligi, shuningdek shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik yoki kechiktirib bajarish natijasida tadbirkorning pul yo‘qotishi. Ya’ni, tadbirkorlik subyektining boy berilgan foydasi – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning boshqa tadbirkorlarning harakatlari tufayli ololmagan daromadi.

**Obyektlari:** xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar bilan birga shartnoma majburiyatlarini bajarilishi va o‘z vaqtida bajarilmasligini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar.

### ***Ekspert oldiga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan savollar:***

- tadbirkor tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganligi oqibatida yetkazilgan zarar summasi va boy berilgan foya miqdori aniqlansin;
- daromad summasining to‘liq qaytarilmasligi (qisman qaytarilganligi) natijasida boy berilgan foya summasi hisoblansin;
- shartnoma shartlarida ko‘rsatilgan ish, xizmat va tovarlarni muddatidan kechiktirib berish oqibatida tadbirkor tomonidan ololmagan, boy berilgan foya miqdorini aniqlash;
- shartnomada ko‘rsatilgan ish, xizmat va tovarlar miqdoridan kam berilishi (ko‘rsatilishi) natijasida tadbirkor tomonidan ololmagan, boy berilgan foya summasini hisoblash.

### ***Tadbirkorlik subyektlari boy berilgan foydasini aniqlashda qo‘llaniladigan tadqiqot uslublari***

1. hujjatli tekshirish;
2. taqqoslash;
3. qarama-qarshi tekshirish.

## **7-MAVZU: SUD-TOVARSHUNOSLIK EKSPERTIZASI**

**Sud tovarshunoslik ekspertizasi doirasida hal etiladigan masalalar:**

### ***Klassifikatsion masalalar***

- tovarning xalqaro standart talablariga, texnik sharoiti tasdiqlangan namunalarga, shartnoma va boshqa normativ aktlarga mos kelishini (mos kelmasligi) aniqlash;
- tovarlarning qaysi tur va turkumga taalluqliligin, ularning sifati, soni, assortimenti, o‘lchami, navi, komplektga kirishi, bahosini unga tirkalgan yorliqqa va boshqa ilova hujjatlarga mosligini aniqlash;
- taqdim etilgan mahsulot (tovar)ning sifat belgilari namuna sifatida unga o‘xshash tovarning sifat ko‘rsatkichlariga mos kelish-kelmasligini aniqlash

### ***Diagnostik masalalar***

- tovardagi kamchiliklarni aniqlash va ularni tovarning sifatiga ta’sirini belgilash;
- tovarning sifat o‘zgarishini sabablari va nuqson (kamchilik)larini kelib chiqish xarakterini aniqlash (u ishlab chiqarish yoki foydalanish davrida yuzaga kelganmi);
- tovarning tutilishi, zararlanishi, nuqsonini hisobga olgan holda bahosini aniqlash;
- yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlash

### ***Sud tovarshunos ekspertining vakolatiga kirmaydi:***

- zargarlik buyumlari;
- san’at asarlarini baholash. Soliq solinadigan asoslarni aniqlash.

### ***Obyektlari:***

- sanoat tovarlari (mebel, to‘qimachilik, trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari);
- orgtexnika va ularning jamlanmalari (komplektlari);
- ishlab chiqarish liniyalarining alohida qismlari;
- maishiy xo‘jalik tovarlari;
- iste’mol tovarlari bo‘lmish yarimtayyor, sanoat, attorlik (galantereya) mahsulotlari, maishiy mollari (yoritish asbob va moslamalari).

### ***Ekzpertiza uchun zarur bo‘lgan hujjatlar:***

- tovarning soni, sifat ko‘rsatgichlari keltirilgan texnik pasportlari va hujjatlari, sifat sertifikatlari, suratlari, chizmalari;
- bojxona deklaratsiyasi;
- tovarni joydan-joyga ko‘chirish bilan bog‘liq yuk hujjatlari;
- tekshiriladigan obyektlarni tovar xususiyatlarini aks ettiruvchi jinoiy (fuqarolik, xo‘jalik) ish materiallari.

### ***Hal etiladigan savollar:***

- Tovarning nomi va uning guruhi qanday?
- Taqdim etilgan sanoat mahsuloti qanday mahsulotdan tayyorlangan?
- Tadqiqot uchun taqdim etilgan mahsulot nuqsoni foydalanish natijasida yoki sifatsizligidanmi?
- Qadoqlash qoidasi buzilganmi?
- Jabrlanuvchi egnidagi shimi tintuvdagagi gumonlanuvchining uyidagi topilgan kurtkasiga mos tushadimi?
- tadqiq qilinayotgan mahsulot yangimi yoki kiyilganmi?
- Taqdim etilgan mahsulotni sifati namuna sifatiga to‘g‘ri keladimi? Agar to‘g‘ri kelmasa, ularning farqi nimada?
- Zararlangandan yoki buzilgandan keyingi keltirilgan moddiy zararning hajmi qancha?
- Tekshirilayotgan obyektning hozirgi (ya’ni ekspertiza o’tkazish) vaqtdagi o‘rtacha bozor bahosi qanday? tekshirilayotgan obyektning o’tgan davrning muayyan vaqtiga o‘rtacha bozor bahosi qanday bo‘lgan?

## **Oziq-ovqat mahsulotlarni tadqiq qilish va baholash bo‘yicha sud-tovarshunoslik ekspertizasi**

Tovarshunoslik ekspert masalani yechishning asosiy sharti bu - obyektning maqsadiga muvofiq ma’lum ehtiyojni qondirish uchun yaroqliligin shart qiladigan xususiyat va fazilatlarning majmuini tadqiq qilishdir.

**Predmeti:** Pul mablag’lari,tovar moddiy boyliklarni haqiqatda naqd boryuqligini,bugalteriya hisobini yuritish qoidalarini bo‘zilish holatlarini aaniqlash yuzasidan bugalteriya hisobi hujjatlarining taqdim etilishi.

### **Oziq-ovqat tovarlar klassifikatsiyasi**

**Oziq-ovqat tovarlar klassifikatsiyasi** – ularni umumiylar eng o‘ziga xos belgilari bo‘yicha guruuhlar, kichik guruuhlar, sinflarga taqsimlash. Klassifikatsiya negiziga turli belgilar qo‘yilishi mumkin: tovarlarni vujudga kelishi, ularning kimyoviy tarkibi, maqsadi, va boshqalar.

**Hisob klassifikatsiyasi** bo‘yicha barcha oziq-ovqat tovarlar quyidagi guruuhlarga bo‘linadilar: don-un, shakar; asal, kraxmal, qandolat; ta’mli tovarlar; sut mahsulotlari; tuxum; go‘sht, baliq; oziq-ovqat yog‘lari; oziq-ovqat konsentratlari.

Yuqorida keltirilgan klassifikatsiya asosan tovarlarni asosiy xomashyo bo‘yicha guruhanishini nazarda tutadi, ammo ularning alohida guruuhlarini (mazaviy, qandolat, yog‘lar, oziq-ovqat konsentratlari) ushbu belgi bo‘yicha birlashtirish mumkin emas.

**Savdo klassifikatsiyasi** bo‘yicha oziq-ovqat tovarlar quyidagi guruuhlarga ajraladi: non mahsulotlari; meva-sabzavotlar; qandolat; aroq-sharob; sut-yog‘ go‘sht; baliq; tuxum tovarlari; tamaki mahsulotlari. Bundan tashqari, savdo amaliyotida oziq-ovqatlar boqqol (krupa, un, xamirturush, makaron mahsulotlari, quritilgan mevalar, sabzavotlar, qo‘ziqorinlar, kraxmal, shakar, tuz, choy, kofe, ziravorlar, va boshq.) hamda gastronomik, ya’ni, iste’mol qilish uchun tayyor (pishloqlar, kolbasalar, dudlangan mahsulotlar, konservalar, ichimliklar, sut mahsulotlari, tamaki mahsulotlari, va boshq.) tovarlarga ajraladi.

Shuningdek, oziq-ovqat tovarlar navlarga bo‘linadi: tabiiy va tovar navlari. Mahsulotning tovar navi uning sifatiga bog‘liq (ekstra, buket, oliv, birinchi, ikkinchi, uchinchi).

## **Baholash jarayoni o‘z ichiga quyidagilarni oladi:**

1. Baholanayotgan obyektlarni va texnik holatni umumiyligi ko‘rikdan o‘tkazish va ta’riflash, xususiyatlarini aniqlash. Shu bilan birga ekspertizani tayinlagan shaxs, qonunchilikka asosan, tadqiqot obyektini ko‘rigini tashkil qilishi va ishtirok etishi, ekspertni obyektlarga kirishni ta’minlashi lozim. Baholash obyektlarini ko‘rikdan o‘tkazilishining maqsadi – ularni identifikatsiyalash, jismoniy holatini o‘rganish, taqdim etilgan hamroh hujjatlar va markirovkaga mosligi/mos bo‘lmaganligini aniqlash.

2. Tadqiqot obyektlarini haqiqiy holati haqida ko‘rik natijasida olingan natijalarini o‘rganish;

3. Baholash obyektlarni ko‘rikdan o‘tkazish marosimi ularni identifikatsiyalash, jismoniy holatini aniqlash, taqdim etilgan birlamchi hujjatlarga mos kelmasligini, hamda birlamchi hujjatlarda ko‘rsatilmagan nuqsonlarni aniqlash maqsadida o‘tkaziladi;

4. Baholanayotgan tovarlarga o‘xshash tovarlar bozorini va ulardagi narxlarni tadqiq qilish:

4.1. Baholash marosimi baholash obyekti va/yoki uning analoglari haqidagi bozor ma’lumotlaridan foydalanishni talab qilgan taqdirda, ekspert baholash obyekti bozorini tahlil qiladi va o‘xshash obyektlarning (bir xil, yoki taxminiy analoglar) narxlari (takliflari) haqidagi ma’lumotlarni yig‘ib oladi.

4.2. Ma’lumotlar yig‘ilganida, analog-obyektlar haqidagi ma’lumot ustunlikka ega bo‘ladi. Shu bilan birga shunday shartlarga rioya qilish lozimki, import tovariga bo‘lgan yuklangan xarajatlarni (soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, transport xarajatlari, boshqa xarajatlar) hisoblashga bo‘lgan obyektiv yondashish maqsadida baholash obyekti va analoglar o‘zini ishlab chiqaruvchi mamlakati bo‘yicha bir-biriga mos bo‘lishlari lozim.

4.3. Agarda obyektlarning boshqa parametrlari va tasniflari baholash obyekti uchun narxni yaratuvchi omillari bo‘lgan taqdirda, obyektlarning bunday parametrlarini va tasniflarini o‘rganish majburiydir.

4.4. Baholash obyektiining analoglari haqidagi ma’lumotlarni analoglarni tanlash elementlarining talablarini inobatga olgan holda yig‘ish lozim.

4.5. Baholash obyekti aniq bir savdo belgisi ostidagi ishlab chiqarish tovari bo‘lgan taqdirda, o‘xshash obyektni tanlashda ekspert e’tiborini baholash obyektiining savdo belgisiga qaratishi lozim.

4.6. Ma’lumotlarni yig‘ish va ularni tahlil qilish marosimi bilan birga baholash identifikatsiya qilinadi, va bu narsa ekspert xulosasida aks ettiriladi.

Tovarlarni baholashda shuni inobatga olish lozimki, ularning narxlari bozor kon'yunkturasi, talab va taklifni hisobga olgan holda erkin shakllantirilayotgan narxlardan kelib chiqib yaratiladi.

## **8-MAVZU: ODAM DNKSI SUD-BIOLOGIK EKSPERTIZASI**

***Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasining predmeti*** – bu zamonaviy molekular genetik uslublarni qo'llab odamning biologik obyektlarini tadqiqot qilish yo'li bilan ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni aniqlashdir.

***Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi davomida xal qilinadigan masalalar:***

***Diagnostika:*** a) obyektlarning molekular genetik tadqiqotlar uchun yaroqlilagini aniqlash; Tashuvchi obyektlarda biologik kelib chiqish obyektlari (qon, urug', tupurik va boshqalar) mavjudligini, ularning o'ziga xos (adam yoki hayvon) va guruh (qon guruhi) mansubligini aniqlash sud-tibbiyot ekspertlarining vakolatiga kiradi.

***Identifikatsiya:*** a) shaxsni aniqlash (noma'lum qoldiqlar); b) ashyoviy dalillarga biologik izlarni to'g'ridan-to'g'ri aniqlash; v) bolalarning bahsli ota-onaligini belgilash (otalikni qiyinlashtirish, onalik yoki bolalarni almashtirish holatlarida bolaning haqiqiy ota-onasini belgilash); faqat bitta ota-ona ishtirokida ekspert tadqiqotlarini o'tkazish; d) to'g'ridan-to'g'ri (avlod orqali) va bilvosita (ona liniyasi orqali, ota avlod bo'yicha) orqali biologik qarindoshlikni o'rnatish; f) tirik qolgan qarindoshlarning genetik profilini tiklash.

***Klassifikatsiya:*** a) o'rganilayotgan obyektlarning jinsini aniqlash; b) o'rganilgan lokuslar (DNK saytlari) bo'yicha odamning genomik profilini o'rnatish; c) genetik pasportni tuzish.

### **Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi obyektlari**

- Qon (shu jumladan turli xil kiyim-kechak va buyumlardagi qon dog'lari)
- Maniy qodiqlari (shu jumladan aralash bio-qatlamlarning bir qismi sifatida)
  - Mushak to'qimalari va boshqa ichki organlarning to'qimalari
  - So'lak va bukal to'qimalar
  - Ildizi mavjud soch tolalar
  - Ter-yog' qodiqlari
  - Suyaklar (shu jumladan suyak fragmentlari)
  - Tirnoq osti namunalar
  - Abort qilingan material (shu jumladan xorion to'qimasi)

*Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi tadqiqotning bevosita obyekti inson tanasi hujayralaridan (qon, maniy, suyak namunasi, mushak to‘qimalari) ajratilgan dezoksiribonuklein kislotasi hisoblanadi (bundan keyin DNK deb ataladi).*

### ***DNK ekspertizasini tayinlash asoslari:***

jinoyat sodir qilgan va tergov idoralaridan yashirinib yurgan shaxsi noma'lum aybdorni aniqlash uchun

DNK ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan genotiplar bilan solishtirish uchun

nizoli otalik yoki onalik yoxud qarindoshlik masalasini hal etish uchun o‘zining shaxsi to‘g‘risida ma'lumot bermayotgan yoki noto‘g‘ri ma'lumotlar berib, tergov idoralarini chalg‘itayotgan gumondor sifatida ushlangan gumon qilinuvchining shaxsini aniqlash

### ***Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi quyidagi savollarni hal etadi:***

- noma'lum jasad qoldiqlarini identifikatsiya qilish;
- qon, maniy, so'lak, soch, to‘qimalar, organlar, tana bo‘laklari va boshqa biologik obyektlarni ma'lum bir shaxsga tegishliligini aniqlash;
- qon, sperma, so'lak, soch, to‘qimalar, organlar, tana bo‘laklari va boshqa biologik materiallarni bir yoki bir necha shaxsga tegishliligini aniqlash;
- bolaning biologik ota-onasini aniqlash;
- ota yoki ona nasli bo‘yicha yaqin yoki uzoq qarindoshlikni aniqlash;
- biologik egizaklarni aniqlash;
- opa-singil, aka-ukalikni aniqlash;
- bobo-buvi nabiralikni aniqlash;
- biologik izlarni jins mansubligini aniqlash;
- odam DNKsi genotipini aniqlash va «DNK ma'lumotlar bazasini» shakllantirish (jinoyatlarni tergov qilishda shu genotiplardan keyingi identifikatsiya qilish maqsadida foydalanish uchun);
- taqdim qilingan biologik materiallar genotiplarini «DNK ma'lumotlar bazasi»da mavjud genotiplar bilan solishtirish yo‘li orqali identifikatsion va diagnostik masalalarini hal etish;

### **Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi tayinlash tartibi:**

–Molekular genetik ekspertiza faqat sud biologik ekspertizasini o’tkazgandan so‘ng, ishda ishtirok etayotgan shaxslarning qonining o‘xshash guruh xususiyatlari yoki aralash tabiatini tufayli o‘rganilayotgan obyektlarning kelib chiqishini aniq shaxslardan (gumon qilinuvchilar, jabrlanuvchilar) chiqarib tashlashning iloji bo‘lmagan hollarda tayinlanadi.


–Jinsiy jinoyatlar, qotilliklar, og‘ir tan jarohati yetkazish bilan bog‘liq hollarda, material molekular genetik identifikasiya ekspertizasi uchun sud biologik tadqiqot o’tkazilgandan keyingina ishga qabul qilinadi.

–Istisno hollarda, agar ashyoviy dalillarda biologik kelib chiqishga ega biologik materil miqdori juda kam bo‘lsa va sud biologik ekspertizasi paytida ushbu materialning toliq ishlatilishinioldini olish maqsadida, sud biologik ekspertizasi xulosasisiz ushbu obyektlarda molekular genetik tadqiqotlarni o’tkazish mumkin.

### **Tadqiqot obyektlariga qo‘yiladigan talablar:**

DNKning o‘zgarishi(buzilishi)ni oldini olish uchun molekular genetik tekshiruvni tayinlashdan oldingi davrdagi tadqiqot obyektlari muzlatgichda yoki quritilgan va qadoqlangan holda saqlanadi. Buning ilojisi bo‘lmagan holatlarda, uning yo‘qligida - xona haroratida quruq, salqin xonada, to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nuri va isitish moslamalaridan uzoqda. DNK fermentlarning halokatli ta’siriga juda sezgir, atrof-muhit omillariga (harorat, namlik), bakteriyalar mavjudligiga va begona DNKning ifloslanishiga sezgir bo‘lganligi sababli, molekular genetik tekshiruvni tayinlash mumkin bo‘lgan obyektlar bilan ishlashga ko‘proq e’tibor qaratish lozim.

Biologik otalik (onalik) ehtimollik darajasini hisoblab, qat’iy xulosa berish uchun



Biologik namunalari taqdim qilinishi shart

***O‘zida DNK tutishi mumkin obyektlarni tashqi ko‘rik, olish, daqodlash jarayonlarida kirlanishini oldini olish maqsadida quyidagi qoidalarga rioya etilishi zarur:***

- DNKn o‘zida tutuvchi obyektlarni tashqi ko‘rik, olish, qadoqlash bilan bog‘liq barcha jarayonlar, imkon qadar steril rezina qo‘lqop, steril pinset va skalpelda amalga oshirilishi kerak hamda har bir obyekt uchun ushbu asboblar almashishi zarur;
- faqat toza vositalardan foydalanish, har bir yangi harakatdan oldin ularga steril spirt bilan ishlov berish lozim;
- qadoqlashdan oldin nam holatda bo‘lgan narsa va buyumlar toza xonada xona haroratida quritiladi va bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nuri tegishini oldini olish hamda isitish moslamalaridan uzoqda amalga oshirilishi lozim;
- izlar joylashgan obyektlar butunlay olinishi yoki tashuvchi obyektning bir qismi bilan olinishi zarur;
- DNK ekspertiza obyektlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan joylarga qo‘llar bilan tegmaslik;
- tadqiqot obyektlari bilan ishslashda gapirish, aksirish, narsalar ustida yo‘talish taqiqilanadi;
- Tekshiruv obyektlarini olish va qadoqlashda tanangizning qismlariga (yuz, burun, og‘iz) tegish mumkin emas;
- identifikatsiya materialining yo‘qolishining oldini olish uchun tadqiqot obyektlari toza yangi (ilgari ishlatilmagan) qog‘oz konvertlarga qadoqlangan bo‘lishi kerak. Konvert muhrlangan va tushuntirish yozuvi bilan ta’minlanishi zarur. Obyektlarni polietilen paketlarga qadoqlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

– otalik, onalik, bola almashishi kabi xolatlar bo‘yicha ishlarda solishtirma qon yoki so‘lak namunalari ish tayinlagan idoraning ushbu haqdagi maxsus xujjati asosida, ushbu turdagи namunalarni olishga mo‘ljallangan maxsus xonalar mavjud idoralarda amalga oshirilishi mumkin;

– Nizoli otalik(onalik) xolatlari bo‘yicha tegishli laboratoriya ga tekshirilishi lozim bo‘lgan shaxslarning xozir bo‘lishi har bir tomon uchuchun majburiydir. Tomonlarning biri chet-el davlatlarida bo‘lib, kelishning imkoniyati bo‘lmagan xolatlari hamda qaysidur bir ota-onaning vafot e’tganlik xolati bundan mustasnodir.

– Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olinishida shaxslarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan birga xozir bo‘lishi lozim;

- Ekspertiza tekshiruvi uchun taqdim etilishi lozim bo‘lgan shaxslardan solishtirma namunalar olish jarayoni bayonnomalashtirilishi lozim va ushbu bayonnaoma nusxasi ekspertiza o‘tkazish to‘g‘risidagi xujjat bilan ekspertga taqdim etiladi;
- Ekspertiza tadqiqoti obyektlari qog‘oz paketlarga qadoqlanib, ularning ustida ushbu namunaga tegishli barcha ma’lumotlar keltirilishi lozim(qadoq ichida mavjud ashyo yoki namuna haqida to‘liq ma’lumot, nimaligi, qaerdan yoki kimdan olinganligi, ushbu namunani kim olganligi, jarayonda ishtirok etgan xolislar va kimning nazoratida amalga oshirilganligi). Ma’lumotlarni gelli ruchkalarda amalga oshirishga maqsadga muvofiq emas.

***Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi tadqiqotlari bosqichlari:***

- Ekspertiza tekshiruvi uchun taqdim etilgan obyektlarga aniqlik kiritish, biologik materiallar bor yoki yo‘qligi bo‘yicha birlamchi xulosaga kelish, raqamlash, birlamchi xolatiga zarar yetkazmaslik maqsadida birlamchi tashqi ko‘rik jarayoni;
- Biologik materiallardan DNK molekulalarini ajratish va tozalash jarayoni;
- Ajratib olingen DNKn miqdoriy va sifat tahlili
- DNK molekulalarini maxsus sohalarini sintez qilish va ko‘paytirish jarayoni (amplifikatsiya)
- DNK genotipini aniqlash va programmali solishtirma tahlil qilish jarayoni.

## **9-MAVZU: HUJJATLARNING KRIMINALISTIK EKSPERTIZASI**

### **Sud-xatshunoslik ekspertizasi**

**Sud-xatshunoslik ekspertizasi** – kriminalistik ekspertizalarning eng ko‘p tarqalgan turlaridan biri bo‘lib, jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha obyektiv haqiqatni ochishga imkon beradi. Uning yordamida dastlabki tergov va sud organlari fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha ahamiyatli bo‘lgan shart-sharoitlarni aniqlaydilar. Shuningdek, sud-xatshunosligi bu xatshunoslik ekspertizalarini bajarish masqsadida, dastxatni o‘rganish va uni tadqiqotlari metodikasini yaratish bilan shug‘ullnadigan bilimlar sohasi hisoblanadi.

**Predmeti.** Sud-xatshunoslik ekspertizasining predmeti bo‘lib, jinoyat-protsessual va fuqarolik-protsessual qonunchilikka mos holda, jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha isbotlov ahamiyatiga ega bo‘lgan faktlarni (holat) aniqlash maqsadida, sud-xatshunosligida mavjud bo‘lgan tadqiqot metodlarini qo‘llash orqali identifikatsion, diagnostik va situatsion vazifalarni bajarishdir.

**Obyektlari.** Xatshunoslik ekspertizasining tekshiruv obyektlari hujjatdagi qo‘lyozma matnlari: harfli, raqamli, shartli belgilar – shifrovka, imzo shaklidagi vozuvlardir.

**Vazifalari.** Tergov-sud amaliyoti ehtiyojlariga (ekspertizaga hal etish uchun qo‘yilgan savollarga) mos holda, sud-xatshunoslik ekspertizasi uslubiyatlarini qo‘llash talab etiladigan holatlarni aniqlashdir.

#### ***Sud-xatshunos ekspert tadqiqot jarayonida hal qiladigan savollar***

- shubhali qo‘lyozmani tekshirilayotgan shaxslarning qaysi biri bajarganligi
- tekshirilayotgan qo‘lyozmalardan qaysi birini shubhali shaxs bajarganligi
- shubhali qo‘lyozmani bir shaxs bajarganmi yoki turli shaxslarmi
- qo‘lyozma odatdagи yoki g‘ayriodatiy holatda bajarilgan. Agar odatiy bo‘lmasa, unda qaysi holatda
- qo‘lyozma ataylab o‘zgartirilgan yozuv bilan bajarilganligi.

- qo‘lyozma jismoniy toliqqan, ruhiy hayajon, og‘ir kasallik yoki alkogol iste’mol qilgan holatda bajarilganligi
- shubhali qo‘lyozma biror-bir shaxsning yozuviga o‘xshatib bajarilganligi
- qo‘lyozmani erkak yoki ayol bajarganligi.

### **Sud-xatshunoslik ekspertizasi obyektlari sifatida yozuv namunalarini quyidagilarga bo‘linadi:**

Eksperimental namunalar - taxmin qilinayotgan ijrochi tomonidan ekspertiza tadqiqotlari uchun maxsus bajarilgan yozuvlar (qo‘lyozma matnlar)

Erkin namunalar - taxmin qilinayotgan ijrochi tomonidan jinoyat sodir etilgunga qadar va ushbu jinoyat hodisasiga bog‘liq bo‘lmagan holda bajarilgan qo‘lyozmalar. Bu kabi yozuvlarga ishga qabul qilish haqidagi ariza, tushuntirish xatlari, kadrlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaqadagi yozuvlar, shaxsiy yozishmalar va shu kabilar

Shartli-erkin namunalar - maxsus ekspertiza tadqiqotlari uchun emas, ammo jinoyat ishi qo‘zg‘atilganidan so‘ng bajarilgan yozuv (qo‘lyozma matn), masalan, jinoyat ishi bo‘yicha tushuntirish xatlari, o‘z qo‘li bilan yozilgan ko‘rsatmalar va boshqa hujjatlar

### **Hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi**

Hujjat – ashyoviy dalil sifatida juda ko‘p hollarda, jinoyat prosessi ishtirokchilari tomonidan yaxshi idrok qilinmaydigan va ularni baholash uchun maxsus bilimlar talab etiladigan belgilarning tashuvchilari hisoblanadi. Hujjatlarni qalbakilashtirish bilan bog‘liq jinoyat ishlari bo‘yicha, bu kabi maxsus bilimlardan foydalanishning asosiy protsessual shakli – bu hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasidir.

**Predmeti:** Hujjatning mazmuni yoki bajarish sharoitlarini aniqlash maqsadida, maxsus usul va vositalar yordamida uning xususiyatlarini o‘rganish.

**Obyektlari:** Qo‘lyozma matnlari, bosma shakldagi materiallar (poligrafik usulda tayyorlangan hujjatlar, muhr va shtamp akslari, mashinka yoki printerda bajarilgan matnlari, telegraf, kassa va boshqa bosma qurilmalarda tayyorlangan matnlari), yelimlangan rekvizitlar (fotosuratlar, markalar, yorliqlar), komposter apparati belgilari, yongan va yirtilgan hujjatlar, hujjatlarni tayyorlash yoki ularga o‘zgartirish kiritishda foydalilanigan texnik vositalar.

## **Hujjatlar rekvizitlarining texnik-kriminalistik taddiqotlarining vazifalari**

hujjat rekvizitlarining bajarish usulini aniqlash  
hujjat rekviziti bajarilish vaqtini aniqlash  
hujjat rekvizitining o‘zgartirish holati va usulini aniqlash  
hujjatning yaxshi ko‘rinmaydigan va ko‘rinmaydigan rekvizitlarini aniqlash  
hujjat rekvizitlarini tayyorlashda ishlatilgan texnik vositalarni identifikasiya qilish.

## **Qo‘lyozma matnlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi quyidagilarni aniqlash maqsadida o‘tkaziladi**

yozuvlarni bajarish usulini (bevosita yozuv qurilmasi yoki nusxa ko‘chiruvchi-ko‘paytiruvchi texnika yordamida);  
yozuv qurilmasining turini;  
yozuvlarni bajarishda hujjat joylashgan podlojkaning xususiyatlarini;  
imzo yoki qo‘lyozma matnni bajarishda oldindan texnik tayyorgarlik ko‘rilganlik holati, imzolarni texnik nusxalash holatini;  
qo‘lyozma matnga shtrixlarni qo‘sib yozish orqali o‘zgartirish kiritilganlik holatini;  
hujjatdagi dastlabki yozuvlarni yemirish (yuvish) yo‘li bilan o‘zgartirilganlik holatini;  
o‘zaro kesishuvchi shtrixlarning bajarilish ketma-ketligini;  
yozuv qurilmasining shtrixlar bo‘yicha identifikasiya qilish;  
yemirish yo‘li bilan o‘chirilgan yozuvlarni (shtrix);  
o‘chirish (tozalash), ustidan yelimlangan yozuvlarni (shtrix);  
ustidan suyuqlik to‘kilgan, usidan chizib tashlangan yozuvlar;  
bosilgan yozuvlarni;  
qog‘ozning yirtib (kesib, bo‘lib) tashlangan parchalaridagi yozuvlarni;  
nusxa ko‘chiruvchi qog‘ozdagi yozuvlarni;  
rangsizlantirilgan yozuvlarni;

## **Hujjatlar materiallarining ekspertizasi tadqiqotlarining vazifalari**

yozuv materialining (shtrixli, maxsus idishlardagi) turi,  
mo‘ljallangan maqsadini aniqlash  
texnik vositaning turini shtrixlar bo‘yicha aniqlash  
yozuv materiallarining standart yoki nostandart mahsulotga mansub  
ligini aniqlash  
yozuv materiallari mahsulotlarining ishlab chiqilgan  
joyini (O‘zbekiston yoki xorij) aniqlash  
shtrixli yozuv materiali mahsulotlarining, tayyorlash,  
saqlash va foydalanish usullariga ko‘ra ajratilgan yagona  
majmuaga mansubligini aniqlash  
shtrixli yozuv materiali mahsulotining aniq bir maxsus  
idishga (ampula, flakon) tegishlilagini aniqlash  
yozuv materialining alohida ajratib olingan miqdorini  
identifikatsiya qilish  
shtrixli yozuv materialiga ta’sir ko‘rsatish  
(issiqlik, kimyoviy) holatini aniqlash  
shtrixli qo‘lyozma matnlar, bosma shakllar akslarining bajarilish va

## **Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ekspertizasining vazifalari**

o‘z tuzilishini yo‘qotgan moddiy hosilalarining qog‘ozga tegishliligi  
qog‘ozning mo‘ljallangan maqsadini (turi, sinfi) aniqlash;  
qog‘oz parchasining muayyan turdagи mahsulotga tegishlilagini aniqlash;  
qog‘ozning standart yoki nostandart O‘zbekistonda yoki xorijda ishlab  
chiqarilgan mahsulotga tegishlilagini aniqlash;  
qog‘ozni ishlab chiqargan korxonani aniqlash;  
qog‘ozning yagona ishlab chiqarish manbaiga tegishlilagini aniqlash;  
qog‘ozning saqlash va foydalanish xususiyatlariga ko‘ra yagona hajmga  
tegishlilagini aniqlash.

## **10-MAVZU: SUD-FILOLOGIYA (MUALLIFSHUNOSLIK) EKSPERTIZASI**

Sud-filologiya (muallifshunoslik) ekspertizasi – kriminalistik ekspertizalar turiga kirib, uning predmeti, matn muallifi va shaxsiyatini aniqlash bilan bog‘liq jarayon tashkil etadi. Bunda ijrochisi yoki bajaruvchisi ko‘rsatilmagan anonim xatlar, muallifi va bajaruvchisi turli xil (misol uchun, matn ayтиб turib yoki ko‘chirib bajarilgan, bosmaxona usulida, yozuv mashinkasida bajarilgan) hujjatlar mualliflarini aniqlash ham kiradi.

**Predmeti:** Yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlari, tadqiqotlarning vazifikasi esa, muayyan matnning muallifini yoki yozma nutqda namoyon bo‘ladigan ayrim belgilarini (bilim-madaniyati darajasi, kasbi, yoshi va jinsi, tilining (shevasi) o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qayerdanligi va shu kabilar) aniqlash hisoblanadi.

**Obyektlari:** Turli (qo‘lyozma, tipografik) usulda bajarilgan matnlar hisoblanadi.

***Sud-filologiya (muallifshunoslik) ekspertizasida hal etiladigan savollar***  
tadqiqotga taqdim etilgan matnning muallifi ushbu shaxs hisoblanadimi?  
tadqiqotga taqdim etilgan matndagi yozma nutq belgilariga ko‘ra, ushbu matn muallifi qanday o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi?

**Ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda (ajrim) quyidagilar ko‘rsatib  
o‘tilishi zarur**

sud-filologiya (muallifshunoslik) ekspertizasini o‘tkazishga  
zaruratning sabablari

hujjat, ashyoviy dalilning qaerda va qanday holatda topilganligi,  
ishning qisqacha tafsiloti. Agarda jinoyat ish bo‘lsa, jinoyatning turi,  
fuqarolik ishi bo‘lsa, qo‘zg‘atilishi sabablari

tadqiqot uchun qanday hujjat yoki uning nusxalari taqdim  
etilayotganligi. Tadqiqot etiluvchi matnning boshlanish va tugash so‘zlari  
ko‘rsatilishi

agarda tadqiqotga matning bir qismi tegishli bo‘lsa, tadqiqot uchun  
matn butunligicha emas faqat aynan o‘sha qismi tegishligi ko‘rsatiladi  
ekspertiza uchun yozma nutqning qanday namunalari taqdim

## 11-MAVZU: SUD-SIYOSATSHUNOSLIK-LINGVISTIK EKSPERTIZASI

*Sud-siyosatshunoslik-lingvistik ekspertizasi* – bu natijasi tegishli savollarni hal qilishda maxsus bilimlarni qo'llash talab etiladigan ekspert xulosasi berilishi bilan yakunlanadigan, protsessual jihatdan tartibga solingan, og'zaki va (yoki) yozma nutqning ekspertizaga oid siyosatshunoslik-lingvistik tadqiqotdir.

*Sud-siyosatshunoslik lingvistik ekspertizasining predmeti* - aniq bir ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holat va sharoitlarni, siyosatshunoslik-lingvistika sohasi bo'yicha maxsus bilimlarni qo'llagan holda aniqlash

*Sud-siyosatshunoslik lingvistik ekspertizasining obyekti* - ixtiyoriy moddiy axborot tashuvchida qayd etilgan til va nutq birligi, og'zaki, yozma, elektron matnlar hisoblanadi

**OAV tomonidan bahsli matnlar tarqatilishi bo'yicha ishlarni ko'rishda tayinlangan sud-siyosatshunoslik-lingvistik ekspertizaga beriladigan tipik savollar:**

- taqdim etilgan matnda, muayyan millat, konfessiya yoki ijtimoiy guruhga tegishli (qaratilgan) nisbatan, boshqa ijtimoiy guruhlarga nisbatan salbiy baholash mavjud bo'lgan so'zlar, fikr va mulohazalar mavjudmi?
- matnda, alohida vakillarga emas, balki butun etnik guruhga qaratilgan keskin, salbiy baho yoki adovat yoki g'ayirlikni ifodalovchi fikr va mulohazalar mavjudmi. Agar mavjud bo'lsa, ular qanday shaklda bayon qilingan: tasdiqlash, fikr, hissiy (emotsional)-ta'sirchan (ekspressiv) baho, sub'ektiv baholovchi fikr va h.k.?
- muayyan millat, konfessiya yoki ijtimoiy guruhga tegishli (qaratilgan) nisbatan salbiy baholash mavjud bo'lgan so'zlar, fikr va mulohazalarning muallifi tahririyat bo'lishi mumkinki yoki salbiy baho berilgan izohlar sitata, respondentlarning shaxsiy fikri, kommentator, korrespondent yoki rasmiy shaxslarning shaxsiy fikri ko'rinishida berilganmi?

- matnda, birorta millat yoki ijtimoiy guruh fuqarosining, boshqa millatlarga qaraganda salbiyligini (zaifligi, pastligi, axloqsizligi va h.k.) targ‘ibot qiluvchi fikrlar mavjudmi?
- matnda, muayyan bir millatga nisbatan dushmanlik yoki adovatli harakatlarni amalga oshirishga undovchi (chorlovchi, chaqiruvchi) fikrlar mavjudmi?
- matnda, birorta millat, etnik va ijtimoiy guruhga tegishli shaxslarga nisbatan kamsituvchi yoki xo‘rlovchi fikrlar mavjudmi?
- matnda, bir ijtimoiy guruh hisobiga boshqa ijtimoiy guruh foydasiga harakat qilishga undovchi shakldagi so‘z yoki fikrlar mavjudmi?
- audioda, o‘zbek tili nuqtai nazaridan, birorta etnik guruhning barcha a’zolariga o‘zbek madaniyati va urf-odatlarida salbiy baholangan qadimiy odatlar, e’tiqodlar, harakatlarga amal qilishga undovchi chaqiriqlarga ega fikrlar mavjudmi?
- audioda, bir millatni ustunligi va boshqa bir millatni zaifligi yoki salbiylici haqida tasdiqlash shaklidagi fikrlar mavjudmi?
- audioda, alohida vakillarning qilmishlari uchun butun etnik guruhni javobgarlikka tortishni tasdiqlovchi fikrlar mavjudmi?
- rasmda, muayyan bir millat yoki ijtimoiy guruhni boshqa bir millat yoki ijtimoiy guruhga qarshi nizo, ixtilof yoki dushmanlik qilishga chaqiruvchi qarashlar mavjudmi?
- rasmda, muayyan bir millatning oldindan (ilgaridan, eskidan, avvaldan) dushmanligi haqidagi ifodalar mavjudmi?
- rasmda muayyan bir millat yoki ijtimoiy guruhning manfaatlarini boshqa bir millat yoki ijtimoiy guruhga nisbatan mos emasligi, ularning sinfiy qarama-qarshiligi haqidagi ifodalar mavjudmi?
- skrinshotda, muayyan bir ijtimoiy, etnik yoki konfessional guruhning ilgari (o‘tgan zamondagi), hozirgi kundagi va kelajakdagi kulfatlari (g‘am-tashvishlari, yomon kunlari va h.k.) boshqa bir millat, elat, etnik yoki konfessional guruhning mavjudligi hamda maqsadli faoliyati (harakatlari) bilan izohlangan fikrlar mavjudmi?
- skrinshotda, muayyan bir millatning nizoli yoki dushmanlik kayfiyatidagi maqsadi, intilishi va harakatlari haqidagi fikrlar mavjudmi?
- skrinshotda, genotsid, muayyan bir ijtimoiy, etnik yoki konfessional guruhni deportatsiya yoki repressiya qilishni oqlovchi (maqtovchi), ijobiy baholovchi fikrlar mavjudmi?

## Sud-lingvistika ekspertizasi

**Sud lingvistika ekspertizasi** – bu natijasi tegishli savollarni hal qilishda maxsus bilimlarni qo'llash talab etiladigan ekspert xulosasi berilishi bilan yakunlanadigan, protsessual jihatdan tartibda solingan, og'zaki va (yoki) yozma nutqning ekspertizaga oid lingvistik tadqiqotlaridir

Sud-lingvistik ekspertizasining vazifalarini bajarish uchun lingvistik tahlilning quyidagi turlari qo'llaniladi

### Leksik-semantik tahlil

ekstremizm va uning boshqa turlarini o'zbek tili grammatisasi bilan ifodalangan so'z va iboralarning leksik ma'nosini aniqlash maqsadida o'tkaziladi

### Semantik-stilistik va lingvostilistik tahlil

matnda ekstremizm va uning boshqa ko'rinishlariga oid nomlarni, ularda mavjud bo'lgan baholovchi (ijobiy yoki salbiy) fikrlarning modalligi va belgilariga tegishli bo'lgan hamda o'zbek tili leksikasidan foydalаниlib bajarilgan baholovchi fikr va mulohazalarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi

## 12-MAVZU: SUD-AVTOTEXNIKA EKSPERTIZASI

Respublikamizda avtomobilashtirish jarayoni tez rivojlanayotgani yo‘l harakat xavfsizligini ta’minlash masalasini dolzarb qilmoqda. Bu masalani hal qilishda huquqiy mexanizmlar sezilarli o‘rin egallaydi. Yo‘l-transport hodisalari (YTH) holatlarini belgilashda maxsus bilimlardan samarali foydalanish alohida ahamiyatlidir. Shuning uchun sud avtotexnika ekspertizalar ish holatlarini belgilash va odil sudlovni amalga oshirishda muhim dalil vositasi hisoblanadi.

### Yo‘l-transport hodisasi mexanizmini matematik uslublar bilan tadqiq etish ekspertizasi

*Yo‘l-transport hodisasi mexanizmini matematik uslublar bilan tadqiq etish ekspertizasi predmeti:* yo‘l transport hodisasining faktik (haqiqiy) holatlari.

#### *Obyektlari:*

- yo‘l-transport hodisasi ishtirokchisi bo‘lgan avtotransport, elektrotransport, traktor va boshqa o‘ziyurar mexanizmlar (moslamalar);
- yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan yo‘l, dala, hovli, shuningdek transport harakatlanadigan boshqa joylar;
- yo‘l-transport hodisasi bilan bog‘liq bo‘lgan ashyoviy dalillar va jinoiy ish hujatlari (materiallari).

*Yo‘l-transport hodisasi mexanizmini matematik uslublar bilan tadqiq etish ekspertizasi quyidagi turli masalalarni hal etadi:*

- ✓ transport vositalarining harakat tezliklarini aniqlash.
- ✓ transport vositasini to‘xtatish va tormozlanish masofalarini.
- ✓ yo‘l-transport hodisasining turli vaqtarda transport vositalarining o‘zaro yaqinlashib kelish holatlarini aniqlash.
- ✓ haydovchining yo‘l-transport hodisasini bartaraf etish uchun oxirgi imkoniyati qolgan vaqtida transport vositasi bilan hodisaning ikkinchi ishtirokchisini o‘zaro (masofa bilan ifodalanuvchi) holatlari qanday bo‘lganligini aniqlash.
- ✓ yo‘l-transport hodisasini qayd etgan video yozuvlardan uning ishtirokchilari joylashuvi va harakatining parametrlarini aniqlash.
- ✓ yo‘l-transport hodisasini qayd etgan video yozuvlardan uning . . . . .

## **Transport vositalarining texnik holati ekspertizasi**

***Transport vositalarining texnik holati ekspertizasi predmeti*** bo‘lib yo‘l transport hodisasida ishtirok etgan transport vositasining texnik holati to‘g‘risidagi faktik ma’lumotlar tashkil qiladi.

Yo‘l-transport hodisasida ishtirok etgan transport vositalarining texnik holati aniqlanishi lozim bo‘lgan asosiy qismlari – bu ularning harakat xavfsizligiga ta’sir qiluvchi: tormoz tizimi, rul boshqaruvi, harakat qismi va yoritish tizimidir.

### **Vazifalari:**

- transport vositasi va uning alohida qismlarini (tormoz tizimi, rul boshqaruvi, yurish qismi, yoritish tizimi va h.k.) texnik holatini aniqlash (soz yoki nosoz);
- transport vositasining texnik nosozliklarini hosil bo‘lish sabablarini aniqlash;
- transport vositasining texnikaviy nosozliklari yo‘l-transport hodisasiga nisbatan paydo bo‘lgan vaqtini aniqlash;
- transport vositasining turini va ishlab chiqarilgan yilini aniqlash;
- transport vositasining VIN kodini tadqiq etish (ya’ni transport vosita to‘g‘risida unga ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan biriktirilgan VIN-raqamdan batafsil ma’lumot olish (ishlab chiqarilgan mamlakat, yili, jihozlanishi va h.k);
- transport vositalari dvigatellarining hajmini aniqlash;
- transport vositasining tusi o‘zgartiganlik darajasini (tonirovka) aniqlash;
- transport vositalarning bosib o‘tgan masofasini aniqlash;
- aniqlangan nosozlik hamda kelib chiqqan hodisa o‘rtasida sababiy bog‘lanish bor yoki yo‘qligini aniqlash;
- transport vositalardagi nosozlik yo‘lga chiqishdan oldin mavjud bo‘lganligini aniqlash.

## **Transport vositasi va yo‘l transport hodisasi joyidagi izlarni (transport-trasologik) ekspertizasi**

Transport vositalarining tekshirilayotgan hodisaga tegishliligi va hodisaning umumiy mexanizmini tadqiq qilish sud transport-trasologik ekspertizasining mavzusidir.

Sud transport-trasologik ekspertizasi *obyektlariga* transport vositalaridagi jarohatlar, jinoiy ish materiallari (hodisa bo‘yicha tuzilgan birlamchi hujjatlar, ayrim hollarda voqeа joyi hamda transport vositalarining suratlari) kiradi.

### **Vazifalari:**

- Transport vositalaridagi shikastlanishlarni hosil bo‘lish mexanizmini aniqlash;
- Qaysi transport vositasi o‘z yo‘nalishini o‘zgartirganligini aniqlash
- Transport vositalari dastlab va keyinchalik qaysi qismlari bilan to‘qnashganini belgilash (birlamchi to‘qnashuv, ikkilamchi to‘qnashuv)  
To‘qnashuv vaqtida transport vositalari harakatda bo‘lgani yoki ularning bittasi to‘xtab turganini bo‘lganini aniqlash
- To‘qnashuv vaqtida transport vositalari bir-biriga nisbatan qanday holatda va qanday burchak ostida bo‘lganini aniqlash;  
To‘qnashuv vaqtida transport vositalari yo‘l o‘qiga nisbatan qanday burchak ostida bo‘lganini aniqlas
- To‘qnashuv joyi yo‘l qatnov qismining qaerida va qatnov qismining qaysi tomonida bo‘lganligini aniqlash.

## **Transport-baholash ekspertizasi**

Ushbu ekspertizani o‘tkazish orqali yo‘l transport yoki boshqa hodisa natijasida avto-moto transport vositalariga yetkazilgan moddiy zarar, ularni ta’mirlashga sarflanadigan mablag‘ miqdorini yoki avto-moto transport vositalarining narxini aniqlash kabi asosiy masalalar yechiladi.

Avto-moto transport vositalarini baholash ekspertizasining predmetiga quyidagilar kiradi:

Avto-moto transport vositalari va ehtiyot qismlarning rusumi, modeli, turi (vazifasi)

Avto-moto transport vositalari va ehtiyot qismlarning ishlab chiqilgan vaqtini

Avto-moto transport vositalari va ehtiyot qismlarning umumiy texnik holati hamda ishga yaroqliligi.

Avto-moto transport vositalari va ehtiyot qismlarning shikastlanishlari, nuqsonlari, nosozliklari.

### ***Obyektlari:***

- ✓ Avto-moto transport vositalari butunligicha murakkab mahsulot sifatida
- ✓ Avto-moto transport vositalarining agregatlari, birikmalari va detallari
- ✓ Transport vositaning ishlab chiqaruvchi vakolatxonalarini, avto-moto transport vositalari va ularning ehtiyot qismlari sotiladigan ixtisoslashgan bozorlar va ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hamda avto-moto transport vositalarini ta’mirlash korxonalarini tomonidan taqdim etilgan ma’lumotla
- ✓ Tadqiqotlar o‘tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlar.

### **Vazifalari:**

- avto-moto transport vositalari va uskunalarini identifikatsiya qilish, agar buning uchun boshqa turdagи ekspertizalarni o'tkazish talab qilinmasa;
- avto-moto transport vositalarining texnik holati va shikastlanishlari mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni tekshirish, agar buning uchun boshqa turdagи ekspertizalarni o'tkazish talab qilinmasa
- avto-moto transport vositalaridagi qayta bo'yagan yoki bo'yalmaganligini aniqlash, elektron boshqaruv tizimini tadqiqot qilish, bosib o'tgan masofasini aniqlash
- avto-moto vositalarini ta'mirlash ishlaringning qiymatini aniqlash
- avto-moto transport vositalarining tovar qiymatini yo'qotish miqdorini aniqlash
- avto-moto transport vositalarga yetkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlash
- avto-mototransport vositalarining qiymatini aniqlash
- avto-moto transportlari ehtiyyot qismlarining qiymatini aniqlash
- avto-moto transport vositalarining eskirish qiymatini aniqlash
- avto-moto transport vositasiga yetkazilgan moddiy zararni aniqlash bo'yicha tuzilgan hisobotda (kalkulyatsiya) qo'llanilgan uslublar «Yagona milliy baholash standarti» va Metodik qo'llanmalar talablariga javob beradimi va ilmiy asoslantirilganligini aniqlash.

## Sud-avtomobil yo'llar ekspertizasi

Yo'l-transport hodisalarini kelib chiqishiga yo'l sharoitini ta'sir etuvchi omillarini o'rganish va aniqlash – avtomobil yo'l ekspertizasi mavzusidir.

*Avtomobil-yo'llar ekspertizasi obyektlari:*

- yo'l qoplamasi
- yo'l belgilari
- yo'l dagi qurilmalar
- to'siqlar
- Yo'l bo'yicha me'yoriy hujjatlar: Standartlar, ShNQ, MQN, IQN.

### *Vazifalari:*

- yo'lning soz yoki nosozligi, yo'lning holati mavjud me'yoriy hujjatlarga mos kelish yoki kelmasligini aniqlash;
- yo'l belgilarining me'yorlarga mos o'rnatilganligi aniqlash;
- yo'l dagi mavjud qurilmalarni joylashganligini yo'l harakat xavfsizligi qoidalariga mos kelishini aniqlash;
- voqeа sodir etilgan joyda yo'lning qatnov qismi sozligi;
- voqeа sodir etilgan joyda yo'lning qatnov qismida nosozliklar bormi, agar bo'lsa ular normativ hujjatlardagi me'yorlarga mosmi?
- yo'l belgilari qo'yilishi voqeа sodir etilgan joyda to'g'ri tashkil etilganmi?
- aniqlangan yo'lning nosozligi qaysi normativ hujjatlarning (QMQ, standart) qaysi talablariga mos kelmasligini aniqlash.

### **13-MAVZU: YONG‘IN-TEXNIK EKSPERTIZASI**

#### **Sud-yong‘in texnikaviy ekspertizasi**

Yong‘inlarning asoratlari nafaqat moddiy jihatdan insonlarga zarar yetkazishi, balki qanchadan qancha insonlarning bevaqt dunyodan ko‘z yumishiga sabab bo‘layotganligini ko‘rsatmoqda. Shu bois, yong‘in hodisalarini tekshirish, ular bilan bog‘liq qoidabuzarlik va jinoyatlarni tekshirishda, ushbu hodisa bilan bevosita shug‘ullanuvchi ekspert, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudyalardan chuqr bilim va ma’suliyat talab qilinadi.

Sud yong‘in-texnikaviy ekspertizasi muxandislik-texnikaviy ekspertizalari orasida, kriminalistik ekspertizalarga yaqin turi hisoblanadi. Buni, izshunoslik ekspertizasi bilan taqqoslasak, izshunoslik ekspertizasi tadqiqotlarida hodisa joyida jinoyatchi tomonidan qoldirilgan barmoq izlari, transport vositalari protektorining izlari tadqiqot qilinsa, yong‘in-texnikaviy ekspertizasi tadqiqotlarida yong‘in joyida yong‘inning izlari, olovning ta’sir izlarini o‘rganish orqali yong‘inning boshlangan joyi, kelib chiqish sababi mexanizmini tiklash mumkin bo‘ladi.

#### ***Sud yong‘in-texnikaviy ekspertizasining tadqiqot obyektlari:***

- Binolar va qurilmalarning kuygan holatdagi yonadigan va qiyin yonadigan qismlari;
- Buyumlarning yong‘indan keyin qolgan qoldiqlari, elektr asbob-uskunalari, elektr simlari, har-xil texnik qurilmalar;
- Texnologik jihozlar, isitish asboblari, yonuvchi va yengil alanganuvchi;
- suyuqliklarning izlari bor bo‘lgan yong‘in qoldiqlari.

#### ***Sud-yong‘in texnikaviy ekspertizasida quyidagi savollar hal qilinishi mumkin***

- Yong‘inning markazi (o‘chog‘i) aniqlansin, yong‘in tarqalish yo‘nalishi aniqlansin.
- Taqdim etilgan voqeа joyidan olingan elektr simlarining ulanishida nosozliklar mavjudmi?
- Tutab yongan tamaki mahsuloti cho‘g‘i qoldig‘ining issiqlik quvvati hodisa

- Voqea sodir etilgan joyidagi yonuvchi materiallarni yondirishga yetarlimi yoki yo‘qmi?
- Taqdim etilgan omborxona ichidan olingan moddaning (suyuqlikning) alangalanish harorati aniqlansin?
- Taqdim etilgan voqea joyidan olingan elektr simlarida qisqa tutashuv alomatlari mavjudmi?
- Paxta tolasi yong‘in ro‘y berishi oldida bo‘lgan shart-sharoitlarda o‘zidan-o‘zi (yong‘in manbaisiz) yonib ketishi mumkinmi?
- Temir chelak sisternaga ishqalanishi natijasida uchqun paydo bo‘ladimi? Agar paydo bo‘lsa, ushbu uchqun yong‘in chiqishiga sabab bo‘lishi mumkinmi?
- Qora (oq, kulrang) rangli tutun qanday moddalar yonish natijasida hosil bo‘ladi?
- Yong‘in neft mahsulotlaridan chiqqanmi?
- Yong‘inning bevosita kelib chiqish sababi aniqlansin?
- Ushbu yong‘inning sababchisi bir dona gugurt cho‘pi alangasi bo‘lishi mumkinmi?
- Elektr simlarida qisqa tutashuv alomatlari bo‘lsa, yong‘inning kelib chiqishiga sabab bo‘lganmi?

## Sud elektrotexnikaviy ekspertizasi

Sud elektrotexnikaviy ekspertizasi elektr uskuna, elektr jihozlar, elektr moslamalar, elektr o'tkazgichlardi turli avariya holatlar (nosozliklar)ni aniqlash, ularning sodir bo'lishi sabablarini o'rganish maqsadida o'tkaziladi. Ushbu tur ekspertiza elektr uskuna va asboblarning ishdan chiqish mexanizmini tiklash ya'ni uning texnik nosozligi, ishlab chiqarishda yo'l qo'yilgan kamchilik, elektr uskuna va moslamalarning sifatsizligi, ishlatilgan detallarning nuqsonini aniqlash yoki ekspluatatsiyaning noto'g'ri qilinganligini o'rganish kabi masalalarni yechish maqsadida tayinlanadi.

### Sud elektrotexnikaviy ekspertizasidagi hal etiladigan masalalar

- ✓ Elektr jihozidagi nosozlik, uning noto'g'ri ekspluatatsiya qilinishi natijasida yoki boshqa sabablarga ko'ra vujudga kelganmi?
- ✓ Taqdim etilgan elektr simlarining ulanishida nosozliklar mavjudmi, ulanishi, yuqori o'tuvchi qarshilikni keltirib chiqarishi mumkinmi?
- ✓ Taqdim etilgan elektr simlarida qisqa tutashuv alomatlari mavjudmi, elektr simining qarshiligi ishlatilayotgan elektr toki quvvatiga mos keladimi?
- ✓ Elektr uskuna, jihoz, moslamalar (muzlatgich, konditsioner, elektr isitish moslamasi)da nosozlik mavjudmi? Agar bo'lsa, qanday nosozlik?
- ✓ Elektr himoyasi qurilmasi elektr jihozning avariya holatida ishlaganmi, agar ishlagagan bo'lsa, buning sababi nimada?
- ✓ Elektr himoyasi qurilmasining saqlagichining (predoxranitel) buzilishi sabablari nimada?
- ✓ Taqdim etilgan elektr rozetka ortiqcha yuklamada ishlaganmi?
- ✓ Ushbu elektr asbob-uskunalar, jihozlar, mexanizmlar, apparatlar soz holattami? Agar soz bo'lsa, ular tegishli ekspluatatsion operatsiyalarni bajarish uchun yaroqlimi?
- ✓ Asbob-uskunalar, jihozlar, mexanizmlar, apparatlarning texnik holati qanday?

## **14-MAVZU: SUD-QURILISH-TEXNIK EKSPERTIZASI**

### **Sud-qurilish-texnik ekspertizasi**

Sud-qurilish-texnik ekspertizasi muhandis-texnikaviy ekspertiza turlaridan biri hisoblanadi.

Loyihalash, qurilish, bino va inshootlardan foydalanish, baholash bo'yicha bilimlar ushbu ekspertiza ilmiy asoslarining poydevorini tashkil qiladi.

Sud-qurilish-texnik ekspertizasi predmetini ish bo'yicha faktik ma'lumotlarni aniqlashga qaratilgan texnik masalalar tashkil qiladi.

#### **Obyektlari:**

Binolarni loyihalashtirish, qurilish va ekspluatatsiya bo'yicha loyiha-smetalari va ishlab chiqarish-texnikaviy hujjatlari;

Turar joy, jamoat va ishlab chiqarishga mo'ljallangan bino va inshootlarning kadastr hujjatlari;

Muhandislik tarmoqlari hamda shu bino va qurilmalarning o'zi.

#### **Sud-qurilish-texnik ekspertizaga qo'yiladigan savollar**

- Turar joy, jamoat va ishlab chiqarishga mo'ljallangan bino (bino qismlari) va inshootlarni me'yoriy hujjatlar asosida hisob usuli bilan bozor narxini aniqlash;
- Yer maydonlarini yerdan foydalanish huquqini qiymatini baholash
- Baholovchi tashkilotlar tomonidan ko'chmas mulk obyektlarini baholash yuzasidan tuzilgan hisobotlarini Mulkni baholashning yagona milliy standartlariga va O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlariga mos kelish yoki kelmasligi;
- Ko'chmas mulk obyektlarini baholash bo'yicha tuzilgan baholash hisobotlarini ilmiy asoslilagini tekshirish.

#### **Sud-qurilish-texnik ekspertizaga qo'yiladigan savollar (davomi)**

- Ta'mirlash-qurilish va qurilish ishlari smeta hujjatlarining asosli yoki asossizligini aniqlash:
  - Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan ish hajmiga sarflanadigan qurilish materiallar miqdori asosli ko'rsatilganmi?
  - Nizoli xonadonga yuqorida joylashgan xonadondan suv toshirishdan keyin ta'mirlash ishlarining smetasi asoslanganligi aniqlansin.

- Nizoli xonadonni ulushlar bo'yicha bo'lish mumkinmi?
- Turar joy, jamoat va ishlab chiqarishga mo'ljallangan binolarning (konstruksiya yoki elementlarining) Qurilish, Shaharsozlik me'yorlari va qoidalari, Texnikaviy ekspluatatsiya me'yorlari, qoidalari talablariga javob berish yoki bermasligini aniqlash
  - Nizoli turar joy (noturar joy) bino va inshootlari qurilish qoida va me'yorlariga, ShNK-KMK talablariga javob beradimi?
  - Qurilgan yoki qayta qurilgan binoni (inshootni), bajarilgan qurilish, ta'mirlash yoki qayta qurish ishlarini loyihaga to'g'ri kelishkelmasligi aniqlash
  - Qurilgan yoki qayta qurilgan bino (inshootni) loyihaga to'g'ri keladimi?
  - Bajarilgan qurilish, ta'mirlash yoki qayta qurish ishlarini bajarishda loyihaga rioya qilinganmi?
  - Ko'p qavatli binolarda xonadonlarni qayta ta'mirlash va loyihalashtirish ShNK talablariga mosligini aniqlash:
    - Avariya holatlari sabablari bo'yicha – binolarni cho'kishi, namlanishi, ishlarni noto'g'ri bajarilishi oqibatida bino va inshootlarni qulashi, suv toshish, pardozlash ishlarining shikastlanishi, hamda ish jarayonida baxtsiz hodisalarining sababbrini aniqlash, ko'p qavatli uylardagi xonadonlarga suv toshishlarining texnik sabablari aniqlash.
    - Qurilishdagi falokatlarni (binoning qulashi, baxtsiz hodisa) texnik sabablari aniqlansin, nizoli xonadonga suv toshishi sabablari aniqlansin?
    - Qurilishda mansabdor shaxslar tomonidan talon-tarajlikka yo'l qo'yilishining sabablari va sharoitlarining kelib chiqishi hamda bino va ishootlarning texnik holatiga ta'sir qiluvchi avariya holatlari aniqlash.

## Sud-yer ekspertizasi tadqiqotlari

Sud-yer ekspertizasi – muhandislik-texnikaviy ekspertizasining ko‘rinishlaridan biridir.

Sud-yer ekspertizasi predmetini yer maydonlari chegaralari va ulardan foydalanish tartibi bilan bog‘liq faktlar tashkil qiladi.

Ushbu ekspertizani o‘tkazish jarayonida quyidagi ma’lumotlardan foydalaniladi:

- yer maydonlarining rejaviy shakllari, bino, qurilmalar va muhandislik yer osti va yer usti kommunikatsiyalarning ularda joylashishi, ko‘chadan tashqi kommunikatsiyalarni yer maydoniga olib kirilishi, hududlarni obodonlashtirilish, yer maydonidan kirish-chiqish yo‘laklarini joylashishi va o‘lchovlari;
- yer maydonlarini o‘zgartirish imkoniyatlari (bo‘lish, foydalanish).

### **Obyektlari:**

- Yer maydonlari va yer maydonida joylashgan bino;
- Yer osti va yer usti kommunikatsiyalarning rejalar ;
- Yer maydonlari rejasi;
- Muhandis tarmoqlari ;
- Inshootlar .

Ayrim hollarda obyektlar qatoriga chegaradosh yer hududlari (qo‘shni yer maydonlari, ko‘chalar, va h.k.), obyektlar qurilishi uchun vakolatli idoralarning yer ajratish haqida qarori; obyektni qurish shartnomasi; yer maydonining kadastr hujjati; yer maydonidan foydalanish va ijara shartnomasi; yer maydonining rejasi, yer maydoni va unda joylashgan bino inshootlar hamda unga tutashgan ko‘cha hududlarining oxirgi paytdagi topografik reja suratlari (muhandis kommunikatsiyalar sxemasi bilan) ham kiradi.

### **Sud-yer ekspertizasida hal etiladigan savollar:**

Ajratilgan yer maydonlarining haqiqiy o‘lchamlarini yer ajratish kadastr hujjalardagi o‘lchamlar bilan mosligini aniqlash;

Turar joy binolarini bo‘lib (ajratib) “servitut” foydalanishda yer maydonlarini bo‘lib (foydalanish tartibini aniqlab) foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

Turar joy binolarini bo‘lishda yer maydonlarini bo‘lish imkoniyatlarini aniqlash;

Turar joy binolarini bo‘lib foydalanishda yer maydonlaridan bo‘lib foydalanish tartibini belgilash imkoniyatlarini aniqlash;

Yer maydoniga egalik qilishning ekspert tomonidan baholanishi, yer maydonlariga qo‘shni yerlarini qo‘sishimcha o‘zlashtirilgan

## **Yer maydonlariga bo‘lgan foydalanish huquqini baholash ekspertizasi**

***Yer maydonlariga bo‘lgan foydalanish huquqlarini baholash sud ekspertizasining predmeti*** – bu yer maydoniga bo‘lgan huquq turi (yer maydonining o‘ziga ham, yer maydonidagi bino va inshootlarga ham), yer maydonidan foydalanishdagi mavjud cheklovlar, uning maqsadli vazifalar va yer qonunchiligiga muvofiq foydalanishga ruxsat etilganligi, foydalanish huquqini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish shakli to‘g‘risidagi bozor ma’lumotlari, ko‘rib chiqilayotgan huquqning o‘xhash yechimlari bo‘yicha bitimlar to‘g‘risidagi bozor ma’lumotlari. Shuningdek, tadqiqot predmetiga yer uchastkasi bo‘yicha kadastr ma’lumotlari - uning joylashuvi (manzili), o‘lchamlari, konfiguratsiyasi, hamda binolar, inshootlar, shu jumladan hajm-rejali va konstruktiv xususiyatlari, foydalanish muddati, texnik holati, muhandislik jihozlarining parametrlari, yer maydonidagi qurilish obyektlari bilan o‘zlashtirilishi va o‘zlashtirilmagan qismi nisbati kiradi. Ushbu ma’lumotlar ekspert tomonidan - yer tuzish, shaharsozlik, qurilish, moliyaviy iqtisodiyot sohasidagi maxsus bilimlar asosida o‘rganiladi.

### ***Obyektlari:***

- Yer maydonlariga bo‘lgan foydalanish huquqlarni baholash bo‘yicha sud ekspertizasining tadqiqot obyektlari:
  - foydalanish huquqini o‘rnatuvchi va ko‘rib chiqilayotgan foydalanish huquqining turiga oid foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat, unga maqsadli vazifalar, ruxsat etilgan foydalanish haqidagi ma’lumotlar, yer maydoniga bo‘lgan boshqa shaxslarning huquqlari yoki yer maydoniga bo‘lgan mulkiy huquqlarning bo‘linishi kiradi.
  - foydalanish huquqini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish haqidagi guvohnomalar.
  - turar joy, jamoat, fuqarolik-sanoat maqsadli bino va inshootlari, yer maydonlaridan o‘tuvchi, qo‘shti hududlar (ko‘chalar, bo‘sh yerlar va hokazo).
  - Davlat shaharsozlik kadastridan olingan ma’lumotlar;
  - topografik chizma;
  - yerni binolarni yoki inshootlarni qurish maqsadida foydalanish chizmasi;
  - yer maydonining kadastr (vaziyatli) chizmasi;
  - ko‘rib chiqilayotgan yer maydoniga bo‘lgan huquqning analoglar bo‘yicha kelishuvlarning bozor ma’lumotlari.

## XULOSA

Qo‘llanmada keng jamoatchilik vakillarining sud ekspertizasi va uning imkoniyatlari to‘g‘risida dastlabki tushuncha va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga qaratilgan ma’lumotlar jadvallar shaklida yoritildi. Jumladan, sud ekspertlik faoliyati, xalqaro hamkorlik, sud-ekspertiza tushunchasi, predmeti va vazifalari, ekspert vazifalarining daraja mezoniga ko‘ra tasniflanishi, sud-ekspertiza obyektlari va namunalari, sud ekspertizalari va ekspertiza obyektlari xususiyatlarining tasnifi, tadqiqot uchun olinadigan namunalar, sud ekspertizasini tayinlash va bajarishning taskiliy masalalari, ekspertiza tayinlash va o‘tkazishning shartligi, sud ekspertining huquqiy maqomi, sud ekspertizasining uslubiy asoslari, ekspert xulosasining tuzilishi va mazmuni hamda sud ekspertizasining har bir turlarining tadqiqot obyektlari va hal etiladigan savollari bo‘yicha ma’lumotlar kiritildi.

Sud ekspertlik faoliyati – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma’muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san’at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o‘tkazish va xulosa berishdan iborat bo‘lgan protsessual harakatni bildiradi.

Sud-ekspertiza sohasida xalqaro hamkorlikda xorijiy davlatlarning sud ekspertlari ishtirokida sud ekspertizasini o‘tkazish sud ekspertizasi ijrochisining mamlakat protsessual qonunchiligidagi belgilangan tartibda, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni talablari asosida amalga oshiriladi.

Sud-ekspertizaning vazifasi tushunchasi ekspert oldiga qo‘yilgan savol tushunchasiga yaqin bo‘lib, turli xil ta’riflardan birini olib qarasak, u muayyan ekspertizani bajarish uchun ekspert oldiga qo‘yilgan savollar ko‘rinishida ifodalanishi mumkin.

Sud ekspertizalarini tasniflashning aniq va samarali amaliy mezoni ekspert tadqiqoti jarayonida qo‘llaniladigan, ekspert muammolarini hal qilishda ishtirok etuvchi muayyan fan metodologiyasida ifodalangan bilimlarni asoslash xususiyati hisoblanadi.

Ushbu qo‘llanmadan foydalangan keng jamoatchilik vakillari, avvalambor, sud ekspertizasi haqida keng tushunchaga hamda sud-ekspertiza turlariga doir batafsil ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Bu esa ularning sud-ekspertiza muassasalarida olib borilayotgan ekspertiza va tadqiqot turlari imkoniyatlaridan yanada keng va samarali foydalanishlariga xiizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonuni / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2010. – 22–son. – 173–m.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagisi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-m.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022-y.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4125-son qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19-yanvar 2019. 07/19/4125/2510-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagisi “O‘zbekiston Respublikasida Sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6256-sonli farmoni / <https://lex.uz/docs/5491507>
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazining Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 704-sonli Qarori. / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi / <https://lex.uz/uz/docs/-5737131>
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagisi “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 73-sonli Qarori. / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi / <https://lex.uz/uz/docs/-6388692>
8. Otaxo‘jayev S.A. va boshqalar. Zamonaviy ekspertiza imkoniyatlari (sud ekspertizasining imkoniyatlari va uni tayinlash to‘g‘risida uslubiy qo‘llanma). – T.: Adolat, 2009.
9. Xalilov A., va boshqalar. Zamonaviy sud-ekspertizasining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish bo‘yicha elektron amaliy qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
10. Urozmanov Sh., Xalmuxamedova S., Medzveskaya E.I., Nazarov A., Botirova O., Fayzullaeva M., Mahkamov M., Muxitdinov T., Tojiev R. Bank sohasida boy berilgan foydani aniqlash tadqiqoti bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – Toshkent, 2023.
11. Urozmanov Sh., Botirova O., Mahkamov M., Muxitdinov T., G‘ofurjonov A., Xotamov I., Tursunov B., Xo‘jaev F. Tadbirkorlik subyektlarining boy berilgan foydasini aniqlash tadqiqoti bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – Toshkent, 2023.